

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAR VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

HAMIDOVA SHOIRA, ESHNIYAZOVA MAYSARA

O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI

Samarqand - 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAR VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

HAMIDOVA SHOIRA, ESHNIYAZOVA MAYSARA

**O'ZBEK TILINING SOHADA
QO'LLANISHI**

(veterinariya yo'nalishi talabalari uchun)

uslubiy qo'llanma

443
H 24

Hamidova Shoira, Eshniyazova Maysara
O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI


(veterinariya yo'nalishi talabalar uchun)

Mazkur "O'zbek tilining sohada qo'llanishi (veterinariya yo'nalishi talabalar uchun)" uslubiy qo'llanmasi amaldagi o'quv rejasi va o'quv dasturiga tayanib yaratilgan. Unda o'zbek tilining sohalarda, xususan, veterinariya sohasida qo'llanishi borasida eng zarur va dolzARB mavzu va materiallar qamrab olingan va bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan yoritib berilgan.

Uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida va akademik litseylarda veterinariya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek ona tili o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

- Sh. Mahmadiyev** – SamDU o'zbek filologiyasi fakulteti dotsenti,
O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri.
- N.Ochilova** – SDVMCHBU xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi.



Uslubiy qo'llanma Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2022-yil 29-iyundagi 6-sonli yig'ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Taraqqiyot yo‘lidan jadal borayotgan Yangi O‘zbekistonimiz har jahbada yetuk kadrlar, malakali mutaxassislar, o‘z sohasining bilimdonlari mehnati va tajribalariga tayanadi. Salohiyatli olimlar, tadqiqotchilar, soha vakillari o‘zaro muloqot jarayonida og‘zaki va yozma shaklda o‘zbek tilidan foydalanishadi. Mazkur ehtiyojdan yuqori saviyada foydalanish va bu borada ko‘zga tashlanayotgan ba‘zi kamchilik va muammolarni bartaraf etish hamda oldini olish maqsadida davlatimizda til siyosatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi „Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me’yoriy hujjalarda „o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash“ asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o‘qituvchilarning mas‘uliyatini oshirishi tabiiy. Jumladan, konsepsiada ustuvor vazifa sifatida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik sohavakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekanligi shubhasizdir.

Hozirgi kunda oly ta‘lim muassasalari o‘quv dasturiga „O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi“ fani kiritilgan bo‘lib, talabalarga amaliy mashg‘ulot sifatida o‘qitilmoqda. Mazkur fanni o‘qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, ushbu uslubiy qo‘llanma tayyorlandi. Unda tanlangan materiallar foydalanuvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, sohaviy atamalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek ularni ma’nан va ruhan yetuk shaxslar qilib tarbiyalashda yordam berishi inobatga olingan.

Mazkur qo‘llanmada ona tili fanidan dars mashg‘ulotlarida o‘tilgan mavzularni chiqurroq o‘zlashtirish, mustahkamlash va qoidalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun har bir mavzuga oid mashqlar, uy vazifasi va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar, testlar berilgan.

Shuningdek, ushbu qo‘llanmadan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari qo‘shimcha manba sifatida foydalanishlari mumkin.



1-MAVZU. KIRISH. O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANISHI FANINING O'RGANISH OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Til ijtimoiy hodisa sifatida. Dunyo tillari va o'zbek tilining o'rni.
2. Umumuxalq tili, milliy til, adabiy til va Davlat tili tushunchalar.
3. O'zbek tili va huquqiy-me'yoriy hujjatlar.
4. O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining o'qitilish asoslari.

Tayanch so'z va iboralar: milliy til, sheva, lahja, adabiy tili, davlat tili, davlat tilini o'qitishdan maqsad, o'zbek tilining sohada qo'llanilishi, imlo qoidalari, ish yuritish, mutaxassislik terminologiyasi, hujjatlar tili, og'zaki adabiy tili, yozma adabiy tili, davlat tili haqidagi qonun, millatni birlashtirish, savodxonlik.

Til – eng muhim aloqa vositasi. Til yordamida suhbatlashib, savol-javob qilamiz. Til yordamida fikrni ifodalab, tushuntiramiz. Ajdoddan ma'lumot olib, avlodga uzatamiz. Tilning eng muhim aloqa vositasi ekanligi shunda namoyon bo'ladi. Insonning eng asosiy, uni boshqa jonzotdan farqlab turuvchi belgisi - ong va tilga egaligi. Til faqat insonga va u mansub jamiyatga xos bo'lgan hodisa. Til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyatni tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Shuningdek, u ayrim shaxsga emas, balki jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun til **ijtimoiy hodisa** deyiladi.



Til kishilar o'rtasidagi aloqa-aratashuv qurolidir. Shunga ko'ra u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til vositasida fikrlaymiz va boshqalarga fikrimizni uzatamiz. Tilni xalq yaratadi va unga sayqal beradi.

Til – yaxlit bir butunlik. Borliqdagi barcha narsa qismdan tashkil topganligi kabi til ham gap, so'z birikmasi hosil qilish va so'z yasash qolipi, so'z, qo'shimcha va tovushdan iborat. Ana shu qismlar bir-biri bilan turli qonun-qoida, tartib asosida birikib butunlikni, ya'ni tilni hosil qiladi. Biror tilning qachon paydo bo'lganini taxminan aytish mumkin. Masalan, manbalarda o'zbek tili XV asrda shakllanib bo'lgan, boshqa turkiy tillardan ajralib chiqqan deyiladi. Biroq, umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganini aniqlab bo'lmaydi.

Har qanday ixtiro yoki kashfiyot til bois ajdoddlardan avlodlarga meros bo'lib yashab kelmoqda. Shu bois har bir til o'z egasi uchun nihoyatda qadrli va aziz hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'tgan asrda rasman 2976 tilni qayd etgan bo'lsa-da, sohaning yetakchi mutaxassislari hozirgi paytda jami **6809 ta til** mavjud ekanligini ta'kidlashmoqda. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati **6912 tilni** qamrab oladi.

Til moddiy, ma'naviy merosni saqlash va boyitishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning

yarmi joriy asrda o‘zining oxirgi sohiblaridan ajralishi mumkin. Ba’zi farazlarga ko‘ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o‘lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o‘layotganligi – dahshatli hodisa! Til nega o‘ladi? Chunki odamlar undan foydalanmay qo‘yishadi, keng qo‘llanishdagi va „obro‘li“ tillarga ustuvorlik berilishi natijasida bolalar bu tilda ta’lim olmaydi.

Tillar xavfsizligi alifbo-imlo, ko‘p sonli so‘zlashuvchilarga egalik, davlat tili maqomi va axborot-kommunikatsiyalari sohalari, Internet tili ekanligi omillari bilan ta’milnadi. Bular tillar yashovchanligi uchun yaxlit mezondir. Albatta, bizning ona (o‘zbek) tilimizning ham o‘z alifbo va imlosiga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 milliondan ortiq so‘zlashuvchisi borligi kishini xushnud qiladi. Biroq achchiq bo‘lsa-da, ta’kidlash kerakki, uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko‘tarilmayotganligi va, ayniqsa, bu borada hech qanday na nazariy, na amaliy va na tashkiliy ishlar olib borilmayotganligi uning ham mazkur xavfdan butkul xoli emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston – ko‘p millatlik davlat. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. O‘zbekiston aholisining 80 foizdan ortig‘ini o‘zbeklar tashkil etib, ularning umumiy aholi sonidagi ulushi muntazam oshib bormoqda.

Umumxalq tili ma’lum bir xalqning so‘zlashuv tili bo‘lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi. Bir tilga mansub barcha sheva va lajja umumxalq tilini tashkil qiladi. O‘zbek umumxalq tili uch lajhadan tashkil topgan. Umumxalq tili **milliy til** ham deyiladi. **Adabiy til** esa umumxalq tilining olim va adiblar tomonidan qayta ishlangan, me’yorga solingan, hamma uchun umumiy bo‘lgan, yuqori darajada sayqallashgan shakli.

Davlat muassasasi, matbuot, radio, televideniye va ta’lim, madaniyat va ilmda adabiy tildan foydalaniladi. Adabiy til umumxalq tilidan tashqarida bo‘lmaydi. Adabiy tili bo‘lishi uchun umumxalq tili a) yozuv bilan ta’milangan bo‘lishi; b) qonun-qoidasi aniqlangan bo‘lishi; c) mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo‘lishi lozim. Dunyodagi ko‘pgina tilning hozir ham adabiy shakli yo‘q. Adabiy tilning og‘zaki va yozma ko‘rinishi mavjud. Og‘zaki shakl so‘z, tovush, gap, ohang, pauza (to‘xtam) bilan, yozma shakli esa harf, yozuv, tinish belgisi bilan ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakli o‘z me’yoriga ega. Uning og‘zaki shakli kishi uchun bevosita, yozma adabiy til esa bilvosita aloqa vositasi. Chunki yozuvda qog‘oz, ruchka, yorug‘lik bo‘lishi kerak. Og‘zaki muloqotda bu shart emas. Adabiy til lajja va sheva negizida umumlashtirish, qat’iy me’yorni ishlab chiqish yo‘li bilan hosil qilinadi va undan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Shuning uchun adabiy til xalq shevasidan uzilmagan. Milliy til uchun sheva boyishning ichki manbasi hisoblanadi. Boshqa tildan so‘z olib rivojlanish tashqi manbadir.

Faqat muayyan hududga xos til shakli **sheva**, bir-biriga yaqin bo‘lgan sheva yig‘indisi **lahja** deb yuritiladi. O‘zbek umumxalq tili taridbida uchta lajja bor: qarluq lajhasi (janubiy-sharqiy guruh); qipchoq lajhasi (janubiy-g‘arbiy guruh); o‘g‘iz lajhasi (shimoliv-g‘arbiy guruh).

Davlat tili — siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda ma'lum bir davlatda integratsiya (birlashtiruvchi) vazifasini amalga oshiradigan, shuningdek ushbu davlatning ramzi sanaladigan tildir.

Davlat tili mustaqil davlatning muhim belgisidir. Til davlat himoyasiga muhtoj bo'lganda, undan foydalanishni barqarorlashtirishga ehtiyoj sezilgandagina, uning rivoji uchun shart-sharoit lozim deb topilgandagina unga qonun yo'li bilan davlat tili maqomi beriladi. Tilga davlat tili nufuzining berilishi esa mustaqil davlatning suveren huquqi hisoblanadi.

O'zbek tili mavqeyini mustahkamlash borasida mamlakatimizda qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

1989-yil 21-oktabrda istiqlol sari tashlangan dadil qadam sifatida O'zbekiston Respublikasining 30 moddadan iborat "**Davlat tili haqida**"gi tarixiy qonuni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda mustaqil davlat deb e'lon qilinishi qaddimizni bukib kelgan barcha tahqir va tazyiqlardan ozod etdi. "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan kun – 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni deb e'lon qilindi va har yili boshqa bayramlar qatori yuqori ko'tarinkilik bilan nishonlanib kelinmoqda.

Mazkur tarixiy qonun qabul qilingan paytda O'zbekiston Respublikasi hali sobiq sho'rolar davlati tarkibida bo'lib, birgina qonun qabul qilish bilan o'zbek tilining mamlakat ichida va undan tashqaridagi obro'-e'tibori, xalqaro mavqeyini tezdan tiklash qiyin edi. Shuningdek, mazkur qonunda o'zbek tili bilan bir qatorda rus tiliga ham millatlararo muomala tili sifatida bir talay imtiyozlar ham berilgan ediki, bu hol ham o'zbek tilining davlat tili sifatida keng miqyosda qo'llanishiga biroz bo'lsa-da, soya tashlar edi. Shuning uchun ham istiqloqlga erishilgach, qonun qayta ishlanib, davr talabidan ortda qolayotgan moddalar yangilari bilan almashtirildi, mustaqil davlat hayotiga mos keluvchi yangi tahrirda 1995-yil 21-dekabrda qabul qilindi. Avvalgi qonun 30 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirdan so'ng u 24 moddaga keltirildi. Qonunning 1-moddasidayoq "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deyilgan. Mazkur moddaning o'ziyoq respublikamizda ish yuritish – hujjatlar bilan bog'liq barcha ishlarning davlat tilida olib borilishi lozimligini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311сонли qarori bilan "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining amalga oshirilishini ta'minlash Davlat dasturi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan yangi tahrirda tasdiqlandi. Davlat dasturiga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi 1996-yil 14-noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" (yangi tahrirda)gi Qonunini bajarish tadbirlari to'g'risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o'quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslarini 1997-yildan e'tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat'iy qilib qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi „Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til

siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PF-6084-son farmoni qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda „o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatangashvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistonidagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash“ asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida nazarda tutilgan vazifalar barcha soha vakillarining, ayniqsa, filolog o‘qituvchilarining mas’uliyatini oshirishi tabiiy. Jumladan, konsepsiada ustuvor vazifa sifatida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarda davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish; ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik sohavakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishli ekanligi shubhasizdir.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturiga „**O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi**“ fani kiritilgan bo‘lib, talabalarga amaliy mashg‘ulot sifatida o‘qitilmoqda. Mazkur fanning **maqsadi**:

➤ talabalarning o‘zbek tilidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish;

➤ tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish;

➤ ularning og‘zaki va yozma nutqini kasbiy atamalar bilan boyitish;

➤ o‘zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta’minlashga erishish. „O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi“ fanning **vazifalari**:

✓ nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

✓ og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;

✓ ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish;

✓ sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Fanni o‘zlashtirish **natijasida** talaba:

– og‘zaki va yozma nutqni egallashlari uchun adabiy til va uning me'yorlariga amal qilish fanning asosini tashkil etishi haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

– o‘zbek tilining so‘z boyligi imkoniyatlaridan keng foydalangan holda gaplarni to‘g‘ri tuzishi, uslubiy qo‘llanishlarni bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda o‘zbek tilining grammatik qoidalari me'yorlariga amal qilgan holda mustaqil ifodalay olishi;

– o‘zbek xalqining tarixi, an’analari, urf-odatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy maseblarda erkin mulqotga kirisha olishi;

— davlat tilida yetarli darajada yozma savodxonlikka ega bo'lishi, o'zbek tilida rasmiy ish yurita olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Mavzuga oid savollar

1. „Til – ijtimoiy hodisa“ deganda nimani tushunasisz?
2. Dunyo tillari orasida xalqaro til sifatida baholanadigan tillar qaysilar?
3. Tirik tillar va o'lik tillar haqida nimalarini bilasiz?
4. Hozirgi o'zbek tili fanining bo'limlarini sanang, bu bo'limlar tilning qaysi jihatlarini o'rganadi?
5. Tillarni o'rganish, ko'p tilni bilish shaxsga qanday imkoniyatlar berishi mumkin? Milliy til mavqeyini mustahkamlash borasida qanday ishlarni amalga oshirish mumkin deb o'ylaysiz?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Berilgan matnni o'qing. Uning mazmunini grafik-organayzer (chizmali) ko'rinishida ifodalang.

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'Imagan tillar esa qarindosh bo'Imagan tillar hisoblanadi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq, tatar, uyg'ur, boshqird, ozarbayjon, qorachoy-bolqar kabi tillar qarindosh tillar sanaladi. Qarindosh kishilar bir ajoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir bobo tildan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham dunyo tillari qarindoshligiga ko'ra til oilalariga bo'linadi. Til oilalarining nomlari bobo til nomi bilan yuritiladi. Masalan, slavyan tillari oilasi, german tillari oilasi, roman tillari oilasi, eroniy tillari oilasi, somiy tillari oilasi, turkiy tillari oilasi va boshqalar.

Turkiy tillar oilasida 30 ga yaqin til bor. Bu tilda so'zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstraliya mintaqalarida istiqomat qilishadi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqar, qo'miq, no'g'ay, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash va boshqalar.

Turkiy tillar agglutinativ tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi. Masalan: mahalla + dosh + lar + im + ga.

№2. Quyida berilgan she'riy parchani o'qing va nasriy bayonini aytинг. Bandning til xususiyatlarini izohlang. Ushbu she'riy asardan olgan xulosalaringiz bilan o'rtoqlashing.

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsin debon

Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,

It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar also odami.

(A.Navoiy)

№3. Shevangizga oid so‘zlardan 20 ta namuna keltirib, uni adabiy tildagi muqobili bilan birga yozing.

№4. Berilgan gaplarni o‘qing. Ona tilining me’yorlariga muvofiq kelmaydigan o‘rnlarni izohlang.

1. Ayol kabinetga kirib kelishi bilan uni qayerdadir ko‘rganga o‘xshab ketdim. 2. Bu ish uchun kerakli ko‘nikmani, uquvni hayotning o‘zi tug‘diradi, tarbiya, bilim beradi. 3. Shunday qilib, uni bu aybi uchun ikki huquqdan mahrum etiladi. 4. «Balki» degan taxmin tergovchi faoliyatida zo‘r chora – narsa emas, ammo uni hisobga olinmasa ham bo‘lmaydi. 5. So‘zni uning uchun yoqinqiragan mavzudan boshladim. (M. Nasibullin)

№5. Quyida O‘zbekiston Respublikasining “**Davlat tili haqida**”gi qonunidan ayrim moddalar yoki ularning ba’zi bandlari keltirilgan. Ularning mazmunini o‘zlashtiring va sharhlang.

2-modda.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda.

O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi...

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’milanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qtish bepul amalga oshiriladi.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiyy, hunar-texnika, o‘rtta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minalaydi.

7-modda.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi...

8-modda.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiysi va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.

9-modda.

Davlat hokimiyyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zлari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda.

Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagи ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Iqtisodiy nizolar taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda.

O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni notarius yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda.

Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadir.

16-modda.

Televide niye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda.

Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda.

Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra – boshqa tilda amalga oshiriladi.

19-modda.

Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

20-modda.

Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda.

Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’minlanadi.

22-modda.

Geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahslashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.



Mavzuga oid testlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunnining yangi tahriri qachon qabul qilindi?

- | | |
|-----------------------|-----------------------|
| A) 1989-yil 21-oktabr | B) 1991-yil 1-sentabr |
| C) 1994-yil 24-avgust | D) 1995-yil 21-dekabr |

2. Adabiy tilning qanday shakli bor?

- | |
|---|
| A) xalq shevalari va adabiy til |
| B) og‘zaki adabiy til va yozma adabiy til |
| C) so‘zlashuv uslubi va kitobiylar |
| D) so‘zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar |

3. Turkiy tillar oilasi o‘z ichida qanday guruhlarga bo‘linadi?

- | | |
|----------------------------|------------------------------|
| A) qipchoq, uyg‘ur, o‘zbek | B) qorluq, qipchoq, o‘g‘uz |
| C) qorluq, qipchoq, o‘zbek | D) qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek |

4. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagisi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ushbu misralar «Davlat tili haqidagi» qonunning nechanchi moddasida aks etadi?

- | | | | |
|-------|-------|------|-------|
| A) 11 | B) 10 | C) 8 | D) 19 |
|-------|-------|------|-------|

5. Turkiy tillar oilasiga qancha til kiradi?

- | | |
|----------------|----------------|
| A) 50 ga yaqin | B) 40 ga yaqin |
| C) 30 ga yaqin | D) 20 ga yaqin |

6. XV –XIX asrlarda xalqimiz foyydalangan til qanday nomlanadi?

- A) Qadimgi turkiy til B) eski turkiy til
C) eski o'zbek tili D) hozirgi o'zbek tili

7.Lahja.....

- A) adabiy tilning bir ko'rinishi
B) Sheva eski o'zbek tilida lahja deb yuritilgan
C) adabiy tilning buzilgan shakli
D) yaqin (umumiylilik jihatlari bo'lgan) shevalar yig'indisi

8.O'zbek adabiy tili qaysi shevaga asoslanadi?

- A) Andijon B) Farg'ona C) Toshkent D) Toshkent va Farg'ona
9. «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» degan jumla «Davlat to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida aks etgan?

- A) 1-modda B) 2-modda C) 24-modda D) 4-modda

10.«O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lishi ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi». Ushbu fikir «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasida aks etgan?

- A) 3-modddada B) 4-moddada C) 7-moddada D) 8-moddada



Uy ishi

2021-yil 3-fevralda qabul qilingan “Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida”gi PF-6159-son farmoni matni bilan tanishing. “2021 – 2025-yillarda qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini ustuvor rivojlantirish konsepsiyasidan olingan quyidagi parcha yuzasidan guruhdoshlaringiz bilan fikr-mulohaza yuriting:


Mazkur Konsepsiyaning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligida ta'lim, ilm-fan, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarishning integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, yangi bilimlarni yaratish va qo'llash, resurs tejayidigan innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy va mahalliy fan yutuqlarini joriy etish, zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda agroxizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'sib, quyidagi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi:

- mehnat bozori konyunkturasi o'zgarishiga mos holda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan agrar ta'lim tizimini takomillashtirish;
- agrosanoat majmuidagi ilmiy muassasalarning ilmiy va innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishslash bilan shug'ullanuvchi subyektlar uchun axborot va maslahat tizimi asosida ish yuritadigan agroxizmatlar ko'rsatish tarmog'ini rivojlantirish.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi klaster jadvalini shakllantirib, mavzuga oid ma'ruza ma'lumotlari asosida to'ldiring.



2-MAVZU: TIL VA YOZUV MASALALARI.

Reja:

- 1.Yozuv haqida umumiy ma'lumot.
 - 2.O'zbek yozuvlari tarixidan.
 - 3.Harf va alifbo.

Tayanch so'z va iboralar: yozuv, yozuv turlari, talaffuz va imlo, og'zaki nutq, piktografik yozuv, logografik yozuv, harf-tovush yozuvi, kirill yozuvi, lotin yozuvi.

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtaсидаги муроқотга сизмат қиладиган ўзмалар юки тасвирлар тизими. У кишилик жамияти маданий тароққиётининг том ма'нодаги ибтидоси, башариатнинг узоқ ва мурakkab tadrijiy takomilli jarayонидаги омиллarning eng asosiyларидан бири. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq)ning

zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtayi nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Yozuvning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o‘zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saralash zaruriyati bilan bevosita bog‘liq.

Inson nutqi ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: og‘zaki va yozma. Yozma nutq og‘zaki nutqni maxsus belgilari tizimi yordamida ifodalash demakdir. **Og‘zaki nutqda tovushlardan, yozma nutqda esa harflardan foydalanamiz.** Yozma nutq yozuvning kelib chiqishi va uning tarixi bilan chambarchas bog‘liqidir.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopatamiyada paydo bo‘lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** yozuvi nomi bilan kirib kelgan. Hozirda dunyoda 220 ga yaqin yozuv turi bor deb taxmin qilinadi.

Grafika so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “yozmoq” degan ma’noni bildiradi. Unda ma’lum bir tildagi harflar tizimi o‘rganiladi. Harf – tovushning yozuvdagisi belgisi. Harflarning qat’iy tartibda joylashtirilgan yig‘indisi esa alfavit yoki **alifbo** deyiladi.

Har bir tildagi harflar o‘z alifbo tartibiga ega bo‘ladi. Alifbo so‘zi ham dastlabki ikki harf nomidan olingan. Alifbo harflarni xotirada yaxshi saqlash, kutubxonalarda kitoblar katalogini tuzish, lug‘at va ro‘yxatlar tuzish uchun qo‘l keladi.

Boshqa xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham o‘tmishda bir qancha yozuv turlaridan foydalangan. **Avesto, o‘rxun-enasoy, sug’d, xorazm, uyg‘ur, arab** yozuvlari shular jumlasidandir. Bu yozuvlarda xalqimizning tarixi, urf-odatlari, madaniyati va san’atiga aloqador bo‘lgan qimmatli ma’lumotlar saqlanib qolgan.

1930-yildan to 1940-yilga qadar xalqimiz **lotin** yozuvidan foydalandi. 1940-yilning may oyidan boshlab esa rus grafikasi(kirillitsa)ga asoslangan o‘zbek yozuvi amalda tatbiq etildi.

Mustaqillik barcha sohalarda bo‘lgani singari yozuv borasida ham milliy davlatchilik siyosatini yurgizish imkoniyatlarini yaratdi. 1993-yilning 2-sentabri kuni O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin yozuvi bo‘lib, jahon xalqlarining 30% dan ziyodi shu yozuvni qo‘llaydilar. 1995-yilning 6-may kuni O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni e‘lon qilindi.

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida 29 harf bo‘lib, shulardan 6 tasi unli harf, qolgan 23 tasi undosh harf va bitta (‘) belgisidan iborat. Bu belgi, asosan, arab tilidan kirib kelgan so‘zlarda ko‘p uchraydi (ma’rifat, ma’naviyat, ma’no kabilar). Undosh harflardan 3 tasi *harfiy birikma* hisoblanadi: **sh, ch, ng.** 2 tasida *tepa belgisi* mavjud: **o‘, g‘.**

1	2	3	4	5	6	7	8
Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii
9	10	11	12	13	14	15	16
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr
17	18	19	20	21	22	23	24
Ss	Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	Jj
25	26	27	28	29	Tutuq belgisi		
O'o'	G'g'	Shsh	Chch	ng	(‘)		

Mavzuga oid savollar

- 1.Dunyoda ilk yozuv turlarining paydo bo‘lishi haqida ma’lumot bering
- 2.Yozuv qachon va qanday ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan?
- 3.Yozuv bosqichlarini sanang.
- 4.O‘zbek xalqi foydalangan yozuvlarni sanang.
- 5.Hozirda dunyo miqyosida qo‘llanayotgan yozuvlar haqida nimalarni bilasiz?

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

- №1.** Yuqorida berilgan mavzuga oid materiallar (ma’ruza) hamda internet ma’lumotlari asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Nº	Yozuv turi	Qo‘llangan davri	Manbalari

- №2.** Gaplarni o‘qing, tilning inson hayotida tutgan o‘rnini haqida mulohaza qiling.

1. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar. (I.Karimov) 2. Ko‘ngil maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalitin so‘z bil. (Alisher Navoiy)
3. Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinayi hayoti til va udabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. (Abdulla Avloniy) 4. O‘z Vataningga bo‘lgan muhabbatining o‘z tilingga muhabbatingsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. (K.Paustovskiy) 5. Din, tibbiyat, tarix, huquq va astronomiya sohalarida Amir Temur o‘ta biluvchan edi. Ko‘p o‘qigan, Osiyoning eng umumli uch (turkiy, arabiyy, forsiy) tilini juda mukammal bilgan hukmdor edi. (Alfons de Lamartin)

№3. Matnni ko'chiring, so'zning qudrati haqida fikrlashing.

So'z benihoya qudratli narsa. Uni o'z o'rnida ishlata bilish uchun farosat, malaka va ziyraklik zarur. «Qobusnomax»da shunday bir hikoyat bor: Xalifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi. Tushida barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa tushni ta'bir qiluvchidan tushining ma'nosini so'raydi. U shunday deydi: «Sendan oldin barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi». Bu so'zni eshitgan Xorun ar-Rashid: «Sen mening yuzimga bunday qayg'uli so'zni aytding. Mening barcha qarindosh-urug'larim o'lsa, so'ngra men qanday ishga yaratman-u, qanday yashayman?» – deydi darg'azab bo'lib va unga yuz darra urishni buyuradi. Keyin boshqa bir ta'birchini chaqirib, undan tushining ma'nosini so'raydi. U bunday deydi: «Sening umring barcha qarindoshlarining umridan uzun bo'ladi».

Shunda Xorun ar-Rashid: «Barcha aqlning yo'li birdir va ikkala ta'birning negizi bir yerga boradi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdir», – deydi va unga yuz tillo berishni buyuradi.

№4. Matnni o'qing va fikr-mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.

Boyazid Bistomiy hazratlari jinnixona yonidan o'tayotganlarida bir tabibning hovonchada dori maydalayotganini ko'rib: – Behad gunohkorman, – debdilar, – shu kasalimga qarshi doring bormi?

Tabib boshini ko'tarib ulgurmasdan, jinnixona panjaraсидан qarab turgan bir xasta javob beribdi: – Tavbaning tomiri bilan istig'forning yaprog'ini aralashtir. Qalb hovonchasida tavhid to'qmog'i bilan tuyib maydala. Insaf elagidan o'tkaz, ko'z yosh bilan yo'g'ir, ishq tandirida pishir va bomdod bilan shom orasida ko'proq tanovul qil. Ko'rasan, xastaligingdan asar ham qolmaydi!

Bistomiy hazratlarining ko'zlari jiqlqa yoshga to'lib debdilar:

– Yo Rabbim! Bu dunyo xastaxonasida ne-ne tabiblaring bor!

(„Hikmatli latifalar va nishonga urilgan so'zlar“ kitobidan)

№5. Berilgan matnni o'qing. Internet ma'lumotlari asosida dunyo tillari haqida ko'rgazmali qurol tayyorlang.

Dunyo tillari haqida qiziqarli ma'lumotlar

Dunyoda so'z jihatidan eng badavlat til arab va ingliz tillari hisoblanadi. Ingliz tili hisobida ikki yarim milliondan ortiq, arab tili hisobida esa uch yarim milliondan ortiq lug'at boyligi bor. O'zbek tili zaxirasi taxminan 1400000 - 1600000 atrofida so'zga ega ekan. Bu ma'lumotlar, albatta, ijtimoiy sohalarga nisbatan olingan, xolos. Tilshunoslik fanidan ma'lumki, qaysi tilda sinonimlar – ma'nodosh so'zlar ko'p bo'lsa, o'sha til eng boy til; shuningdek, qaysi tilda shakldoshlar - omonim so'zlar ko'p bo'lsa, o'sha til kambag'al tillar sirasiga kiradi, deya yuritiladi. Masalan, shimoliy qutbda yashaydigan eskimos qabilasiga mansub millat tilida „qor“ so'zining 20 xil sinonimi mavjud. Arab tilida esa „cho'l“ so'zining 100 dan ortiq varianti bor.

Yer kurarsi bo'ylab eng keng tarqalgan til esa ispancha hisoblanadi. Ispan tilining bu qadar ommalashib ketishiga, avvalo, mashhur sayyoohlар, dengiz qaroqchilari va ispaniyalik mustamlakachilar sabab bo'lib qolgan. Hatto

AQSHning 50 ta shtatidan 23 tasida davlat tili ispan tili hisoblanadi. (M.Bobojonov)

№6. Turkiy xalqlar foydalangan O'rxun-Enasoy yozuvlari haqida internet ma'lumotlari asosida matn tuzing. Bitiktoшlar fotosuratlaridan ham foydalaning.

№7. Quyida berilgan kirill alifbosida yozilgan gaplarni lotin grafikasi asosida yozing.

1.Uzokdagи қариндошдан якиндаги кўшни яхши. 2.Гилам сотсанг, кўшнингга сот, бир четида ўзинг ўтирасан. 3.Яхши ҳамсоя (кўшни) – гул, ёмон ҳамсоя – чўл. 4.Кўшнинг ёмон бўлса, кўчиб кутуласан. 5.Кўшнингга ёмонлик тиласма.

№8. "Yozuv – dil oynasi" nomli matnni diqqat bilan o'qing. Munosabat bildiring: 1.O'z dastxatingiz haqida o'ylab ko'rganmisiz? 2.Uni takomillashtirish ustida mashq qilasizmi?

Yozuviga qarab insonning fe'l-atvori haqida xulosalar qilish mumkin. Qattiq bosib yozish hayotda o'z o'mrini topishga intilish, qiziqishlarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Yirik yozuv serg'ayratlik, ruhiy ko'tarinkilik, mag'rurlik, o'z qadr-qimmatini baland qo'yish, oldinga qarab intilishni anglatadi. Qirrali qilib yozish yozuv egasining qat'iyatli ekanidan, hayotga e'tibor bilan qarashidan dalolat beradi. Pala-partish, xunuk, xato yozgan odamning hayot tarzi yozuviga monand bo'ladi.


№9. Quyidagi matnni o'qing. Sizning-cha, xat yozishni bilgan kishi nima uchun baxtli bo'loldi?

O'g'lim, temirchilarni ko'rgin, kun bo'yi og'ir mehnat ostida ezilib, yetarli ovqat topa olmaydilar. Etikdo'zlarga qaragin, tun bo'yi chiroq yorug'ida etik tikib, ochlikdan kasal bo'lib, bevaqt vafot etadilar. Tosh yo'nuvchilarni ko'r, qancha ko'p ishlasalar ham, kambag'allikdan boshlari chiqmaydi. Shuning uchun sen xat yozishni o'rgan, savodli bo'l. Xat yozishni bilgan odamlar baxtli bo'ladiilar.

(Qadimgi Misr ehromlarida qoldirilgan yozuvlardan)

№10. Berilgan turkiy so'zlarning boshqa tillarga o'zlashish sabablari va ularning lug'aviy ma'nosini toping: tovarish, karandash, utyug, Baykal, Yenisey, bekat.

Namuna: tovarish – ikki qismidan iborat turkiycha (tovar+esh) so'z, qadimda karvonlardagi mol (tovar)ni manzilga yetkazib berishda yo'ldosh (esh) tushunilgan – safardagi hamroh.





Mavzuga oid testlar

- 1.O'rtta Osiyoda X-XV asrlarda arab yozuvi bilan bir qatorda yana qanday yozuv ishlatalgan?
- A) turkiy yozuv B) rim yozuvi C) uyg'ur yozuvi D) lotin yozuvi
- 2.Turkiy xalqlar qaysi asrlarda o'xrun-enasoy yozuvidan keng foydalanganlar?
- A) II-III astlarda B) V-VIII asrlarda C) V-IX asrkarda D) VII-XI asrlarda
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan va unda nechta harfdan iborat alifbo joriy etilgan?
- A) 1929-yilda, 35 ta harf
B) 1934-yil o'zbek tilshunoslarining I-qurultoyida, 30 ta harf
C) 1993-yil 2-sentabrda, 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi
D) 1995-yil 6-mayda, 29 ta harf
4. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qaror qachon qabul qilindi va unda yangi alifbodagi harflar miqdori nechta deb belgilandi?
- A) 1996-yil 26-avgustda, 32 ta harf va tutuq belgisi
B) 1995-yil 24-avgustda, 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi
C) 1995-yil 6-7-mayda, 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi
D) 1929-yil, 30 ta harf
5. Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakliga deyiladi.
- A) grafika B) orfografiya C) yozma adabiy til D) uslub
- 6.Bizning davrimizda jahon xalqlarining necha foizi lotin alifbosini o'z yozuviga asos qilib olganlar?
- A) 50 B) 40 C) 30 D) 20
7. Dastlabki yozma yodgorliklardan o'rxun-enasoy yozuvlarini qaysi davrga kelib o'qishga erishildi?
- A) XIX asrda B) XVII asrda C) XVIII asrda D) XX asrda
- 8.Yevropaliklar O'rxun-Enasoy yodgorliklari yozuvini nima deb atashgan?
- A) "manixizm" (moniylikka oid) B) "runik" (sirli)
C) "epistolyar xatlar" (nomalar) D) "elegiyalar" (qabr toshi yozuvlari)
- 9.Quidagi yozuvlardan qaysi biri hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiyl sanaladi?
- A) o'rxun-enasoy, uyg'ur, so'g'd yozuvlari
B) o'rxun- enasoy yozuvi
C) o'rxun- enasoy, so'g'd yozuvlari
D) o'rxun-enasoy, uyg'ur yozuvlari
- 10.Hozirda dunyoda eng keng tarqalgan yozuv qaysi?
- A) kirill B) ingliz C) lotin D) arab

Uy ishi

- 1.Turli xil yozuv turlariga namunalar toping, daftaringizga yozing.
- 2."Dunyo tillari" mavzusida referat yoki prezentatsiya tayyorlang.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi insert jadvalini shakllantirib, mavzuga oid ma'ruza ma'lumotlari asosida to'ldiring.

INSERT jadvali		INSERT jadvali			
Grafik taskil etuchining tur'i, shahmati va xususiyatlari	O'quv fakultetini shakllantirishning jarayoni tuzilishi	V	+	-	?
<p>"INSERT" jadvali Mustaqil o'qib vagtida olgan ma'lumotlarni tizimlashtirishni ta'minaydi, olingan ma'lumotlarni ta'sidlash, mujahid chetga chiqish, kuzatish, avval o'zlashtirgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliysini shakllantishda yordam beradi.</p>	<p>Insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan tanishdilar. Aksida o'zini to'mirlasdir.</p> <p>O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni shakllantirishda o'zini tanishdilar. -jadval ustunligini qo'shidagi befgalarga muvofiq "kiritish" "V" - men bilgan ma'lumotlarga mos; "+" - men bilgan ma'lumotlarga ridd. "-" - men uchun yangi ma'lumot. "?" - men uchun nashansiz yoki ma'lumotni englab, to'ldirish takab etildi.</p>				



3-MAVZU. O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI.

Reja:

1. Harflar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko'chirish qoidalari.

Tayanch so'z va iboralar: imlo qoidalari, harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh harflar imlosi, ko'chirish qoidalari.

Orfografiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib ("orfo" - to'g'ri, "grafo" - yozmoq), imlo qoidalari, ya'ni to'g'ri yozish qoidalari majmuidir.

So'z o'zak-negizi va qo'shimchasini yagona tarzda yozish haqidagi qoida yig'indisi orfografiya deyiladi. Orfografiya adabiy tilning yozma shakliga xos bo'lib, orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bog'liq. Rivojlangan, o'z yozuviga ega bo'lgan adabiy tilda so'zni bir xilda – yagona tarzda yozishni yo'lga qo'yish uchun imlo to'g'risida qonuni qabul qilinadi.

O'zbek tilining yangi imlo qoidalari 1995-yil 24-avgustda esa «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-son qarori bilan qabul qilingan. U 82 paragrafdan iborat. Quyida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining imlo qoidalari bilan tanishib chiqamiz:

1. Harflar imlosi:
 - a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
 - b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-bandlar).
3. Qo'shib yozish (38-50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57-65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar).
7. Ko'chirish qoidalari (75-82-bandlar).

O'ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI HARFLAR IMLOSI

Unlilar imlosi

1. Aa harfi:

- 1) *aka, alanga, aloqa, og'a; sentabr, noyabr* kabi so'zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida, *vaqt, vahm* kabi so'zlarda *a* aytildi va yoziladi.

2. Oo harfi:

- 1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so'zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o'zlashma so'zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. Ii harfi:

- 1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishlog, chiroq* kabi so'zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *o'tin, o'rik, bo'lim* kabi oldingi bo'g'inida *o'* unlisi keladigan so'zlarning keyingi bo'g'inida *i* aytildi va yoziladi.

4. Uu harfi:

- 1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchuq, usul, yulduz; maskura; ko'zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so'zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;
- 2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg'ovul, chirmovuq* kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida *o* unlisi kelsa, keyingi yopiq bo'g'in boshidagi *v* undoshidan keyin *u* aytildi va yoziladi.

3. *O'o' harfi o't, o'q, o'zbek, o'simlik, do'ppi; bo'tako'z, semizo't, gulko'rpa, noo'rin* kabi so'zlarda orqa qator o'rtal-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. *Ee* harfi *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e'lom, ne'mat, she'r* kabi so'zlarda old qator o'rtal-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilda ham, yozilmaydi:

a) ia: *material, milliard, radiator, tabiat, shariat* kabi;

b) io: *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) ai: *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) oi: *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) ea: *teatr, okean, laureat* kabi;

2) ae, oe unlilar so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilda ham, asliga muvofiq e yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytildi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

Undoshlar imlosi

8. Bb harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida p aytilda ham, b yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan v aytilda ham, b yoziladi.

9. Pp harfi *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. Vv harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovoz dor sing'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda v ba'zan f aytilda ham, v yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fjan, fe'l, futbol, fizika; asphalt, juft; insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sing'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so'zlarda f tovushi ba'zan p aytilda ham, asliga muvofiq f yoziladi.

12. Mm harfi *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so'zlarda ovoz dor lab-lab butun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda t aytilda ham, d yoziladi.

14. Tt harfi *tong, tun; butun, o'tin, o't* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sing'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilda ham, z yoziladi.

16. *Ss* harfi *sog'*, *somon*, *oson*, *asos*, *olmos* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. *Shsh* harflar birikmasi *shahar*, *shisha*, *shodlik*; *ishq*, *pishiq*; *bosh*, *tosh* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S va h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (*) belgisi qo'yildi. *Is'hoq*, *as'hob* kabi.

18. *Jj* harfi:

1) *jon*, *jahon*, *jiyda*, *tijorat*; *rivoj*, *vaj* kabi so'zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal*, *projektor*; *gijda*, *ajdar*, *tiraj* kabi o'zlashma so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. *Chch* harflar birikmasi *choy*, *chevar*, *chiroyli*, *chaman*; *achchiq*, *uchun*, *bichiqli*; *kuch*, *kech* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. *Rr* harfi *rahmat*, *rohat*, *orom*, *doira*, *bor*, *diyor* kabi so'zlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. *Ll* harfi *lola*, *loyiq*, *la'l*; *iloj*, *mahal* kabi so'zlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. *Nn* harfi:

1) *non*, *nomus*; *ona*, *tana*; *bilan*, *tomon* kabi so'zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba*, *yonbosh*, *jonbozlik*; *yonma-yon*, *ko'rinnmaslik* kabi so'zlarda n tovushi *ba'zan m* aytilda ham, *n* yoziladi.

23. *Gg* harfi *gul*, *go'zal*; *ega*, *gugurt*; *teg*, *eg* kabi so'zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. *Kk* harfi *ko'l*, *ko'yak*; *uka*, *moki*; *tok*, *bilak* kabi so'zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. *Yy* harfi *yo'l*, *yigit*, *yetti*, *yaxshi*, *yoz*, *yulduz*; *tuya*, *dunyo*, *tayyor*; *soy*, *tuy* kabi so'zlarda til o'rta sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. *Ngng* harflar birikmasi *yangi*, *ko'ngil*, *dengiz*, *singil*, *keling*, *bordingiz*; *tong*, *ming*, *teng* kabi so'zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. *Qq* harfi *qizil*, *qimiz*, *qirq*, *haqiqiy*, *aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. *G'g* harfi *g'oz*, *bag'ir*, *tog'* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. *Xx* harfi *xabar*, *xo'roz*, *xohish*, *xushnud*, *baxt*, *axborot*, *mix* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. *Hh* harfi *hosil*, *hamma*, *bahor*; *isloh*, *nikoh* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonm-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland*, *Samarqand*, *poyezd*; *do'st*, *artist*, *g'isht* kabi so'zlarda *d*, *t* tovushi *ba'zan* aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall*, *kilogramm*, *kilovatt*, *kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilda ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zlarga xuddi shu tovush

bilan boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar* *metallar*, *kilogramm+mi* = *kilogrammi* kabi.

32. ' - tutuq belgisi:

1) *a'lo*, *ba'zan*, *ma'yus*, *ta'zim*; *ra'y*, *ta'b*; *e'lon*, *e'tibor*, *e'tiqod*, *me'mor*, *mat*, *she'r*, *fe'l*; *Nu'mon*, *shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytishini ifodalash uchun qo'yildi; *mo'jiza*, *mo'tadil*, *mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytilda ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) *in'om*, *san'at*, *qat'iy*, *mas'ul* kabi o'zlashma so'zlarda unlidan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytishini ifodalash uchun qo'yildi.

Asos va qo'shimchalar imlosi

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) *a* unlisi bilan tugagan fe'llarga -v, -q, -qi qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o aytildi va shunday yoziladi: *sayla* – *saylov*, *sina* – *sinov*, *aya* – *ayovsiz*; *so'ra* – *so'roq*, *bo'ya* – *bo'yoq*; *o'na* – *o'ynoqi*, *sayra* – *sayroqi* kabi;

2) *i* unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga -v, -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli u aytildi va shunday yoziladi: *o'qi* – *o'quvchi*, *qazi* – *qazuvchi*, *sovi* – *sovug* kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga -q qo'shimchasi qo'shilganda bu unli i aytildi va shunday yoziladi: *og'ri* – *og'riq*, *qavi* – *qaviq* kabi.

Estatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: *ol* – *oluv*, *yoz* – *yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: *uz* – *uzuq*, *yut* – *yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq*, *burushiq*, *uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytildi va shunday yoziladi.

34. k, q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek*, *yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g' undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak* – *tilaging*, *yurak* – *yuragim*, *kubok* – *kubogi*, *bek* – *begi*, *tayoq* – *tayog'i*, *qo'shiq* – *qo'shig'i*, *yaxshiroq* – *yaxshiroq'i*, *yo'q* – *yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytildi va yoziladi: *ishtirok* – *ishtiroki*, *ocherk* – *ocherki*, *erk* – *erkl*, *huquq* – *huquqim*, *ravnaq* – *ravnaqi*, *yuq* – *yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush ushadi yoki ortadi:

1) *o'rin*, *qorin*, *burun*, *o'g'il*, *bo'yin*, *ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir*, *ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki*, *olti*, *yetti* so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalar qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin* – *o'rnim*, *qorin* – *qorni*, *burun* – *burning*, *o'g'il* – *o'g'ling*, *ko'ngil* – *ko'ngli*, *yarmi* – *yarmi*, *qayril* – *qayril*, *ulug'* – *ulg'ay*, *sariq* – *sarg'ay*, *ikki* – *ikkov*, *ikki* – *ikkala*, *yetti* – *yettov* kabi;

2) *u, bu, shu, o'sha* olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -ch qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *undabunday, shunda, o'shancha* kabi; *bu* olmoshlarga egalik qo'shimchalar quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) *o, o, u, e* unlilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalar quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying, parvoyimiz, parvoyingiz; obroyim, obro'ying; obro'yimir, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga -yi shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa -si shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi y undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda -si qo'shiladi: *dohysi* kabi);

4) *men, sen* olmoshlariga -ni, -ning, -niki qo'shimchalar qo'shilganda qo'shimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarining birinchi tovushi ikki xil aytilda ham, bir xil yoziladi:

1) -bon, -boz qo'shimchalari ba'zan -von, -voz aytilda ham, hamma vaqt -bon, -boz yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi.

Lekin -vachcha qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytilda va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamон yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi -di qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan i aytilda ham, hamma vaqt d' yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarining bosh tovushi ikki yoki uch xil aytilda va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida v yoki u tovushi bo'lganda -ulla aytilda va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir, o'tkazdir, tonizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha -tir aytilda va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'naliш kelishigi qo'shimchasi -ga, chegara bildiruvchi -gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi -gin, shuningdek, -gina qo'shimchasi uch xil aytilda va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarining bosh tovushi k aytilda va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach*,

kuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkan, ekkin, kichikkina kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarining bosh tovushi q aytildi va shunday yoziladi: chopiqla, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo'rqqudek, achchiqqina kabi;

d) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarining bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'i nazar, g yoziladi: bug'ya, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi.

Qo'shib yozish

38. *Xona, noma, poya, hop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxbabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.*

39. -(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: o'rribosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushiqo'mmas kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gjigjila (gij-gij+la) kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: kurnaygul, qo'zigorin, otqulog, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, qizilishton, achiqtoch, mingoyoq kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, mulqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiryuvali, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochילדasturxon kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi.

47. Ikkinchchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'ma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar

qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi* kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday hola harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *yo'o'q, nimaa, himm, ufff* kabi.

Chiziqcha bilan yozish

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafsat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta* (10-15ta), *bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldbab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopacha-chopacha, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimelia yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq* kabi;

2) juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: *do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz)* kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi *yozdi-oldi, borasan-ko'yanan, uxbabman-qolibman* kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppakunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar* kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning -ma, ba- qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *ro'baro', darbadar* kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingen so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser, kilovatt-soat* kabi.

55. -chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-ya, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, og'lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina) yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina* kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo'shimchasi o'mniga chiziqcha (-) qo'yiladi: *7-sinf, 5-, A" sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 20-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma* kabi.

58. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yo'zdi; ketgan edi, ketgan emish kabi*. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush garishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bera oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi*.

59. Ko'makchilar ajratib yoziladi: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu yudur, kun bo'yi kabi*. Lekin bilan ko'makchisining -la shakli, *uchun makchisining -chun shakli chiziqcha bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi*.

60. *Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zлari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi*. Lekin *birpas, biroz, birato'la, bivarakayiga, birmuncha, buyon so'zлari qo'shib yoziladi*:

Shuningdek, *qay so'zi yoq, yer so'zлari bilan ishlataliganda bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi*.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so'zlar ajratib yoziladi: to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq kabi*.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchи kabi*.

63. *Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar ajratib yoziladi*.

64. Belgining ortqlik darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi*.

65. Izofali birikmalar airatib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga i shaklida, unli bilan tigagan so'zlarga yi shaklida qo'shiladi: *dardi beduvo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi*. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida mustaqil ishlatalmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar kabi*.

Bosh harflar imlosi

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi:

Dilbar, O'rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Shukrimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat Velpig'ichxon, Salomjon Alikov kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Navmancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq idara, Yorqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi*.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Iulkar, Qays, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik don'ti (Oydagi relyef nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida. Oy Yer*

atrofida aylanadi.

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: "Tong (mehmonxona), "Saodat" (firma), "Navro'z" (xayriya jamg'armasi), "Jamalak (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti Navro'z bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning o'rinnbosari, Mufodaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Sog'lioni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh "har" bilan boshlanadi: "O'zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: "Sog'lom avlod uchun" (orden), "O'zbekistonda xizma ko'rsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa a'lochisi" (nishon) kabi.

73. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Mugaddasga bir qarab oldim.* (O.Yoqubov).

Eslatma:

1) ko'chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so'zi (agar u atoqli ot bo'limasa) kichik harf bilan yoziladi: "Bu men", – qo'rqibgina javob berdi ko'laga (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo'yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– mazkur ishni ko'rib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

– ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavslı raqam yoki qavslı harf qo'yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so'zlar, 2) o'zbekcha so'zlar, 3) tojik tilidan kirgan

so'zlar, 4) arab tilidan kirgan so'zlar, 5) rus tilidan kirgan so'zlar („O'zbek tili“ darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli bo'lmagan so'zi birikmalarning qisqartmalar bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (Amerika Qo'shma Shtatlari), *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *AES* (atom elektr tansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

Ko'chirish qoidalari

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatl, sisat-li, pax-ta-kor, paxta-kor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'lnlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga bиргаликда ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi.

1) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) bиргаликда ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-nqiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrda satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 4-sinf, V "F" guruh, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "Navro'z – 92" (festival), "O'qituvchi – 91" (ko'rik-tanlov), "Andijon – 9", "Termiz – 16" (g'o'za navlari), "Boing – 767" (samolyot), "Foton – 774" (televizor) kabi.

82. A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev kabilarda ismnning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, sh. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi satrda ajratib ko'chirilmaydi.

Mavzuga oid savollar

- 1.Orfografiya nimani o'rganadi?
- 2.Imlo qoidalari deganda nimani tushunasiz?
- 3.Lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi uchun imlo qoidalari qachon qabul qilingan?
- 4.Lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi imlo qoidalari necha bob va bo'limdan iborat?
- 5.Kirill va lotin yozuvlari imlosidagi asosiy farqlarni sanay olasizmi?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Gaplarni o'qib xato yozilgan so'zlarni to'g'rilang. So'zlarning aytilishi va imlosini izohlang.

1. Ey farzan! Har bir qadamingni o'ylab bos. Mulohaza blan ish qil. Zomonga munosib bo'l, o'zingni oily toifa deb ko'rsatma, amal va boyligini bilan g'ururlanma. Doyimo kamtar bo'l, xalqqa xizmat qil. Kamtarga komol, manmanga zavol, degan maqolni also unutma. Bu sening shioring bo'lsin. 2. Tabiyat qanday go'zal. Uzin yoz kechalarida yuldzilarga termilib yotish insonga zavq bag'ishlaydi. 3. O'zbekiston sanooti tinmay rivojlanib bormoqda. 4.Guruximiz bilan tiyatrga tamoshoga bordik. 5. Abu Ali Ibn Sino tug'ulgan Afshona qishlog'iga bordik. 6.Fikir mulohazalarimni qog'ozga tushurishga urundim. 7. O'tkan haftada sinifdoshlarimiz bilan toqqa borgan edik. 8. Qo'shnimizning Absalom va Abjabbor ismlisi o'g'illari bor. 9. Pamidor (ital. „oltin olma“) – qizil rangda tugincha, ichchi to'la kulchacha. 10. O'zbekiston suvirin davlat sifatida 1993 yil 29 oktabrda YUNESKO ga a'zo bo'lib kirdi va 1994 yilda maskur nufuzli Xalqaro Tashkilot tarkibida Respublika Milliy komissiya tashkil etilgan.

№2. O'qing. Qo'shma, juft so'zlarni aniqlab, yozilishiga diqqat qiling.

1.Respublikamizda uzlusiz ta'lif tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mehmondo'st, mehnatsevar, bolajon xalqimizga mos bo'lgan sofdil, mard va dovyurak, dono yoshlar kelajak poydevordir.

2.Temur qariyb yetmisiga kirgan vaqtida ham aql-zakovatini, dovyurakligini sira yo'qotmagan edi. U yolg'on-yashiqning dushmani bo'lib, hazil uning ko'ngliga yoqmasdi. (Ibn Arabshoh) U odil sudya, ilm-fan rahnamosi, rassomlar va olimlarning homiysi edi. (G.Veber) Temur dushmanlariga ofat keltiruvchi, askar-u lashkarboshilariga qattiqqo'l, xalqiga esa saxovatli ota kabi edi. (Sharofiddin Ali Yazdiy)

3.Ota-onaga munosabatda bo'lishning ba'zi qoidalari bilib oling. Birinchisi, ularga yurak-yurakdan xizmat qilmoqlikdir. Ikkinchisi, imkonli boricha, ularning hurmatlarini joyiga qo'ying. Uchinchisi, har qanday buyruqlariga gapso'zsiz itoat qiling. To'rtinchisi, buyruq kutib ularning yuz-ko'zlariga termulib o'tirishni odat qiling. Besinchisi, ularning roziligidisiz safarga chiqmang.

№3. So'zlarni qo'shib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga bo'lib ko'chirib yozing.

Ko'z//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//so'z, jigar//rang, hash//kokil, otash//qalb, g'ayrat//qilmоq, bilag//uzuk, Y akka//saroy, Olti//ariq, qum//qo'rg'on, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov, qirq//bo'g'im, qashqar//gul, chala//savod, xush//bichim, ish//yoqmas, omma//bop, millatlar//aro, tez//oqar, havo//rang, aytta//oladi, qayta//qurish, chanqov//bosdi, umum//davlat, odam//sifat, Tyan//Shan, Chil//ustun.

№4. Ko'chirish qoidalariiga zid ravishda qismlarga ajratilgan so'zlarni belgilang va ularni to'g'rilib daftaringizga ko'chirib oling.

Den-giz, ta-a-lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-Du, ko'n-gil, tran-sport, mesh-chan, sa-o-dat, ma-'lumot, B-MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, ton-ggi, sanoq-li, a-ka-xon, yan-ga, mat-baa, ya-ngi.

№5. Quyidagi SMS xabarni imlo jihatidan tuzatib yozing. Yozishma madaniyati xususida o'z munosabatingizni bildiring.

Sava! Tuzumsan iwla qaley bugn oqwga borasami borsen maniyam bor qildrb qoy vawe iwm kop tezro javop yoz

№6. Sinf taxtasiga yozilgan *qora, oq, uch* so'zlari ishtirokida uch guruhga bo'linib, qo'shma so'zlar hosil qiling. Besh daqiqa ichida kim eng ko'p qo'shma o'z aytса, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Namuna: Qorasuv, Oqqo'rg'on, uchburchak

№7. Quyidagi qisqartma otlarni daftaringizga ko'chirib oling va ularni yoddla saqlab qolishga harakat qiling.

YUNESKO – BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (inglizcha so'zlarning birinchi harflari olingen).

YXHT – Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti.

XTH – Xalqaro Gumanitar Huquq.

JIMT – Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti.

IHT – Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti.

«O'zdonmahsulot» – O'zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari konserni.

O'zIDJTU – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

TAI – Toshkent aviatsiya instituti.

TAICHB – Toshkent aviatsiya ishlаб chiqarish birlashmasi.

HB – Ichki ishlар bo'limi.

NDP – Xalq demokratik partiyasi.

AJ – aksionerlik jamiyati.

QK – qo'shma korxona.

FIDQ – Fan va texnika davlat qo'mitasi

FHDYB – fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish bo'limi

№8. Ikki guruhga bo‘linib, berilgan so‘zlarni a) aytiganidek yozilmaydigan so‘zlar; b) aytiganidek yoziladigan so‘zlarga ajratib, ko‘chiring.

Tomosha, prujina, qulduramoq, tutun, mevafurush, uzangi, uchqun, munchoq, parashut, mineral, oyoqyalang, ovunmoq, turtinmoq, jo‘sinqin, kometa, kuldircich, mashg‘ulot, palata, suyulmoq, intonatsiya, ma’rifat, ziroat, rafiq, surriyot, maxluq, fath, za’faron, shiypon, tamaddun, kafe, mujgon, ruxsor, sartarosh, mehrob, gardun, oftob, lag‘mon, ekspert, inventar, barg, vilka, teleskop, duet, fastvud, market, chikken, grill, xobbi, salsetka, reklama.

№9. Gaplarni o‘qing. Bosh harflar imlosi bilan bog‘liq xatolik yuz bergen o‘rinnlarni aniqlang.

1. Barcha alifbolarda bugungi kunga qadar saqlanib qolgan eng qadimiy harf „O“ harfidir. 2. Fors tilidan kelib chiqqan „Pijama“ va „Chemodan“ so‘zlarining o‘zagi bir xil: „pi-joma“ va „jomadon“. 3. Qadimgi misrda o‘rikni „Quyosh tuxumi“ deb atashgan. 4. „Saxara“ arab tilida „Sahro“ deganidir. 5. Esperanto Xalqaro Sun’iy Tilini yaratishga 1887-yilda Varshavalik shifokor lazар Zamendof asos solgan. 6. „Ermitaj“ so‘zi Fransuz tilida „Yolg‘iz qolish joyi“ degan ma’noni bildiradi.

№10. Quyida berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajrating: birinchi ustunga to‘g‘ri yozilgan birlıklarni yozing, ikkinchi ustunga noto‘g‘ri yozilgan birlıklarni ko‘chiring va to‘g‘ri muqobilini keltiriting.

Tomosha, kavak, qaynaq, mabodo, jahongir, matba, bahodir, samon, dovon, taassurot, taajjub, zopark, koptok, orkestr, roman, akean, kosmonavt, konstitutsiya, kollej, pomidor, moshina, noyabr, jangovor, fidoyi, tushintirmoq, qoyida, pshiqchilik, tushkin, xurs, bilinar-bilinmas, Yangiyo‘l, andijon, Uch tepa, mirrix, mubina, erta-indin, asta sekin, don-dun, ikir chikir, ko‘pdan-ko‘p, ko‘chama ko‘cha, senchi?, ertaga-ya?, bir-gina, do‘stu-dushman, baland-baland.

Mavzuga oid testlar

1. Quyidagi so‘zlardan qaysilarida tutuq belgisi unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalash uchun qo‘yiladi?

A) e’lon, shu’la B) she’r ne’mat C) mo‘jiza, mo‘tabar D) san’at, in’om

2. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” (1995-y)ga asosan har bir so‘zi bosh harf bilan yoziluvchi birliklar qatorini belgilang.

A) Xotira va qadrlash kuni

B) Mustaqillik kuni

C) Barchasidagi so‘zlar bosh harf bilan yoziladi

D) O‘zbekiston qahramoni

3. Quyidagi qo‘shma so‘zlarning qaysi biri ajratib yoziladi?

A) suvosti (kema) B) osmakो‘priк C) biroz D) shalrangquloq (it)

4. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlang.

A) O‘zbekiston Oliy Majlisи, “Sen yetim emassan” she’ri

B) “Mustaqillik” ordeni, “Do‘stlik” ordeni

C) “Orol” gazetasi, “Jiguli” mashinasи

- D) markaziy Farg‘ona kanali, katta Andijon kanali
5. Qaysi qatordagi so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi?
- A) bodom// qovoq, to‘q// qizil, kecha// kunduz
 B) orom// baxsh, qiyma// taxta, ur// to‘qmoq
 C) uyma// uy, kiyim// kechak, dam// badam
 D) gul// chechak, bordi// keldi, och//sariq
6. Bosh harflar imlosi haqidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?
- A) Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.
 B) She‘rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi.
 C) Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.
- D) Atoqli otlardan hosil bo‘lgan turdosh otlar bosh harf bilan yoziladi.
7. Qaysi qatorda chiziqcha bilan yozish qoidasi buzilgan?
- A) 1991-yil
 B) kecha-yu kunduz
 C) berilgan barcha birliklarda chiziqcha to‘g‘ri qo‘yilgan
 D) qiy-chuvlashmoq
8. Qaysi qatordagi so‘zda qo‘sh undosh xato qo‘llangan?
- A) taraddud B) shilliqqurt C) yashshamagur D) hiqqildoq
9. Qaysi qatordagi so‘z imlo qoidalari ko‘ra xato yozilgan?
- A) hayhot B) hatti-harakat C) xushhol D) xohlovchi
10. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi asosida yozilgan quyidagi so‘zlarning qaysi biri imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan?
- A) aviasiya B) bargga C) noyabr D) oktabr

Uy ishi

1. Lotin va kirill yozuvlari imlo qoidalari bilan tanishib, farqli tomonlarini aylib o‘ting.

2. O‘qing, qaysi so‘zlar qo‘shib, qaysi so‘zlar ajratib yozilishiga diqqat qiling.


Ot (qulqoq), yurt (boshi), tinchlik (sevar), husni (xat), osh (ko‘k), qo‘sht (timoq), osh (pichoq), qo‘l (qop), sada (rayhon), Yangi (yer), har (bir), qirq (tich), hech (kim), hech (nima), har (vaqt), olib (chiq), ta’sir (et), borib (kelmoq). Qimmat (baho), Besh (ariq), hech (nima), erk (sevar), ming (oyoq), xom (tok), sof (dil), kul (rang), ish (yoqmas), laylak (qor), mosh (rang), hech (qachon), har (doim), ko‘z (oynak), shirin (so‘z), baland (parvoz).

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi “Baliq skeleti” chizmasini shakllantirib, mavzuga oid ma’ruza ma’lumotlari asosida to‘ldiring.

“Baliq skeleti” chizmasi

Baliq skeletining yuqori suyagida kichik muammo ifodalanadi, pastda esa uning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



4- MAVZU. SO'Z VA UNING MA'NOLARI.

Reja:

1. So'z va leksema.
2. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.
3. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari.
4. So'zlarda hissiy-ta'siriymunosabat ifodasi.

Tayanch so'z va iboralar: leksika, leksikologiya, leksema, bir ma'noli, ko'p ma'noli, o'z ma'no, ko'chma ma'no, uslubiy bo'yoq, hissiy-ta'siriymunosabat

Har qanday tilni o'rganayotgan paytingizda, eng avvalo, sizni qurshab turga narsa va hodisalarning amaliy hayotingiz bilan bog'liq bo'lgan turli xil harakati, holatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalishini, nomlanishini bilishdan boshlaymiz.

Ma'lum bir tildagi ana shunday so'zlar yig'indisi shu tilning lug'at tarkibini tashkil qiladi.

Leksikologiya yunoncha *lexikos* – so'z, so'zga doir va *logos* – ta'limot so'zlarining birikuvidan olingen bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir.

Demak, so'z va uning ma'nolarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikologiya (ba'zan leksika) deyiladi.

Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi.

Demak, tahvil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa leksema va grammatic qo'shimchalarga bo'linadi. **Tilning lug'aviy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

Tilimiz nihoyatda boy va rang-barang. **Bir tushunchani turfa so'zlar** vositasida ifodalash bilan birga, o'zingizning turli xil munosabatingizni hani ifodalashingiz mumkin. Masalan: *jilmaymoq, miyig'ida kulmoq, kulmoq*.

ishshaymoq kabi ortiq so'zlar orqali kulish holatini ifodalaysiz va shu bilan birga kidayotgan shaxsga o'zingizning ijobi yoki salbiy bahongizni berasiz.

So'zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakatlarini bildirishi uning atash ma'nosiga sanaladi. Faqat mustaqil so'zlarga atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarga ishora qiladi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarini o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davrlar o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi.

Nutq jarayonida ikki va undan ortiq ma'noda qo'llaniluvchi so'zlarga **ko'p ma'noli so'zlar** yoki **polisemiya** deyiladi.

Polisemiya yunoncha *poli* – *ko'p, semia* – *ma'no* so'zlaridan olingen bo'lib, *ko'p ma'noli* demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha *mono* – *bir, semia* – *ma'no*)ga zidlanadi.

So'zning atash ma'nosiga ko'ra

Bir ma'noli - monosemantik

• *adam, chumchuq, ravish, chizg'ich*

Ko'p ma'noli - polisemantik

• *oltin, qalin, tugmoq, besh*

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lsa ham, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ham ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri **o'z ma'no**, qolganlari esa **ko'chma ma'no** bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida bog'ha so'zlar bilan bog'langanda namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganda **to'g'ri ma'nosini asosiy ma'no bo'lib** qoladi. Masalan, *tosh otmoq, bag'ri tosh, toshingni* ter kabi birliklar tarkibida qo'llangan *tosh* so'zi nutq qurshovidan ajratilinsa, «*qattiq jism*» ma'nosini anglatadi.

Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rinni loydalanish nutqning ta'sirchan, ifodalib o'lishiga yordam beradi.

So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. So'zlarning nutq jarayoniga bog'liq bo'limagan atash ma'nosini **o'z ma'no** (bosh ma'no, asl ma'no, tub ma'no, denotativ ma'no, to'g'ri ma'no) sanaladi.

So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosini **ko'chma ma'no** hisoblanadi. So'zning ko'chma ma'nosini nutqda boshqa so'zlar vositasida anglashiladi. Masalan: *ko'yakning etagi* – *o'z ma'noda, fevrallning etagi* (*oxirlari degan ma'noda*) – **ko'chma ma'noda**.

O'z va ko'chma ma'no birikib ko'p ma'noli so'zni hosil qiladi!

Sirg'alingdan sakillab yurguncha! (Erkin A'zam) 8. Yo'ichi birinchi boqishdayoq u qizning chehrasida Gulnorning ruhini ko'rди. (Oybek) 9. Ammo umidim bor, Avlodlar bir kun Bizning yuraklarga qilurlar havas! Sen esa, ey qalbim, shu umid uchun Eng so'nggi yolqining bera olsang bas. (E.Vohidov) 10. Atro'dan hali ham qishning turqi qochmagan esa-da, baribir, havoda ko'klam nafasi kezayotganday. (Ulug'bek Hamdam)

№7. Cho'lpionning «Kecha va kunduz» romanidan olingen parchani o'qing va ko'chimlarni aniqlang, ularning ifodalilik jihatidan qimmatini izohlang.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kului, o'zlarini horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemirakemira ilgari bosadilar. Simyog'ochchlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muchna yaxshi ko'rар ekan bu ko'kat!

№8. Gaplarni o'qing. Ko'chimlarni aniqlang, ularning nutq ifodaliligini ta'minlashdagi ishtirokini izohlang.

1. Ammo siz hurmatlilarga ma'lumdirki, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyyoqimiz va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir. (Abdulla Qodiriy) 2. Yuzlari tandirdan endi uzilgan nonday qizil, mo'ylovlibir odam uloq boshiga keldi. Ana shu mo'ylov bakovul bo'ldi. (Tog'ay Murod) 3. Vodoprovod yonidagi oshrayhondan bir shox sindirib olib, kaftiga urdi. Yoqimli hid dimog'ini qitiqladi. (O'. Umarbekov) 4. Kamarlar odatda tog'ning belida, shamoldan pana, atrof yaxshi ko'rindigan yerda bo'ladi. (Sh. Xolmirzayev) 5. Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo'lingizga suv berib, qizingizning choklairini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim! (Cho'lpion) 6. Toki g'olib ekan muzaaffar o'lka, Sha'niga she'r aytmoq shoirga odat. (A. Oripov) 7. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir. (E. Vohidov) 8. Balki, tush ko'rganday qolursiz hayron, Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin. (A. Oripov) 9. Sevgidan yetim-u umrdan yarim, Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak. Abadiy firojni, hayhot, do'starim, Abadiy visol deb bildi kelinchak. (A. Oripov) 10. Bashirjon yoniga ag'darildi: «Rahmatli chol to'g'ri aytarkan. Undan-ku, bir tiroq – men qoldim. Yaxshimi-yomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman». (N. Aminov)

№9. Gaplarda so'z qo'llash bog'liq bo'lgan xatoliklarni aniqlang.

1. Yigitcha raso charchagan ekanmi, ovqat yeb darrov uxbab qoldi.
2. Ko'lning zilol suvida tongi quyosh nurlari toblanmoqda edi.
3. Asl shoyidan tikelgan ko'ylik bu qomatdor qizga yoqishini bildi.

- Ishimiz shunday suratda davom etsa, qurilishni bayramgacha tugatamiz.
- Qara, o‘g‘lim, eshikka bir inson keldi.
- Cho‘pon ozg‘in qo‘ylarni yaylovgaga haydar, o‘z makoniga qaytib keldi.
- Nachaňnikka uchrashsam, sudga davo qilishingiz mumkin, dedi.
- Tabiat qanday suluv.
- O‘zbekiston sanooti tez suratlarda tinmay rivojlanib bormoqda.
- Guruhimiz bilan safarga bordik.

Nº10. Quyidagi matnni o‘qing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring va fikringizni lang. Siz nima deysiz?

Bir mashhur tabibdan so‘rabdilar:

- Dunyoda eng og‘ir xastalik nedur?
- Tabib aytibdur:
- Xastalikning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, ammo eng dahshatlisi ...dir.

Mavzuga oid testlar

- Leksikologiya nimani o‘rgatadi?
 - so‘z turkumlarini, antonimlarni
 - gapni, lug‘atlarning turlarini
 - so‘z birikmalarini, bir ma’noli so‘zlarni
 - so‘zlarni, ularning lug‘aviy ma’nolarini
- Leksika atamasi qanday ma’noda qo‘llanadi?
 - tilning lug‘at tarkibi, so‘zlar yig‘indisi
 - lug‘at tarkibini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bo‘limi
 - so‘zlarning leksik va grafik ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi
 - A va B
- Qaysi gapda «so‘z» so‘zi maslahat ma’nosida qo‘llangan?
 - So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor
 - Xalqda «bosha tushganini ko‘z ko‘rar» degan so‘z bor
 - Do‘sht so‘zini tashlama, tashlab boshing qashlama
 - Boshliq bilan uning o‘rtasida so‘z o‘tgan, shekilli.
- Qanday so‘zlar bosh va ko‘chma ma’nolarga ega?
 - bir ma’noli so‘zlar B) ko‘p ma’noli so‘zlar
 - atamalar D) barcha mustaqil so‘zlar
- Qaysi ma’no so‘zning bosh ma’nosi sanaladi?
 - so‘zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma’nosi
 - so‘zning nutq tarkibidan boshqa so‘zlar yordamida anglatadigan ma’nosi
 - so‘zning gap tarkibida anglatadigan ma’nosi
 - so‘zning ko‘chma ma’nolaridan biri
- Qaysi qatorda ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘z berilgan?
 - Kishi dunyoda baxtli bo‘lish uchun yashaydi.
 - Mehmon va mezbon allamahalgacha Lutfiy g‘azallarini zavq bilan o‘qishdi.

- C) Barmog‘imning tırnog‘i etidan ajrab ketdi
 D) U soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi
7. Qaysi gapda yengil so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilmagan?
 A) Es-hushingni yig‘, unaqa yengil bo‘lma
 B) Davlatbekov radiodan aytilayotgan yengil kuydan, xususan, uning so‘zlaridan zavqlanib tebrandi.
 C) Yigirma minut o‘tgandan keyin yengil ta’zim bilan Gulandom kirib keldi.
 D) Yo‘lchi yengil eshikchanli ochib kirdi.
8. O‘tkir pichoq, o‘tkir zehnli kabi birikmalardagi o‘tkir so‘zi ma’nosiga ko‘ra qanday so‘z?
 A) zid so‘z (antonim) B) bir ma’noli so‘z
 C) shakldosh (omonim) D) ko‘p ma’noli so‘z
9. So‘zning o‘z (asl) va ko‘chma ma’nosini qaysi qatorda berilgan
 A) Qishloq markaziga shu yo‘l bilan boriladi. Bahslashishga yo‘l qolmagan edi.
 B) Egri ish qirq yildan keyin ham bilinadi. Mehribon qo‘llar hamisha sizni qo‘llab- quvvatlasin.
 C) Ilgari ostonamiz tuyeq ko‘rmagan. Harbiy xizmat temir intizomni talab qiladi.
 D) Sunday sovuq xabarni kim tarqatdi? Daraxtlar uyg‘ondi.
10. *Mufassal* so‘zining lug‘aviy ma’nosini qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?
 A) uzlusiz, to‘xtovsiz B) mutlaq, absolut
 C) qisqa, lo‘nda D) to‘liq, batafsil

Uy ishi

Mutaxassislikka oid atamalarga 10 ta misol yozing va izohlang. Ularning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanini aniqlang.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

“Venn diagrammasi”ni to‘ldiring.
Bir ma’noli so‘zlar **Ko‘p ma’noli so‘zlar**




5-MAVZU. SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI.

Reja:

1. Shakldosh so'zlar haqida ma'lumot.
2. Talaffuzdosh so'zlar haqida ma'lumot.
3. Ma'nodosh so'zlar haqida ma'lumot.
4. Zid ma'noli so'zlar haqida ma'lumot.
5. Uyadosh so'zlar haqida ma'lumot.
6. Variantdosh so'zlar haqida ma'lumot.

Tayanch so'z va atamalar: nutq, so'z, ta'sirchanligi, munosabat, leksik no, tildagi so'z, talaffuz, shakldosh, ma'nodosh, ko'p ma'moli, omonim, monimik qator, antonim, so'z o'yinlari, so'z san'ati, ma'no qirralari.

Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatidan, bir xillari talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar quyidagi turuhlarga bo'linadi: 1) omonimlar, 2) sinonimlar, 3) antonimlar, 4) paronimlar, 5) uyadosh so'zlar.



Shakldosh so'zlar (omonimlar). Tilimizda tovush (yozuvsda harflar) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar va qo'shimchalar mavjud. Bunday so'z va qo'shimchalarning omonimlar (lot. homos – bir, onuma – nom) yoki shakldoshlar deyilishidan xabaringiz bor. Masalan, *ot* «hayvon», *ot* «ism», *ot* «rig'it» kabi.

Lug'aviy (leksik) omonimlar – so'zlar doirasidagi shakldoshlik nutq jarayonida so'z o'yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylilik natida ulardan o'rinali foydalanish askiyachilarining mahorati sanaladi.

Eslatma: *ba'zi adabiyotlarda omonimlar lug'aviy (so'zlar omonimligi), frazeologik (iboralar omonimligi), leksik va frazeologik (so'z va iboralar omonimligi), grammatik (qo'shimchalar omonimligi)* kabi turlarga ham ajratiladi.

Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zning o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir. Ko'p ma'noli so'zlarda o'zaro ma'no jihatdan bog'liqlik bor. Masalan, *kulmoq* fe'lini olsak, *Suman bu gapni eshitib kului* va *Unga omad kului* gaplarda *kulmoq* bir so'zning turli (o'z va ko'chma) ma'nolarda ishlatalishidir. *O'tin yonib kul bo'libdi* gapidagi *kul* so'zi esa yuqoridagi gaplardagi *kul* so'ziga nisbatan shakldoshlik hosil qilgan.

Talaffuzdosh so'zlar (paronimlar). Faqat ayrim tovushi bilan farqlanuvchi, lekin deyarli bir xil talaffuz qilinadigan so'zlarga **paronimlar** deyiladi.

Paronimlar orfoepiya qoidalariga e'tibor bermaslik natijasida hosil bo'ladi. Paronimlar bir-biridan quyidagicha farq qiladi:

- bir unli bilan farq qiladi: *xiyol – xayol, asir – asr;*
- bir undosh bilan farqlanadi: *tub – tup, bob – bop, mard – mart, yod – yot;*
- tutuq belgisi bilan faqr qiladi: *sa'va – sava, da'vo – davo, ta'rif – tarif.*

Paronimlardan she'riyatda qofiya yaratish uchun foydalaniлади. Talaffuzi yaqin bo'lganligi uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish mumkin.

Paronimlarning aytilishi yaqin bo'lgan bilan ma'noda umuman yaqinlik bo'lmaydi. Ular bir so'z turkumi doirasida (*da'vo – davo, asr – asir*) ham, turli so'z turkumi doirasida (*yetti – yetdi, mart – mard, sa'va – sava*) ham ro'y berishi mumkin. Nutqingizni aniq, ravon bo'lishini istasangiz, ana shunday xatoga yo'il qo'ymaslikka harakat qiling.

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar). Tilimizda bir ma'noni bir necha so'zlar yoki affikslar yordamida ifodalash mumkin. Masalan, inson bosh qismining old tomoni *oraz, uzor, ruxsor, chehra, yuz, bet, aft, bashara, nusxa, turq* singari so'zlar orqali ifodalananadi. Shuningdek, tilimizda *tilchi – tilshunos, dardchil – dardkash, o'rinsiz – beo rin, serhafsalal – hafsalalal* kabi qo'shimchalar yordamida bir ma'noni ikki xil shaklda yuzaga chiqarish imkoniyati ham uchrab turadi.

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga **sinonimlar** deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z va qo'shimchalarga **sinonimlar uyasi** yoki **sinonimlar qatori** deyiladi.

Eslatma: *yugorida shakldoshlik hodisasida bo'lgani kabi sinonimlarda ham lug'aviy* (so'zlar ma'nodoshligi: *chiroyli, go'zal, zeho*), **frazeologik** (iboralar ma'nodoshligi: *toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, leksik – frazeologik* (so'z va iboralar ma'nodoshligi: *toza – yog' tushsa yalaguday*), **grammatik** (qo'shimchalar ma'nodoshligi: *gulli – guldor, qadrtsiz – beqadr, telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq*) kabi turlarga ham ajratiladi.

Dublet – to'liq sinonimlar. Boshqa tildan kirgan so'zlar hisobiga har qanday holatda bir-biriga almashina oladigan sinonimlar: *fazo – osmon – kosmos, matematika – arifmetika, lingvistika – tilshunoslik*.

Ma'noviy sinonimlar – bir umumiy ma'no bersa ham, shu umumiy ma'noni qanday ifodalashiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bunda hissiy-bo'yoqdotlik (yuz – neytral, *chehra* – ijobjiy, *aft* – salbiy), uslub (*bashar* – badiiy, *kishi, birov* – so'zlashuv, *shaxs, odam* – ilmiy, *fuqaro* – rasmiy, *inson* – publisistik), ovozning

past-balangligi (shivirlamoq – baqirmoq – bo'kirmoq), ma'no darajasi (*tuzuk, burust, bir navi, yaxshi, zo'r, a'lo, gap yo'q, mixdek*) farqlanadi. Masalan: *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq so'zlar* umumiy ma'nosi bilan bir xil bo'lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko'ra farq qiladi. *shuningdek, to'ng'llamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq so'zlar* ham so'lash umumiy ma'nosi bilan yuqoridagi so'zlar bilan birlashadi, lekin ulardan ulbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi. *Irod etmoq, bayon etmoq* singari so'zlar itobiy uslubga xoslanishi bilan farqlanadi. Ko'ryapsizki, bir ma'noni o'zingizning maqsadiningizga muvofiq bir necha so'zlardan bittasini tanlash orqali ifodalash mumkin. Bu bilan nutqning ta'sirchanligini oshirish orqali so'z sehrini namoyon qilishga erishiladi.

Nutqiy jarayonda so'zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so'zlardan birini tanlaydi. Masalan, *yuz, bet, oraz, uxsor, chehra, aft, bashara, nusxa, turq* so'zlar bir umumiy ma'no beradi, ya'ni sinonimlardir. Bu sinonimlar qatorida *yuz* so'zidan chap tomonidagi to'rtta so'zda (*oraz, uzor, ruxsor, chehra*) ijobji baho va uchtasida (*oraz, uzor, ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo'lsa, o'ng tomonidan beshta so'zda (*bet, aft, bashara, nusxa, turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *aftda* salbiy baho kuchliroq, *turqda* esa hammasidan kuchliroqdir). Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi **dominanta** (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neutral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida *yuz* dominanta sanaladi.

Shartli sinonimlar – so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslangan bo'lib, gap ichida sinonim bo'ladigan, gapdan tashqarida sinonim bo'la olmaydigan so'zlar: *qattiq odam – xasis odam, shirin bola – yoqimtoy bola, qora sovuq – qattiq sovuq, qalin do'st – ahil do'st kabi*.

Ma'nodosh so'zlar quyidagicha yuzaga keladi:

1. So'zni yangi ma'noda qo'llash: *o'rin – lavozim – mansab*.
2. Adabiy til va shevaga mansub so'z sinonimligi: *narvon – shoti, chelak – paqir – satil*.
3. Boshqa tillardan so'z olish hisobiga paydo bo'lgan sinonimlar: *bahor* (tojikcha) – *ko'klam, amr* (arabcha) – *farmon* (tojikcha) – *buyruq* (o'zbekcha), *kuch* (o'zbekcha) – *qurvat* (arabcha)
4. Yangi so'z yasash orqali: *ko'rmoq – tomosha qilmoq, ruhlanmoq – yursand bo'lmoq* kabi.

Sinonimlar qatori a'zolaridan nutq jarayonida o'rinli foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qurralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Zid ma'noli (antonim) so'zlar. O'zaro zid ma'noli so'z va qo'shimchalarga antonimlar deyiladi. So'z maqomidagi antonimlar **lug'aviy** (leksik) antonimlar (*katta – kichik, saxyi – xasis, savol – javob*), qo'shimcha maqomidagi antonimlar esa **affiks** antonimlar (*gulli – gulsiz, o'rinci – noo'rin*), iboralar antonimligi

frazeologik antonim (*qo'y og'zidan cho'p olmagan – yerga ursang, ko'kka sapchiydi*) sanaladi.

Nutqimizda lug'aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta'sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'atga *tazod* san'ati deyiladi.

Fe'lning bo'lishsizlik shaklida ma'noviy zidlik bo'lmagaligi uchun antonim bo'lmaydi. Masalan: *keldi – kelmadı* so'zlari o'zaro antonimlar emas. *Keldi – ketdi* antonim juftlardir.

Antonimlik doim bir so'z turkumi doirasida vujudga keladi.

Uyadosh so'zlar. Bir mazmuniy uyaga (guruuhga) mansub bo'lgan so'zlar **uyadosh** so'zlar deyiladi.

Tilimizdag'i barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so'zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Uyadosh so'zlarni sinonimlardan farqlash lozim, sinonimlar bir tushuncha doirasidagi so'zlar bo'lsa, uyadosh so'zlar esa bir-biriga yaqin tushunchalar yig'indisidir. Masalan, *o'simliklar: gul, maysa, chirmovuq, buta; uy hayvonlari: sigir, qo'y, echki.*

Variantdosh so'zlar. Variantdosh so'zlar (leksik dublet) – bir so'zning tarixiy jarayon sababli ikki xil yozilish shakliga ega bo'lishidir. Masalan, *machit – masjid, boraver – bora ber, shabada – shabboda*.



Mavzuga oid savollar

1.Omonimlar deb nimaga aytildi va qaysi xususiyati bilan ko'p ma'noli so'zlardan o'zaro farq qiladi?

2.Paronimlar deb nimaga aytildi?

3.Sinonimlik hodisisi qay ko'rinishlarda bo'ladi va sinonimik qator nima?

4.Antonimlar deb nimaga aytildi va u qanday hosil qilinadi?

5.Uyadosh so'zlar qanday so'zlar va u qaysi xususiyati bilan sinonimlardan farqlanadi?



Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

№1. «*Palak*» so'zining bir necha xil ma'nolari borligini bilib oling. Siz ham *til, ter* kabi so'zlarning ma'nolarini ana shunday izohlab keling.

1. Palak. Ma'lum bir urug'dan ko'karib chiqib, yer yuzalab o'sib, gullab hosil beradigan poliz o'simligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak.

... So'lg'in palaklarda o'smay qolib ketgan xomaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib ko'rinar edi.(A. Muxtor)

2.Palak. Polizchilar nutqida ba'zan qovun yoki handalak urug'i tushunchasida ham qo'llanadi. Masalan: To'rt egat palak ekdim.

3.Palak. Xalqimiz urf-odatiga ko'ra, qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi.

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar,
Balki, sayladilar undan ham ortiq.
Poyiga ipakdan palak soldilar,
So'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq. (A. Oripov)

4.Palak. «Parvoyi palak» iborasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik, e'tiborsizlik bilan qarash, beg'amlik ma'nolari tushuniladi.

Atrofda bo'layotgan voqealarga Mo'yдинning parvoyi palak edi.

5.O'xshatish ma'nosida ham qo'llaniladi. «Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da», dedi so'fi yonidagilarga qarab.

№2. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Egilganga egilgin boshing yerga tegguncha, kekkayganga kekkaygin boshing ...ka yetguncha (osmon, ko'k, samo). 2. ... o'zadi, egri to'zadi (to'g'ri, vijdonli, insofli). 3. Do'st achitib gapiradi, ... kuldirib (yov, g'anim, dushman). 4. ... avlod orzusi (yetuk, barkamol, raso). 5. ... do'st ayrilmas (o'Ichovli, sanoqli, hisobli). 6. ...ga ayyor (muhayyo, shay, tayyor).

№3. Yoq, karam, kuy, qo'y, ot, kul, mushak, oy, bog', taxt, et, chang, son, shim, yot, tuz, sur, bog'cha, terma, akademik, yoz, qur, yo'q, yel, suz, soch, qovoq, olma, zang, un, es so'zlari ishtirokida gaplar tuzib, ularning matndagi ma'nolarini izohlang.

№4. Gaplarni o'qing, shakldosh so'zlarni aniqlab, izohlang.

1. Mashinaga hojat yo'q. Ana, ko'chada tramvay, trolleybuslar bor. Bor, toshingni ter! 2. Tushga qolmay yukimiz ot aravaga ortildi. Ahad Mirzo bo'sh kelmay uning yo'lini to'sdi: – Tush pastga! (Sh. Xolmirzayev) 3. Osh totig'i – tuz. (Maqol)

№5. Nuqtalar o'rniga ma'nodosh so'zlardan mosini qo'ying.

Spitamenning... (halok bo'lganini, vafot etganini, o'limini) ko'rgan Iskandar hayajonga tushib:

– Bunday... (botir, jasur, qahramon) har yuz yilda bir marta... (tug'iladi, dunyoga keladi, tavallud topadi), uni alohida izzat-hurmat bilan... (dafn etinglar, ko'minglar), – dedi. (Mirka rim Osim)

№6. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilib o'qing. Ma'nosidagi farqqa diqqat qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Artish – tozalash	Archish – po'stlog'idan ajratish
Ato – in'om, sovg'a	Ota – farzandli er kishi
Shoh – podsho	Shox – daraxt shoxi
Bog' – mevali bog'	Boq – qara, o'stir

№7. Berilgan maqollarni ko'chiring. Antonimlarning ostiga chizing.

1. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur. 2. Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor. 3. Bor maqtansa, topilur, yo'q maqtansa, chopilur. 4. Do'st achitib gapirar, dushman – kuldirib. 5. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. 6. Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. 7. Kam gapirsang, ko'p eshitasan. 8. Oyoq kiyiming tor bo'lsa, dunyoning kengligidan ne foyda. 9. Erni er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham xotin. 10. Qo'y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi. 11. Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer. 12. Aytar so'zni ayt, aytmash so'zdan qayt.

№8. Matn bilan tanishing. Noo'rin qo'llangan so'zlami aniqlab, o'miga quyida berilgan so'zlardan maqbulini qo'ying.

RUHIY MUAMMOLAR DAVOSI

Kitoblarning ruhiyatni **muolajalashda** ishlatalishi haqida **tinglaganmisiz?** Psixologlar o'z mijozlariga kitoblar **taklif** qilishi, kitob orqali odam o'z muammoidan chiqish ko'yini topa olishi mumkin. Masalan, psixolog sizning muammongiz bilan tanishgach, aynan shu yoki shunga o'xshash vaziyatga **ro'para** kelgan odam haqidagi biografik yoki avtobiografik kitobni tavsiya qildi. Kitobni o'qib, qahramon bilan ma'lum bir yollarni bosib o'tar ekansiz, sizga insayt (avval ma'lum bo'lмаган yechimni birdan anglash)lar keladi.

Psixolog sizga istalgan janrdagi, ma'nodagi kitoblarni tavsiya qilishi mumkin. Detektiv va sarguzasht kitoblar real vaziyatdan chalg'ishga yordam bersa, ilmiy-fantastik adabiyot esa **aktivlik** va tasavvurni **quvvatlantiradi**. **Qadimiy** asarlar umrdagi maqsadni aniqlashtirishga yordam beradi. Diniy-axloqiy kitoblar kishida sabr-qanoatni tarbiyalaydi. Yumor va satira janridagi asarlar ijobjiy kayfiyat ularшиб, psixologik himoyaga o'rgatadi. Aforizmlar **uyumi** fikrlarni tartiblaydi va tiniqlashtiradi. San'at haqidagi kitoblar esa **hasratda qolish** hissini uyg'otadi.

Kitob nafaqat bilim va dunyoqarashni o'stirishda, balki ruhiyatimizda muvozanat o'rnatishda ham nafli ekanini anglagandirsiz?

(„Kutubxona “ telegram kanalidan)

Tavsiya etilgan so'zlar: davolash, eshitganmisiz, tavsiya, duch, yo'l, to'satdan, mazmun, faol, kuchaytiradi, tarixiy, hayot, to'plam, hayrat, foydalı.

№9. Nuqtalar o'miga qavs ichidagi so'zlardan mosini tanlang.

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning „Al-jabr va al-muqobala“ kitobi atigi 80 betdan iborat, ammo bu kitobning dovrug'i ... (asir, asr)lar osha butun jahonga ... (taralgan, yoyilgan, tarqalgan).

2. Londondagi birinchi ... (yurt, xalq) kutubxonasining asoschisi S.Fenkorning talabi bilan kitob varaqlarini buklagan kishilarga nisbatan jazo chorasi qo'llangan: aybdorlar jazolangan yoki 7 yil qamoqqa ... (amr, amir) qilingan.

3. Kitobdan o'zingizga yoqqan voqeа ... (hayoli, xayoli) bilan oz muddat bo'lsa-da, yashab ko'rghanmisiz? (A.Muxtor)

4. Bir ... (qayta, marta, qur) o'qiladigan kitobning hozirgi kuni bor, takror-

akror o'qiladigan asarning ... (yoriq, yorug') kelajagi bor. (A.Dyuma)

5.Abu Rayhon Beruniy yozgan 150 ta kitobning 70 tasi ... (astronomiya, ilakiyat, ilmi nujum) ga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va oodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi ob-havo masalalariga, 3 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi ... (tarix, o'tmish, padim)shunoslik va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga va 18 tasi adabiyotga ... (ato tilgan, bag'ishlangan, nisor qilingan). (U.Karimov)

6.Rimning mashhur shoiri Franchesko Petrarka (1304-1374)ning izzat-kromini shu darajada joyiga qo'yishganki, u o'z sayohati davomida ... (asl, asil) nuxlislaridan biri bo'lgan zargarning uyida bir kecha ... (uxlagach, dam olgach, unagach), xonodon sohibi shu xonaning devoriga oltin suvini yuritib chiqqan kan.

7.Kopernikning 40 yil davomida yozgan „Sayyoralarining quyosh tevaragida yylanishi“ nomli kitobida keltirilgan ... (dalil, dadil)lar bugungi nazariyotchilar ichun haqiqiy maktab bo'ldi.

8.Markaziy Osiyo hududidagi dastlabki kutubxona eramizning uchinchi mrida ... (azim, azm) Xorazmda ... (vujudga kelgan, paydo bo'lgan, hosil bo'lgan).

№10. Berilgan matnni o'qing. Ma'nodoshi, shakldoshi, zid ma'nolisi, naffuzdoshi mavjud so'zlarni aniqlab, javobingizni izohlang.

To'rtta asosiy to'qimalar mavjud: epiteliy, biriktiruvchi to'qima, muskul o'qima, nerv to'qimasitananing hamma qismlari shu komponentlardan tashkil opgan bo'lib, katta anatomik tuzilmaning farq qiluvchi tashqi ko'rinishi qaysi o'qima pridominant bo'lishiga bog'liq. Har bir to'qima o'xshash hujayra va larning hosilalaridan iborat. Turli xildagi hujayralar, ushbu hosilalar muvozanati turli to'qimalar yig'indisi tananing har bir qismiga aniqlatib bo'ladigan aniq ko'rinish beradi. Hujayralarni o'rganishga juda ko'p mikroskopik usullar mavjud.

Mavzuga oid testlar

1.Omonim so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) do'st, o'rtoq, birodar, og'ayni B) bosh, katta, kam, sog', tez
C) yara, son, kul, soz, shim D) yig'ilamoq, shirin, go'zal, nam

2.Qanday so'zlarga paronim so'zlar deyiladi?

- A) aytilishi bir-biriga yaqin, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar
B) shakli bir xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar
C) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar
D) qarama-qarshi ma'noli so'zlar

3.Qimmat so'zining antonimi bilan sinonim bo'la oladigan iborani belgilang.

- A) oshig'i olchi B) mehri baland C) suv tekin D) bozori chaqqon

4. 1) nash'a - nasha; 2) sava - sa'va; 3) ta'na - tana; 4) qal'a - qala. Berilgan paronimlarning qaysilari turli so'z turkumi doirasida kuzatiladi?

- A) 1,4 B) 1,3 C) barchasida D) 2,4

5. *Istilo va istiloh so'zlarining lug'aviy ma'nosini belgilang.*

A) istilo va istiloh bir so'zning ikki xil shaklda yozilishi bo'lib, «qurol kuchi bilan bosib olish, zabit etish» degan ma'nolarni anglatadi

B) istilo - bosib olish, istiloh - o'zgarish, reforma qilish

C) istilo - bosib olish, istiloh - termin, atama

D) istilo - bosib olish, istiloh - bu so'zning tarixiy shakli

6. *Mufassal so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?*

A) uzlusiz, to'xtovsiz B) mutlaq, absolut C) qisqa, lo'nda D) to'liq, batafsil

7. Hayot shu ekan-da: yog'du va zulmat,

Qish-u yoz, o'ng-u tush, tirik va o'lik.

Shusiz bo'lmas ekan tugallik sira,

Hatto qush na'gmasi: go'zal va xunuk. Berilgan she'riy parchada nechta zid ma'noli so'zlar juftligi bor?

A) 5ta B) 4 ta C) 6 ta D) 3 ta

8. Qaysi qatorda paronimlarni qo'llash bilan bog'liq xato mavjud?

A) Tamburimning ovozi – yorimning sho'xchan nozi.

B) Ot abzalin shayladi, o'q-anjomin boyladi.

C) Nodirjon o'yinda berilib ketganidan kech kirganini bilmay qoldi.

D) Tanbalga ish buyursang, otangdan yaxshi maslahat beradi.

9. Qaysi qatorda paronimlar berilgan?

A) gado – gadoy B) asta – ohista C) yuvundi – yuvindi D) battar – badtar

10. Qaysi qatorda *yondosh* o'rniida uning paronimi qo'llangan?

A) Yo'iga yondash anhor shovullab oqardi.

B) Yaxshiga yondash, yomondan qoch.

C) Masalaga to'g'ri yondashmoq kerak.

D) Durdona dugonalariga yondashib soy bo'yiga yo'l oldi.

Uy ishi

1. Quyida berilgan jadvallar asosida misollar yozing.

Ma'nodoshilik hodisasi

So'z - so'z {leksik/ lug'aviy}

nom ot ism

Qoshimcha – oo'shimcha (affiks/grammatik)

serhosil

hosildor

Ibora – ibora (frazoologik)

lloning yog'iniyalagan

pixini yorgan

Sinonimlarning paydo bo'lish omillari

1 • Chetdan so'z olish:

• Buyruq – farmon – amr

2 • Qoshimchalar ma'nodoshiligi:

• sergap – gapdon

3 • Eskirgan so'zlar:

• xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum, raiyat, budun

4 • Ko'p ma'noli so'zlar:

• og'ilr – zilday; qlyin; xavfli; nochar

2.Quyida berilgan birliklardan shakldosh so‘zlarni ajrating va ma’nosini zohlang.

Bo'y, karam, alif, oila, turkum, lug'at, yeng, kengash, qon, yetti, taxmin, alam, oshiq, to'sh, tup, huzur, shol, chechak.

3.Quyida berilgan talaffuzdosh so‘zlarning ma’nosini farqlab, so‘z birikmalarini tuzing.

Azim – azm, alpoz – alfoz, angar – angor, nar – nor, toblanmoq – tovlanmoq, chuchimoq – cho‘chimoq, emakdosh – emikdosh, ertagi – ertangi, yaroqsiz – yang‘siz; tub – tup – to‘p, hush – xush – xo‘sish, chakka – chakki – chekka.

4.Quyida berilgan so‘zlarni *qo'y* va *qoramol* so‘zlari ostiga birlashtirib yozib chiqing.

Buzoq, qo‘zichoq, qorako'l terisi, sigir,sovliq, novvos, qo‘chqor, jun, buzoqboqar, qo‘ychivon, yantoq, makkajoxori.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

“Konseptual jadval”ni ko‘rsatilgani kabi ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

No	So‘z	Ma’nodoshi	Zid ma’nolisi	Talaffuzdoshi
1	Ahil	Inoq, totuv	Notinch, serjanjal	Ahl
2	Adil	Tik, to‘g‘ri, raso	Egri, egik	Adl
3	Qur (qurmoq)	***	***	***
4	Azim	***	***	***
5	Urush	***	***	***
6	***	***	***	***

6-MAVZU. TIL VA TERMINOLOGIYA.

Reja:

1. Termin va terminologiya haqida umumiylar ma’lumot.
2. Terminlarning turlari.
3. Ilmiy terminlar oldiga qo‘yiladigan talablar.

Tayanch so‘z va iboralar: termin, terminologiya, sohaga oid terminlar, o‘z o‘zlashma terminlar.

Ilm-fan, texnikaning ma’lum bir sohasigagina tushunarli bo‘lgan bir ma’noli so‘z va birikmalar **terminlar** deyiladi.

So‘z ko‘p ma’noga, ya’ni qo‘sishimcha ma’nolarga ega bo‘ladi, lekin termin bunday xususiyatga ega emas. Termin ham so‘z, ammo u odatdagi so‘zlardan

ma'nosining aniqligi, bir ma'noliligi bilan farqlanadi. Termin ma'lum sohada, shu soha vakillari nutqida qo'llaniladi. Masalan: *infeksiya, infekcion kasallik, mutualizm, mikroorganizm, ekzotoksin, parazit, invazion kasalliklar, gelmintoz, qo'zg'atuvchi bakteriya* kabi terminlar veterinariya sohasida uchraydi.

Terminlar yig'indisi va shu terminlarni o'rganuvchi soha **terminologiya** deyiladi. Termin grekcha "terminos" so'zidan olingen bo'lib, "chek, chegara" ma'nolarini bildiradi.

Terminlarning umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlarni quyidagicha izohlash o'rinnlidir:

1. So'zlar fan va texnikaning ma'lum tarmog'ida qo'llanilib, iste'mol doirasida chegaralangan ma'noda ishlatsila, terminlarga aylanadi. Masalan, *suv, tuz, kasallik, surtma, boshlang'ich davr, qo'zg'atuvchi* kabi umumiste'moldagi so'zlar fan sohalarida ilmiy-rasmiy ma'nolarni ifodalab, hozirgi kunda terminlar tizimiga kirgan.

Suv so'zi umumiste'molda har xil suvlarni anglatadi: oqar suv, buloq suvi, gazli suv, mineral suv kabi. Kimyo fani termini sifatida esa suv – N₂O formulasi orqali ifodalangan va ikki vodorod hamda kisloroddan iborat birikma tushuniladi, ana shu tarkib asosida u Mendeleyev jadvalidagi boshqa moddalar bilan reaksiya kirishadi.

2. Termin nominativ vazifani bajaradi. Terminning ma'nosni adabiy til me'yordi doirasida tushunchaga teng bo'ladi. Chunki bir terminologik tizimda termin bir ma'noli (monosemantik) bo'lgani uchun uning ma'nosni tushunchaga teng keladi. Ya'ni terminlar bir ma'noni ifodalovchi maxsus rasmiy so'zlardir: kagat, hujayra, xivchin, seleksiya, leykotsit, laboratoriya. Ko'p ma'noli birgina so'z esa bir necha tushunchani ifodalaydi. Masalan, *ko'z – kishi a'zosi; uzukdag'i bezak; yog'ochdag'i belgi; buloqning suv chiqadigan joyi* kabi tushunchalarni anglatadi.

3. Termin aniq, konkret tushunchalarni bildirib, his-hayajon ma'nolaridan xoli bo'ladi. So'zning ma'nosni murakkab bo'lib, unda tushuncha qo'shimcha ma'no va uslubiy belgilarga ega bo'ladi. Shu bois tilda bir tushunchani anglatadigan sinonimlar turli ma'no qirralari yoki uslubiy qo'llanilishi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, *yuz, bet, chehra, jamol, yonoq, ruxsor, oraz, turq, aqt, bashara* so'zlarini bir umumiyl tushunchani bildirib, sinonimlar hisoblansa-da, biroq turli ma'no qirralariga ko'ra bir-biridan farqlanadi: *basharang qursin* deyish mumkin; *chehrang qursin* yoki *jamoling qursin* deb bo'lmaydi.

4. Bir so'z bir necha sohaning termini bo'lishi mumkin. Lekin bunday so'zlar fanning har bir sohasida alohida tushunchalarning nomi bo'lib keladi. Masalan, *topshiriq* termini pedagogik terminologiyada o'quvchilar yoki talabalarga beriladigan vazifa ma'nosini anglatsa, terminologiyada topshiriq termini huquqtartibot tizimida faoliyat ko'rsatuvchi xodimga yuklatiladigan muhim vazifa ma'nolarini bildiradi. *Operatsiya* termini meditsinada jarrohlik bilan bog'liq tushunchani anglatsa, terminologiyada biror maqsad yoki maxsus, maxfiy topshiriq yuzasidan o'tkaziladigan tadbir nomini bildiradi. Xuddi shu ma'noda *konstitutsiya, morfologiya* terminlarini ham olish mumkin.

5. Terminlarning yana bir o‘ziga xos belgisi shuki, terminlar rasmiylashgan bo‘lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Xalqaro terminlar fikrimizga misol bo‘la oladi: virus, virusologiya, molyuska, atologoanatomik , ekspertiza va h.k. Bunday terminlar yuzining barcha qit’alarida bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

6. Terminlar muayyan bir sohaga tegishli bo‘lib, mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan so‘zlardir. Shuning uchun bir tushunchani nodalovchi terminni boshqa bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ya’ni bir farmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, *mikroflora*, *abses*, *efir*, *aeromonoz*, *furunkulez*, *patogenez* kabi terminlarga muqobil variantlar izlash nojoizdir. Ba’zan boshqa terminologiya shaharida bo‘lgani kabi terminlar tizimida ham sinonimik holatlar ko‘zga tushlanadi: *sud* – *qozi*, *prokuror* – *qoralovchi*, *aybdor* – *ayblanuvchi*, *respublika* – *jumhuriyat*, *gumondor* – *gumon qilinuvchi*, *advokat* – *himoyachi* kabi. Biroq bunday holat terminologiyadagi nuqson hisoblanadi, chunki terminlar bir ma’noli bo‘lganligi uchun sinonim va dubletlardan xoli bo‘lishi lozim. Bunday holatning asosiy sababi xalqaro terminlarga o‘zbek tilidagi muqobilini tanlash asosida yuzaga keladi. Vaholanki, xalqaro terminlar dunyo miqyosida bir xil qo‘llaniladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Termin haqida ma’lumot bering.
2. Terminologiya qanday soha?
3. So‘z va terminlarning farqi nimada?
4. Sohaga oid terminlarning o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot bering.
5. Terminologiyada qanday muammolar mavjud?

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. “Davlat tili haqida”gi Qonunning ushbu moddasi bilan tanishing. Nuchanchi modda ekanliginin aniqlang. Mazmunini sharhlang.

“Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jumoatchilik muhokamasidan keyin Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi”.

№2. Berilgan matndagi terminlarni aniqlab, daftaringizga yozing, ularning qo‘llanilish holatlariga e’tibor bering.

Mexanika – tashqi kuch ta’sirida jismning fazoda harakatlanishi va muvozanatini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan. Moddiy nuqta mexanikasi, moddiy nuqtalar tizimi mexanikasi, mutlaq qattiq jism mexanikasi, gruntlar mexanikasi va tutash muhit mexanikasi kabi bo‘limlarga, bularning har qaysisi dina mika, kinematika va statika bo‘limlariga bo‘linadi.

Mexanikaning mexanika qonunlarini amaliy masalalar – mashinalar,

mexanizmlar va boshqa inshootlar yasashga tatbiq qilish bilan shug'ullanadigan sohasi amaliy (tatbiqi) mexanika deb ataladi; inshootlar va ularning qismlarini mustahkamlik va ustuvorligini hisoblash usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan sohasi qurilish mexanikasi deyiladi. («O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»)

№3. Quyidagi so'zlarni ko'chiring, imlosini va izohlarini yodlab oling.

Akkaunt – ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining nomi, **bloger** – o'z qarashlarini internetdagi ma'lum bir platformada doimiy ravishda e'lon qiladigan kishi; **avatarka** – foydalanuvchi taqdimoti sifatida tanlangan rasm; **fayl** – kompyuterda ma'lum saqlovchi diskning nomlangan sohasi; **mem** – mashhur bo'lib bahsga aylangan g'oya yoki rasm; **xeshteg** – ijtimoiy tarmoqlarda mavzu bo'yicha xabarlarni tarqatishda foydalaniladigan yorliq, **veb-sahifa** – internetdagi hujjat va ma'lumotlar zaxirasi; **vebenar** – to'g'ridan to'g'ri mashg'ulot, **dayjest** – ma'lum bir mavzu bo'yicha eng qiziqarli nashrlarni yetkazadigan maqola.

№4. Kichik guruhlarga bo'lining. Har bir guruh ma'lum fan yoki sohani tanlab, o'shangaga doir terminlarga misollar yozsin. Belgilangan vaqtida terminlarni kim ko'p va to'g'ri topib yozsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

№5. Matnni o'qing, o'zbek tilida yangi paydo bo'lgan so'zlar va terminlar haqidagi fikringizni aytинг.

Mustaqillik tufayli yuz bergan o'zgarishlar, evrilishlar, yangilanishlar o'zbek tili leksikasining rivojiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir faqat son jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham bo'lganligini ta'kidlash lozim. Mustaqillikdan aval lug'atlarimizga sig'magan ma'naviyat so'zi izohli lug'atga qaytdi. Bakalavr, bankomat, barter, birja, investitsiya, konsalting, marketing, menejer, multimedia, reyting, tadbirdor, raqobatbardosh kabi son-sanoqsiz so'zlar tilimizga kirib keldi va uning boyishi uchun xizmat qilmoqda. (N. Mahmudov)

№6. Quyidagi matndan veterinariyaga oid terminlarni toping va izohlang.

Paramfistomatozlar – yirik va mayda shoxli hayvonlar hamda yovvoyi kavsh qaytaruvchilarining o'tkir yoki surunkali kechuvchi kasalligidir. Kasallik qo'zg'atuvchisi Paramphistomata kenja turkumiga mansub bo'lib, parazitning voyaga etgan shakllari oshqozon oldi bo'limlarida (katta qorinda, ba'zan to'r qorinda), yosh parazitlar esa shirdin va ingichka ichakning shilliq pardasi ostida yashaydi. Uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchilarida 60 turdan ziyod parafistomatlar parazitlik qiladi.

Kasallikning o'tkir kechishida 50-100% buzoqlar nobud bo'ladi, surunkali shaklida hayvonlarning mahsulorligi kamayadi, ba'zan o'lim kuzatiladi.

№7. Berilgan so'zlar ichidan tibbiyot (veterinariya) ga oid terminlarni ajratib, ularni alifbo tartibida yozing.

Karantin, limit, balans, epiderma, virus, dikroselioz, mikrobiologiya, mikroskop, mikoplazmatologiya, rikketsologiya, mikrologiya, virusologiya, sterillash.

№8. Turli fanlarda har xil ma'nolarni ifodalovchi terminlarga misol yozing va ma'nolarini izohlang.

Masalan, *topshiriq, operatsiya*.

№9. Umumxalq tilida ishlatiladigan so'zlarining veterinariya sohasiga o'zlashgan namunalaridan topib yozing.

№10. Lug'atlardan foydalanib, quyida berilgan terminlarning ma'nosini yozing.

Veterinariya, suyak, muskul, mikroorganizm, hujayra, oqsil, DNK; marketing, briefing, korrupsiya, daromad, beysbol, azimut, imlo, madhiya.

Mavzuga oid testlar

1.Termin tushunchasiga izoh bering

- A) Ishlatilish doiasi chegaralangan so'zlar
- B) Ma'lum hududdagina ishlatiladigan so'zlar
- C) Fan-texnikaning ma'lum sohasigagina tushunarli bo'lgan so'zlar
- D) A va C

2. Terminlarni o'rjanuvchi soha ... deyiladi

- A) virusologiya B)teologiya C) terminologiya D) B va C

3. Terminlar, odatda, ... bo'ladi. Jumlani to'ldiring.

- A) ko'p ma'noli B) bir ma'noli
- C) umumxalq tiliga xos D) barcha javoblar to'g'ri

4. Terminlar haqidagi xato hukmni belgilang.

- A) Terminlar ko'p ma'noli bo'lishi mumkin
- B) Terminlar ma'lum soha uchun xizmat qiladi
- C) Terminlarning ma'nosini tilning barcha vakillari uchun tushunarli bo'ladi
- D) A va C

5. Veterinariyaga oid termin qo'llanmagan qatorni toping.

- A) immunologiya B) mikrobiologiya C) allergiya D) filologiya

6.Botanikaga oid atamalar qaysi qatorda berilgan?

- A) milod, kalendar, hujayra B) kesma, arxeologiya, masal
- C) urug'chilik, o'q ildiz, kurtak D) bahor, drama, teatr

7.Quyidagi izohlar ostida qaysi atama yashiringanini aniqlang. 1.Mashg'ulot, ma'ruza (doklad) va sh.k. o'tkaziladigan xona, bo'lma. 2.Mashg'ulot, ma'ruza va sh.k.ni tinglovchilar, shuningdek, radiotinglovchilar va teletomashabinlar.

- A) dekanat B) auditoriya C) zal D) telegram

8.Qaysi qatordagi atama noto'g'ri izohlangan?

- A) aksiya – hissa, aksioner – hissador
- B) kanselyariya – idora, pechat – nashr
- C) gimn – madhiya, tamojnya – bojxona
- D) barchasi to'g'ri izohlangan

9.Qaysi qatordagi atama alifbo tartibida birinchi keltiriladi?

- A) menejment B) lizing C) raketa D) telefon

10. Qaysi termin imlosi noto‘g‘ri berilgan?

- A) bank, samolyot, kompyuter B) birja, marketing, sertifikat
C) manitoring, dizayin, audit D) globulin, fraksiya, aluminiy




Uy ishi

Kimyo va biologiya fanlariga oid 10 tadan termin tanlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi “Venn diagrammasi” chizmasini shakllantirib, mavzuga oid ma’ruza ma’lumotlari asosida to‘ldiring.



7-MAVZU. TERMINLARNING YASALISHI.

Reja :

1. Terminlarning tuzilishga ko‘ra turlari.
2. Morfologik usulda terminlar yasash.
3. Sintaktik usulda terminlar yasash.

Tayanch so‘z va iboralar: termin, ilmiy termin, talablar, ichki imkoniyatlar, boyish usullari, morfologik usulda yasash, sintaktik usulda yasash, sodda termin, qo‘shma termin.

Termin tushunchasi, ularning boshqa so‘zlardan farqi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida oldingi mavzularda fikr yuritdik. Bugun yangi termin yasalishi, ularning tuzilish jihatdan turlari haqida to‘xtalamiz.

Bizga ma’lumki, terminlar ham boshqa so‘zlar kabi sodda (bir asosli) va qo‘shma (ikki va undan ortiq asosli) bo‘ladi.

Bir asosdan iborat bo'lgan terminlar **sodda terminlar** hisoblanadi.

Mavzuni kengroq tushunish maqsadida bir necha sohaga oid terminlarni keltirib o'tmoqchimiz.

Biologiyaga oid terminlar: biosfera, zoologiya, miksedema, kapsid, epiderma, bektoz, vena, aorta, tos suyagi, oshqozon osti bezi, leshmaniya, traxeya, tur, oziq zanjiri, biotik omillar, dissimilatsiya, shartli refleks, katta qon aylanish doirasi, biokimyoiy modda, polimer ta'sir, urug'chilik, kodominantlik kabi

Kimyoga oida terminlar: eritma, valentlik, ishqor, nisbiy atom massasi, tuzlar, butan, katalizator, kivalent bog'lanish, zichlik, Avagadro qonuni, atom, elektron, bosim, murakkab efir, kislota, kimyoviy peaksiya, termokimyo, ishqoriy yer metallari va boshq.

Fizikaga oid terminlar: atom, zaryad, tok kuchi, kuchlanish, amper, volt, Nyuton qonuni, molekula, anod, Arximed qonuni, dinamika, radiatsiya, barionik zaryad, zichlik va boshq.

Matematikaga oid terminlar: integral, logarifm, noma'lum son, kvadrat tenglama, sinus, diametr, natural son, ayirma, bo'linuvchi, aksioma, o'tkir burchak, ko'pyoq va boshq.

Iqtisodga oid terminlar: kredit, limit, inflatsiya, elektron pul, kapital, biznes reja, bankrot, balans, daromad, sof foyda, tannarx...

Adabiyotga oid terminlar: roman, qofiya, radif, bayt, masnaviy, ruboiy, trilogiya, epopeya, vazn, aruz, sarbast, oq she'r, ramal, tuyuq, qit'a, lirika, epos, felyeton, qissa, doston, noma, lirik chekinish, turoq, kulminatsiya va boshq.

Sodda terminlar o'z navbatida tub va yasama terminlarga bo'linadi.

Tub terminlar asosdagi lug'aviy ma'nova saqlangan, yasovchi vositaga ega bo'limagan terminlardir: *hujayra, oksid, limfa, gormon, oziqa; ruboiy, doston, roman, qissa; ega, gap, urg'u, termin, ot, sifat, son; tok, massa, jism, harakat* va boshqalar.

Yasama terminlar yasovchi vosita yordamida yangi tushuncha hosil qilibdir. Yasama terminlar so'z yasovchi qo'shimchalar yoki so'zga so'zni birliktirish yo'li bilan hosil qilinadi: *oksidlanish, ko'payish, tenglama, jarangli undosh, ma'nodosh so'zlar, so'z yasovchi qo'shimchalar, buyrakusti bezi, ipsimon so'rg'ich, tolador parda, qalqonsimon bez gormonlari, sezgi organi, usiyat kabi*.

Ilmiy terminlar tizimining ichki imkoniyatlari hisobiga boyishi – sermahsul jarayon. Qadimgi adabiy til an'analari asosida rivojlanib kelayotgan o'zbek tili real borliqdagи voqeа-hodisalarни, tushunchalarni ifodalash uchun keng imkoniyatlarga ega. Xususan, keyingi yillarda paydo bo'lgan va paydo bo'layotgan jamiki yangi tushunchalarni ifodalash borasida o'zbek tili o'zining rivojlangan tillardan biri ekanligini isbotlamoqda. Buni, ayniqsa, o'zbek tili terminlari tizimlarining ichki manbalar hisobiga rivoj topishi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Chunki o'zbek tili terminlari tizimining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rolni o'yynamoqda. Hayotda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, ya'ni o'zbek adabiy tilining shakllanishi va takomili ham tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal toydalishni taqozo etmoqda.

Ichki imkoniyat deyilganda, asosan, morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (so'zlarga so'zlarni qo'shish) usul bilan so'z yasalishi tushuniladi. O'zbek til terminlari tizimining boyishida ana shu ikki usul asosiy rol o'yynaydi.

Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi. Morfologik usul bilan termin yoki so'z yasash shunday usulki, unda o'zak-negizga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi va yangi terminlar hosil qilinadi.

Bunday so'z yoki termin yasash ko'pgina tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham eng mahsuldor usuldir. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi 60000 dan ortiq so'zning 75-80% so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasalganligi fikrimizni isbotlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida 300 ga yuqin so'z yasovchi qo'shimcha mavjud bo'lib, ularning ba'zilari terminlarning yasalishida ishtirok etadi.

-li, -lik, -g'ich, -qi, -dor, -uvchi, -chl, -simon, -chillik, -ly-viy, -ma kabi so'z yasovchi qo'shimchalar veterinariya tarmoqlarida faol qo'llaniladi. Masalan: *o'tkazuvchanlik, naslchilik, namgarchilik, ishqorti, kimyoiyi, erituvchi, tayoqchasimon, to'qima, achtiqi, kislotali, kattalik, ishqorli, kimyoiyi ishlov, so'rg'ichli, yelpig'ichsimon, bijg'ituvchi, o'gauvchanlik, sterillash, qoramolchilik, qo'ychilik, mahsulдорлик, ozig'lantirish* va h.k.

Ilmiy terminlarning sintaktik usul bilan yasalishi. O'zbek tilning terminologiyasida yakka so'zli terminlarga nisbatan birikmali, ya'ni tarkibi ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buning sababi nimada? Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan birikmali terminlar barcha tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi, ularda ifodalanayotgan narsaning yoki tushunchaning belgisi shundoqqina bilinib turadi, ular bilishsizlikdan bilish sari harakat jarayonida ijtimoiy amaliyot ma'lumotlarini mustahkamlashda "so'zdan iborat to'siq"ni oshib o'tishga, ya'ni sintaktik birlikdan leksik birlikka o'tishga yordam beradi. Masalan, *mikrobiobiya, fotodinamika, ultrabinafsha, polimer, monomer, dezoksiriboza, biopreparat* kabi chetdan kirgan qo'shma so'z shaklidagi terminlar tilimizga faol o'zlashib, bir so'zga aylangan; *nuklein kislota, organik asos, genetik birlashuv, geografik tarqalish, antigen tarqalish, hayvon patalogiyasi, molekulyar biologiya, gen injinerligi, yuqumli bronxit* kabilarni **birikma shaklidagi** terminlarga kiritish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sintaktik usul bilan termin yasalishi deganda so'z birikmasining so'zga aylanishi tushuniladi. Til taraqqiyoti jarayonida ma'lum bir so'z birikmasi yagona leksik ma'no kasb etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi. Ya'ni birikma xarakteridagi terminlar nominativ vazifani bajarib, bir yagona termin shakliga o'tadi. Bu hodisa sohaga oid tarixiy terminlarning yasalishida ham faol bo'lgan. Masalan: *bo'tako'* (gul), *otqulog, echkichak, echkisoqol, eshakmiya, chumchuqtil, ho'kiztili, itburun* (o'simlik), *mingboshi, ellikkboshi, yuzboshi, qozikalon, mirzaboshi* kabi qo'shma so'zlar shu yo'l bilan yuzaga kelgandir. So'z hosil bo'lishining bu usuli **leksikalizatsiya usuli** deb ham yuritiladi.

Birikma holidagi terminlar shu qadar ko'p va yasalish jihatdan xilma-xil ko'rinishlarga egaki, ularning tarkibi ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi.

Masalan: *oziq-ovqat xavfsizligi, yem-xashak yetishtirish, yo'g'on ichak, garmonal o'zgarish, sun'iy detergent, o'simliklar himoyasi* kabilar ikki so'zdan iborat birikmali termin hisoblansa, *oshqozon osti bezi, katta qon aylanish sistemasi, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash, hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi, mo'ynali hayvonlar kasalliklari* kabi bir qancha terminlar uch va undan ortiq so'zdan iborat terminlar hisoblanadi.

Demak, birikma terminlar ikki xil bo'ldi:

Yig'iq birikmalar – ikki qismli birikmalar: *shilliq to'qima, orqa miya, qizil ilik, sinusoid kapillyar*

Yoyiq birikmalar – bular uch va undan ortiq mustaqil leksemalardan tarkib topadi:

a) uch qismli birikmalar: *qayta aminlanish jarayoni, mineral moddalar almashinuvi, biriktiruvchi yumshoq to'qimasi;*

b) to'rt qismli birikmalar: *tebranuvchi tukchalarga ega hujayra; tayoqchasimon o'zakli duksimon hujayra.*

Tuzilishi jihatidan birikma terminlar tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ot+ot: *yem-xashak ekinlari, hayvonlar biokimyosi, oqsil sintezi, sut zardobi;*

- sifat+ot: *ikki fazali mushak, yirik shoxli mollar, zaharli moddalar, oqsilli birikmalar, azotli birikmalar, genetik kod;*

- ot+harakat nomi: *ishlov berish, moddalar almashinuvi, to'qimalar qisqarishi.*

Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlar kabi o'z qatlama so'zlaridan, boshqa til materiallaridan hamda har ikkala manbaning o'zaro qo'shilishidan yasaladi. O'zbek tili materiallari asosida yuzaga kelgan qo'shma terminlar asosan umumiste'moldagi tayyor qo'shma so'zlarning ilmiy termin yoki nomen sifatida terminologik tizimlarga qabul qilinishi mahsulidir. Demak, qo'shma terminlarning komponentlari genetik materialiga ko'ra ikki xil ko'rinishi mavjud:

1) bir tildagi qatlama mansub so'z birlıklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar: *tabiiy oziqa, umumiyl holsizlik, to'qimalar kesmasi, nafas olish zanjiri, yog'larning hazmlanishi*

2) turli tillarga mansub so'z birlıklaridan hosil etilgan qo'shma terminlar: *vitaminsimon moddalar, biologik kod, monoaminodikarbon kislota*

Terminlar o'z va o'zlashma bo'ldi. O'zbek tiliga boshqa tillardan o'tgan terminlar o'zlashma terminlar hisoblanadi. Masalan, *butan, kavalent, efir, kislota* kabi terminlar o'zlashma qatlama mansub bo'lsa; *kuchlanish, tuz, eritma, oshqozonosti bezi* kabi terminlar o'z qatlama mansub hisoblanadi.



Mavzuga oid savollar

- 1.Terminlar tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 2.Termin yasashning qanday yo'llari mavjud?
3. Morfologik usulda termin yasashga izoh bering.
4. Sintaktik usulda termin yasashga izoh bering.
- 5.Yig'iq va yoyiq birikmali terminlarni izohlang.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Quyida berilgan terminlarni mos kataklarga joylashtiring.

kimyo	biologiya	matematika	iqtiyod	fizika	huquq	adabiyot

Miksедема, атом, заряд, ток кuchi, оq she't, amper, volt, Nyuton qонуни, молекула, zo'ravonlik, anod, limit, qiyash, inflatsiya, elektron pul, kapital, tayinlash, biznes reja, bankrot, balans, daromad, sof foyda, tannarx, nikoh shartnomasi, Tuzlar, yollanish, butan, katalizator, zichlik, avagadro qонуни, trioliya, epopeya, kivalent bog'lanish, jinoyat, vazn, aruz, sarbast, ramal, kuchlanish, o'g'irlash, tuyuq, qit'a, tahqirlash, lirika, epos, felyeton, atom, elektron, bosim, o'zlashtirish, murakkab esir, biosfera, aldash, zoologiya, kapsid, epiderma, bektoz, vena, qo'rqtish, aorta, tos suyagi, oshqozon osti bezi, leshmaniya, traxeya, tur, oziq zanjiri, biotik omillar, mujburlash.

№2. Ushbu matndan terminlarni ajratib yozing va tuzilish turiga e'tibor bering.

Viruslarning kimyoviy tarkibi

Viruslar 2 ta katta guruhga bo'lindi. Oddiy viruslar va murakkab viruslar.

Oddiy viruslar – neklein kislotada va bir nechta kodlovchi polipeptidlardan iborat.

Murakkab viruslar – o'zining tarkibida lipidlar, uvevodlar saqlab bular kodlanish jarayonida hosil bo'lmay balki hujayralardan sintezlanadi.

Nuklein kislotalar – oqsillar kabi barcha tirk mayjudotlar tarkibida bo'ladi.

Oqsillar bilan NK birligida bu ikkalasini nukleoproteidlardan deb ataladi. Oqsil va NK nisbati nukleoproteidlarda har xil bo'lishi mumkin, NKlar va oqsillar bir-biri bilan uzviy chambarchas, bog'langan: nuklein kislotasiz oqsil sintezlanmaydi shu o'rinda oqsil fermentlarisiz nuklein kislota sintezlanmaydi.

Nuklein kislotalar oqsillarga o'xshab uglerod, kislorod, vodorod, azot va fosfordan iborat. NK molekulalari har xil nisbatda 4 tipdagi nukleotidlardan iborat. Nukleotidlardan molekulasi shu o'rinda 3 ta mayda bir birovi bilan birlashgan uglevod, fosfor kislotosi va organik asoslardan iborat.

№3. Jadvalni to'ldiring (alohida ustunlarga sohaga oid atamalar yozing).

No	Terminning yasalishiga ko'ra turi	Misolilar
1.	Tub terminlar	
2.	Sodda vasama terminlar	
3.	Qo'shma (birikmali) terminlar	

№4. Mustaqillikdan so'ng tilimizga kirib kelgan so'zлarni alifbo tartibida yozing.

Bakalavr, reyting, konsalting, tadbirkor, birja, investitsiya, marketing, barter, menejer, multimedia, bankomat, raqobatbardosh.

№5. Sohangizga oid terminlar izohidagi xatoliklarni to'g'rilib ko'chiring.

1.Suvsizlanish – organizm qabul qilganiga nisbatan kamroq suv yo'qotishi.

2.Folat kislotasi – bakteriyaning ko'payishiga to'sqinlik qiladigan moddalar.

3.Antiseptik – faqat mikroskop ostida ko'rinaligan va turli infeksion kasalliliklarga olib keluvchi mikroblar.

4.Bakteriya – maxsus ish bajarish uchun organizmning a'zolarida ishlab chiqariladigan kimyoviy moddalar.

5.Gormonlar – to'q yashil bargli sabzavotlar tarkibida bor ozuqali modda.

№6.Quyidagi matndan terminlarni ajarting, ularni o'z va o'zlashma qatlamga mansubligini aniqlang.

Diagnostika. Hayvon tiriklik vaqtida kasallikning klinik belgilari, epizootologik ma'lumotlar, tezakni gelmintoskopiya usulida tekshirish (kasallikning o'tkir shaklida yosh trematodalarni ko'rish uchun) yoki gelmintoovoskopiya natijalari asosida tashhis qo'yiladi. O'Igan hayvonni yorib ko'rib trematodalarni topish orqali tashhis tasdiqlanadi.

Paramfistomatozlarning o'tkir shaklini pasterellyoz, paratuberkuloyoz va eymeriozdan farq qilish kerak.

Davolash. Surunkali paramfistomatozlarda bitionol (0,07 g/kg) yaxshi natija beradi. Alben (granulasi va tabletkasi) va panakur 7,5 mg/kg tirik vaznga ozuqa berish bilan birga berish tavsiya etiladi.

Oldini olish choralar fassiyozdagagi singari o'tkaziladi. Podada kasallikning o'tkir shakli ro'y bersa, hayvonlar bog'lab boqishga o'tkaziladi yoki yaylov almashitiriladi. SHartli sog'lom hayvonlar suvsiz vodiydagi yaylovlarga boqishga o'tkaziladi. Barcha hayvonlar 10 kun oraliq bilan gijjasizlantiriladi. Kasal hayvonlarga simptomatik davolash tayinlanadi.

№7.Quyida berilgan qo'shimchalar yordamida yasalgan sohaga oid terminlarga misollar yozing.

- -ma: eritma, to'qima, cho'kma, birikma, aralashma, ...
- -simon: ipsimon, lentasimon, ...
- -lik: ...
- -chilik: ...
- -iy/-viy: ...
- -qi: ...
- -li: ...
- -g'ich: ...
- -dor: ...
- -(u)vchi: ...

№8. Quyida berilgan matn tarkibida qo'llangan terminlarni imlo qoidalari bo'yicha to'g'rilab ko'chiring.

Antitilar maxsus oqsillar imunaglabulinlar bo'lib, ~~nayvon~~ organizimida antigenlar ta'sirida hosil bo'ladi va ular bilan bog'lanish xususiyatiga ega.

Antitilar asosan zardop oqsillarini γ -glabulin fikrasiysi bilan bog'langan bo'lib, kamroq β -glabulinlarda bo'ladi. Albumenida ular uehrannaydi.

Imunaglabulinlar qon pilazmasi oqsillarning 15-20% ni tashkil etadi. Gamaglabulinlar tarkibiga 18 xil aminokislotalar kiradi, modiyulari oksiaminakislatalar, dikarbanaminakislatalar, gilutamen va α -arginin aminokislatalar, tusanin, seren va valen.

№9. Quyida berilgan izohlar ostida yashirilgan terminlarni aniqlang.

1.Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko'paytirish, kengaytirish.

2.Zamonaviy talab va didga moslab o'zgartirish.

3.Maqсадга erishishning uzoq muddatli rejası, ijtimoiy-siyosiy hayotni taraqqiy qildirishni, shuningdek, boshqaruv uzoq muddatli, to'g'ri va istiqbolli rejalarishirish.

4.Demokratik davlatlarda, asosan, ~~naylov~~ yo'li bilan tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi.

5.Rasmiy shaxslarning ommaviy axborot voritalari vakillari bilan rasmiy nuqtayi nazar bildirish yoki muayyan masaladagi sulosalarini qisqacha bayon etish maqsadidagi uehrashuvi.

Foydalanish uchun so'zlar diversifikasiya, modernizatsiya, strategiya, parlament, brifing.

№10. Quyida berilgan matndan terminlarni topib, uning talab qilingan xususiyatlarini aniqlang va shu asosda berilgan jadvalni namumadagidek to'ldiring.

Gemoglobin va uning xossalari

Qonning shaklli elementlарини eritrotsitlar, leykotsitlar hamda trombotsitlar tashkil etib, ularning asosiy massasi eritrotsitlardan iboratdir. Eritrotsitlarning kimyoviy tarkibi qon plazmasining kimyoviy turkibiga o'xshash, lekin ularning tarkibiga kiradigan moddalar miqdor jihatidan farq qiladi. Eritrotsit tarkibida glyukoza va natriy nihoyatda oz, kaliy elementining miqdori esa qon plazmasidagiga nisbatan 20 baravar ortiq. Eritrotsitlarning 60-68% i suv bo'lib, tarkibidagi oqsillarning asosiy massasini, ya'nı 41% ni gemoglobin tashkil etadi. Gemoglobin molekulasi to'rtta polipeptid zanjirlaridan tashkil topgan. Ularning ikkitasi 141 ta aminokislota qoldiglariidan tashkil topgan α -polipeptid zanjirlaridan va ikkitasi 146 ta aminokislota qoldiglariidan tashkil topgan β -polipeptid zanjirlaridan iborat.

№	Termin	Tuzilishiغا ko'ra		Yasalishiغا ko'ra		Manbasiga ko'ra	
		sodda	qo'shma	tub	yasama	o'z qatlam	o'zlashma qatlam
1.	qon	+		+		+	
2.							

Mavzuga oid testlar

1.Termin atamasiga berilgan to'g'ri izohni toping.

A) faqat ilmiy uslubda ishlataladigan so'zlar

B) faqat tibbiyotga oid so'zlar

C) fan-tehnika yoki biror kasb sohasidagina ishlataladigan so'zlar

D) To'g'ri javob yo'q

2.Termin so'zining ma'nodoshi berilgan qatorni toping

A) atama B) istiloh C) isloh D) A va B

3.Terminlar tuzilishga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

A) sodda va qo'shma

B) sodda, qo'shma va takroriy

C) juft va takroriy

D) o'z va o'zlashgan

4.O'z qatlam bu- ...

A) bir tilning so'zlarini boshqa tilga termin sifatida o'tib qolishi

B) ma'lum bir tilning ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan termin

C) boshqa tillardan o'zkashgan termin

D) barcha javoblar to'g'ri

5.Morfologik usul bilan yasalgan terminlar berilgan qatorni toping.

A) ishqorli, kimyoviy ishlov, so'rg'ichli, yelpig'ichsimon

B) inflatsiya, elektron pul, kapital

C) o'zgauvchanlik, sterillash, qoramolchilik

D) barcha javoblar to'g'ri

6.Birikma shaklidagi terminlar berilgan qatorni toping

A) ishqorli, kimyoviy ishlov, so'rg'ichli, yelpig'ichsimon

B) Oziq zanjiri, kivalent bog'lanish, kimyoviy peaksiya

C) biznes reja, bankrot, balans

D) polimer ta'sir, urug'chilik, kodominantlik kabi

7.So'z birikmasining so'zga aylanishi orqali hosil qilingan terminlar... deyiladi

A) sintaktik usul

B) morfologik usul

C) lokalizatsiya

D) barcha javoblar to'g'ri

8.Boshqa tillardan so'z o'zlashishi evaziga hosil qilingan terminlar berilgan qatorni toping.

A) ishqorli, kimyoviy ishlov, so'rg'ichli, yelpig'ichsimon

B) inflatsiya, dissimilatsiya, traxeya

C) o'zgauvchanlik, sterillash, qoramolchilik

D) barcha javoblar to'g'ri

9.Kimyo faniga oid terminlar berilgan qatorni toping.

A) murakkab efir, biosfera, aruz

B) Nyuton qonuni, molekula, anod

C) kivalent bog'lanish, zichlik, avagadro qonuni

D) B va C

10.Birikma shaklidagi terminlarga misol berilgan qatorni toping.

A) yo'g'on ichak, garmonal o'zgarish, sun'iy detergent

B) radiatsiya, barionik zaryad, zichlik

C) o'zgaruvchanlik, sterillash, qoramolchilik

D) barcha javoblar to'g'ri



Uy ishi

Ko'kat, yomg'ir, qanot, ildiz, shox tushunchalarining ifodalaniishi ilmiy, badiiy, ommabop, so'zlashuv uslubga xos shaklda bayon qilingan matnlar topib yozing yoki o'zingiz yarating.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi "Nilufar gul" chizmasidan foydalaniib, terminlar haqidagi tasavvuringizni obrazli tarzda mustahkamlang hamda mavzuga oid ma'ruza ma'lumotlari asosida jadvalni to'ldiring.

Bunda markaziy to'rtburchakka "Terminlar" deb yozasiz, yonidagi kataklarda fanlar nomini yozasiz. Atrofidagi to'rtburchaklar markaziga ega fanning nomini yozib, uning yonidagi kataklarni o'sha fan terminlari bilan to'ldirasiz.

Izoh: 1-bosqichda A – termin, B – kimyo, C – biologiya, ... 2-bosqichda B – kimyo, yonkataklarda – valentlik, oksidlanish, ...

«Nilufar gul» chizmasi

B			
D			
G			
H			
O			



8-MAVZU. ADABIY NUTQ USLUBLARI. ILMUY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.
2. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.
3. Publitsistik uslub va uning uslubiy xususiyatlari.
4. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.
5. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy-idoraviy, publitsistik uslublar, adabiy so'zlashuv, badiiy so'zlashuv.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra **uslubiy xostangan** va **uslubiy betarov** so'zlarga bo'linadi. O'zbek tilining nutq uslublarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga esa o'zbek tili uslubiyati (stilistika) deyiladi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar**, bunday xususiyatga ega bo'lмаган so'zlar esa **uslubiy betaraf so'zlar** sanaladi.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) publisistik uslub; 3) ilmiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) badiiy uslub.

Nutq uslublaridan so'zlashuv uslubi og'zaki nutqqa, qolganlari, asosan, yozma nutqqa xosdir, ba'zan og'zaki shaklda ham yuzaga chiqadi.

So'zlashuv uslubi til birliklarini tanlash va ularni qo'llashning nisbatan erkin uslubidir. Bu uslub o'z xususiyatlari ko'ra ikki turga: **adabiy so'zlashuv uslubi** va **oddiy so'zlashuv uslubiga** ajratiladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining keng tarqalgan va barcha sohalar uchun bop turi bo'lib, u adabiy me'yorlarga mos, ishlangan va tartibga solingen bo'ladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o'qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon etishi bilan ta'riflanadi. Bu uslubda so'z tartibi qoidaga nomuvsiq bo'lishi (*Kecha konsert bo'ldi klubda*); ko'chma, obrazli emotsiyal vositalar ko'proq (*g'ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og'zi qulog'ida kabi*) qo'llanishi, gaplar dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko'p ishlatilishi (*Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha kabi*), takrorlar (*Kelib–kelib shu gapni topdingmi?*), talaffuzda erkinlik (*na'lat (la'nat), yangitdan (yangidan)*), optimizm (*olibdi* kabi) yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.

Oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvni dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati erkinligidir.

Kundalik hayotda uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvni so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.

Oddiy so'zlashuv uslubida so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so'zlarmigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so'raysiz:

– *Beshinchidan ikkita (Menga beshinchchi qatoridan ikkita chipta bering deb o'tirmaysiz).*

So'zlashuv uslubining o'zi ikki turga bo'limadi:

1) adabiy so'zlashuv uslubi; 2) oddiy so'zlashuv uslubi.

Oddiy so'zlashuv uslubida nutqiy vositalarini tejasiga intilish bilan birga, bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'li qo'shiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining tartibi ham ancha erkin bo'ladi. Ba'zan shevaga xos so'zlar, qo'pol, dan'al so'zlar ham kuzatiladi, lekin bularни qo'llash so'zlovchining madaniy nutq sohibi eimaligini ko'rsatadi.

Rasmiy-idoraviy uslub. Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy-idoraviy uslub janhyatidagi ijtimoiy, huquqiy munosabatlari, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi nutq uslubidir. Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, g'lonlar va bosqiga rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyatlari antqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtampalar, losbga old so'zlar, utumalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning uniq va ravshan ifodalishini ta'minlaydi. Tayyor nutq formulalari (*shu asasida shunga ko'ra, ma'lum qilamizki, ... ni e'tiborga olib, ... ga ko'ra, ... bi, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan (muvoofi), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin* kabi), hujjat matnining daraxt axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarining bir ma'noda ishlatalishini, badiy-tavsiyiy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'limadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fparedlik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnomha, bildirgi, tavsifnomha, tarjimayi hol, ishonchnomha, dalolatnomha).

3. Diplomatik uslub (nota, bayonotnomha, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yogha chiqadi. Har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatic xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalananadi (*ogohlantirilsin, topshirilsin* kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, «*Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G. Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinnbosari lavozimida ishlaydi...*»

Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozni singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1.Tashkiliy hujjatlari (guvohnoma, yo'riqnomma, nizom, shartnomma va boshqalar). 2.Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3.Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnomma, dalolatnomma, ishonchnomma, tavsifnomma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4.Xizmat yozishmalari (taklifnomma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi: 1) *Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz), bildiraman(miz), eslataman(miz);* 2) ...ga rozilik bildiradi, kafolat beradi, qarshi emas yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari tayinlansin, topshirilsin kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

Publitsistik uslub. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televiedeniye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistika (lot. *publika* – xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televiedeniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ'ibot uslubi bo'lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, xatlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televiedeniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Shunga ko'ra, publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatalishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoqdir so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqeа va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiyl xulosalar chiqariladi hamda, muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilishi bo'lib, oddalik, tushunarilik, ta'sirchalik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Badiiy uslub kishi hayotining hamma momonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o'quvchi yoki tinglovchiga hissiy-estetik ta'sir etishga yo'naltirilganligi bilan bosqqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik m'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatic vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlami obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadir. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining vogelikni badity idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning jamr xususiyatiga muvosiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, badiiy nutq uslubni nishbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turg'agi san'at va adabiyot asarları shu uslubda yaratiladi.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdag'i barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, datillar bilan isbotlash va asosli natijalarini bayon etish muhim hisoblanadi. Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy ma'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdag'i fe'llar va murakkab qurtilishli gaplar keng ishlataladi.

Ilmiy uslub bilimning turli sohalarga qarab, shuningdek, kimga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi.

Ilmiy uslubdag'i kitoblar ilm-faniga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi (sol ilmiy uslub) yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommiga qaratilgan (**Ilmiy-ommagibop uslub**) bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub **ilmiy-ommagibop uslub** sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommagibop uslubda maxsus atamalar kam ishlataladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniлади.

Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayananuvchi, fikri aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.



Mayzuga old savollar

1. Uslub deganda nimani tushundingiz? Hozirgi o'zbek adabiy tilida qanday uslublar farqlanadi?

2. Publitsistik uslubning asosiy vazifasi nima?

- 
3. So'zlashuv uslubi qanday turlarga bo'linadi?
 4. Atamalar qaysi uslubda keng qo'llanadi?
 5. Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Ko'chiring. Gaplarning qaysi uslubga mansubligini va uslubiy xoslangan so'zlarni aniqlang.

1. Ko'kdan quyosh mo'ralab qaraydi. (Uyg'un) 2. Kapalakday kelib, qoshingga qo'nib, Ko'zingga termulib umrim o'tsaydi. (Muhammad Yusuf) 3. Bir narsani surishtirib, tagiga yetmoqchi bo'lsak, aslidan kelamiz: asli nima edi? Asli qanday edi? va hokazo. (N.Komilov) 4. Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. (A.Hojiyev) 5. Ertaga soat 15.00 da maktab jamoasining umumiy yig'ilishi bo'ladi.

№2. Matnni o'qing, og'zaki so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan so'zlarni toping.

Men Abdulla Qodiriya qayin ini bo'laman, ya'ni u kishining zavjalari Rahbarniso mening opam bo'ladilar.

«O'tkan kunlar» nashr etilishi bilan men uni darrov o'qib chiqdim. Bir kuni Abdulla pochchamiz uyimizga mehmonga keldilar. Ziyofat chog'ida so'radilar:

- Xo'sh, mulla Asomiddin, «O'tkan kunlar»ni o'qidingizmi?
- Ha, o'qidim, – dedim g'ururlanib.
- Necha marta o'qidingiz?
- Bir marta.
- Hmm. Bu kitobni bir marta emas, besh marta o'qish kerak. Shunda siz muomalani, odobni, hayotni, tarixni, tilni o'rganasiz, – degandilar.

(Asomiddin Rasulmuhammad o'g'li)

№3. Ko'chiring. Matnning qaysi nutq uslubiga xosligini va bu uslubning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

Otasi yoki u tengi boshqa kishiga «paxan», «boboy», onalariga «babulya», «babushka», «kampirsho», aka-ukalariga nisbatan «brat», «bratan», «bratishka» deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so'zları quloqqa og'ir eshitiladi.

Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha-hindcha shakkarda o'rinsiz qisqartirilib aytilishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi.

Ko'cha-ko'yda, avtobuslarda, o'quv dargohlarida «xey», «vey», «xov» deb yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do'stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlar ham uchrab turadi.

Bularning hammasi o'ta madaniyatsizlik, odob me'yorini bilmaslik sanaladi. (A. Mirzaboboyev)

№4. Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan so'zlarni toping. Siz ham bahorg'i ishlar haqida kichik hikoya yozing.

Bu yil bahorni juda-juda sog'indik. Ayniqsa, yanvarning izg'irinli, ayozli kunlarida ko'klamning qadri juda bilindi. Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar iliy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi. Odamlarning bahri dili ochilib, kayfiyatları ko'tarilib, bahorgi tashvishlarga sho'ng'ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi chulg'ab olgan.

Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog'dagi qor zaxirasidan xursand – bu yil obi hayot mo'l bo'lishidan umidvor. Dalalar esa xamirturushdek ko'pchib turibdi. Dehqon yerga tezroq baraka urug'ini qadash umidida yonmoqda. (I.Normatov)

№5. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Uning qaysi nutq uslubiga mansubligini va uslubiy belgisini aniqlang.

Yer qish uyqusidan uyg'ondi. Bahorning mayin sabolari esa boshladi. Ariqlarning bo'yli yam-yashil maysalar bilan qoplandi, daraxtlar kurtak chiqarib, ifor isli naparmon gullar bilan bezandi.

Loyshuvoq tomlarda lolaqizg'aldoqlar yal-yal yondi.

Dalalardan yengil hovur ko'tarilib, qirlarda anvoyi chechaklar ochildi. Qishloq va shaharlarning tor ko'chalarida, maydonlarida bola-baqua ko'paydi. Kichkintoylar akalari yasab bergen «daylak»larni uchiraman deb jontlari halak.

Ahyon-ahyonda turnalar arg'imchoq solib uchib o'tishadi. Ularning dilni entiktiruvchi «qurey-qurey»lari osmonni tutadi...»

№6. O'qing, matnda qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanilganini aniqlab, ularni ko'chiring.

Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'ya solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanda, bahor kelganidan bexabar, hanuz g'allatda yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otgan, avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyuladi.

Kasalxonaga yaqinda tushgan Madrahimov, jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengechadan boshini chiqarib turgan sichqondek, derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi. (Abdulla Qahhor)

№7. Ko'chiring. Berilgan matndan ilmiy uslubga xos so'zlarni aniqlang.

Sonli tengsizliklarning asosiy xossalari, Istalgan qo'shiluvchining, tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga shu qo'shiluvchining ishorasini qarama-qarshiga almashtirgan holda ko'chirish mumkin.

Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa ko'paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi o'zgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa ko'paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarhisiga o'zgaradi.

Chap va o'ng qismlari musbat bo'lgan bir xil ishorali tengsizliklarni ko'paytirish natijasida xuddi shu ishorali tengsizlik hosil bo'ladi. (Darslikdan)

№8. Matnni ko'chiring. Qaysi nutq uslubiga mansub ekanligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan.

Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.

Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33 m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latda esa 6000 m/sekund ekanligi o'chov asboblari yordamida isbotlangan. («Tilshunoslik va tabiiy fanlar»)

№9. Rasmiy-idoraviy uslubga xos so'z va grammatik shaklli birikmalarining vazifasini izohlang.

1.Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya qiladi ("Davlat tili haqida" Qonun, 7-modda).

2.Abror Rasulov marketing bo'limi boshlig'i vazifasiga tayinlansin.

3.Yotoqxonada yashovchilar belgilangan tartib-intizom va tozalikka rioya qilmagan taqdirda yotoqxonadan chiqariladi.

4.Betobligim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma ilova qilinadi.

№10. Quyida berilgan hujjat turi va uning zaruriy qismlari bilan tanishing. Mazkur ma'lumot asosida tarjimayi hol namunasini yaratting.

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyatini aks ettirib yozilgan bayonnomma.

Zaruriy qismlari:

1.*Tarjimayi hol* deb yoziladi.

2.Muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi.

3.Tug'ilgan yili, kuni, oyi va joyi ham aniq yoziladi.

4.Ota-onalar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

5.Shundan so'ng qayerlarda, nima ishlar qilinganligi to'g'risida batafsil, yilma-yil yoziladi.

6.Oilaviy ahvoli va turar joyi haqida ma'lumot beriladi.

7.Oxirida yozilgan sana ko'rsatilib, imzo chekiladi.

Mavzuga oid testlar

1. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar qanday nomlanadi?

A) badiiy uslubga tegishli so'zlar B) ilmiy uslubga tegishli so'zlar

C) uslubiy betaraf so'zlar D) uslubiy xoslangan so'zlar

2. Til vositalarining nutqda ishlatalish imkoniyatlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rjaniladi?

A) leksikologiyada B) grammatikada

C) uslubiyatda D) dialektologiyada

3. Ushbu gaplardan qaysi birida so'z qo'llashda uslubiy xatolik bor?

A) - Afting qursin, - deb qarg'adi kampir.

B) O'zi xomush, yuzlari so'lg'in edi.

- C) Xabarni eshitib, qizning chehrasi yorishdi.
 D) Go'zal qiz Oysuluvning basharasida ter ko'rindi.
4. Rasmiy uslubda ko'pincha qanday gaplardan foydalilaniladi?
- faqat darak gaplardan
 - asosan buyruq gaplardan
 - asosan buyruq va his-hayajon gaplardan
 - asosan darak va buyruq gaplardan
5. Odatda rasmiy uslubda qanday gaplardan foydalilmaydi?
- so'roq va buyruq gaplardan
 - his-hayajon gaplardan
 - buyruq gaplardan
 - darak gaplardan
6. Qaysi uslubda so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanmaydi?
- ilmiy uslubda
 - rasmiy ish ushibida
 - so'zlashuv uslubida
 - A va B
7. Uslubiy betaraf sozlarni toping.
- suluv, oraz, og'a
 - og'u, yanglig', jamol
 - qalam, kitob, daraxt
 - mo'yqalam, og'och, hazrat
8. So'zlashuv uslubida qo'llanadigan so'zlar qatorini aniqlang.
- bashar, mozor, yaxshi, kasal
 - ado etmoq, behuda, yopiq
 - rostdan, bo'ldi, mayli
 - voqeа, barvasta, chiroyli
9. Quyidagi gaplardan ilmiy uslubga tegishlisini belgilang.
- Qani endi, hamma ham senga o'xshasa.
 - Mayin shamol daraxt va yaproqlarini asta tortqilaydi.
 - Mushfiq onaning hasratlari bir dunyo edi.
 - Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug'lilik chiqishidir.
10. Mantiqlilik, aniqlik, atamalarining keng qo'llanishi qaysi uslubning belgisi?
- rasmiy
 - ommabop
 - badiiy
 - ilmiy

Uy ishi

Berilgan matnlarning qaysi uslubga xos ekanligini toping.

1. Vashillab yonayotgan ko'm-ko'k olovga tikilaverib ko'zni ishdan chiqargan ekanman. Quloq ham uncha-muncha gapni olmaydi. Hayronman, halitdan shundoq bo'lsam, qariganda nima bo'larkanman?
2. An'anaviy hikoyachilikning tugun, kulminatsiya va yechim kabi tarkiblaridan iborat bo'Igan eng qisqa hikoyalar tanlovida O.Genri g'olib bo'Igan: „Chekib olgan haydovchi qancha yonilg'i qolganini ko'rish uchun benzobak tomon egildi. Marhumning yoshi yigirma uchda edi...“
3. Biz jonsiz idish-tovoq, yangisini olsa bo'ladigan kiyimimizni, yangisini qursa bo'ladigan eshidigimizni ayaymiz. Lekin ro'paramizdagи tirik insonlar-chi? Axir, ular bir sinsa, qayta butun bo'lmaydi, bir so'lsa, qaytib ochilmaydi, bir ketsa, qaytib kelmaydi! Har bir odam – o'z xonadonining bog'boni. Ko'ngli abgor bog'bonning bog'i qanday gurkirasin? Har bir bog'ga ziyon yetaversa, jamiyatimizning salomatligini bir o'ylang... (T.Sodiqova)

4. Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov, yon qo'shnim Naim Abdullayevich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman. (*N Mahmudov*)


5. Lahza o'tmay, uni yana esnoq tutib, ko'z oldida g'alati halqachalar paydo bo'la boshladi. „Bir, ikki, uch...“ deya halqachalarni sanashga kirishganda ular shu qadar ko'payib ketishdiki, o'ntaga yetganda adashib qoldi. Bolalar, sinf, doska va partalar ayqash-uyqash bo'lib, xira pardaga chulg'andi. Muallima opaning ingichka ovozi uzoqdan kelayotgan mayin bir kuyday vujudini allalay boshladi. Bog'chada maza edi. Ovqat yeishardi, o'ynashardi, uxlashardi – shu. Bu yerda esa nuql qo'ng'irot chalishadi – o'qishadi, nuql qo'ng'irot chalishadi – o'qishadi... (*Sh.Isaxonova*)



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi "Klaster" chizmasidan foydalanib, nutq uslublari haqidagi tasavvuringizni mustahkamlang hamda mavzuga oid ma'ruza ma'lumotlari asosida quyidagi kabi jadvalni to'ldiring.

Klaster



9-MAVZU. ADABIY NUTQ ME'YORLARI.

Reja:

- 1.Me'yor tushunchasi.
- 2.O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari.
- 3.Nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: me'yor, me'yoriy ko'rinishlar, imlo, urg'u, talaffuz, tinish belgilari, leksik, grammatik, uslubiy, so'z turkumlarida

me'yor, so'zlarning bog'lanish qonuniyatları, so'z tartibi, nutqiy kamchiliklar, varvarizmlar, dialektizmlar, vulgarizmlar, jargonizmlar, orfografik va punktuatsion me'yollar buzilishi.

Me'yor – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Tilshunoslikda til birliklarini qo'llashda to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatuvchi o'chov adabiy til me'yordir. Me'yor – til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini qo'llashdir.

Adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi. Me'yorning ikki xil turi mavjud: 1) umumiyl me'yor; 2) xususiy me'yor.

Umumiyl me'yor – ma'lum tilning, masalan, o'zbek tilining barcha ko'rinishlarida qo'llanilayotgan me'yollar yig'indisidan iborat. Umumiyl me'yorni belgilash uchun qardosh tillarga qiyoslash zarurati paydo bo'lgan. Xususiy me'yor – umumiyl me'yorning nutq tiplari shakllaridagi, tilning shakllaridagi konkret ko'rinishlaridir.

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylilik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yollar yig'indisini umumiyl me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yolar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yollar yig'indisini umumiyl me'yor deb tushunamiz. Ikkinci tomondan esa qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz. Umumiyl norma tushunchasi o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi.

«O'zbek tili leksikologiyasi» kitobida bu kabi keng iste'moldagi so'zlarning barcha so'z turkumlarida uchrashi qayd qilib o'tilgan. Masalan otlarda – *daryo*, *suv*, *osmon*, *yer*, *tosh*, *tog'*, *bog'*, *daraxt*, *uy*, *devor*, *ko'cha*, *vodiy*, *sahro*, *qum kabi*; sifatlarda – *oq*, *qizil*, *sariq*, *qora*, *katta*, *kichik*, *keng*, *tor*, *uzun*, *qisqa*, *chiroyli*, *aqli*, *dono*, *barno kabi*; sonlarda – *bir*, *ikki*, *uch*, *to'rt*, *besh*, *olti*, *yetti*, *sakkiz*, *to'qqiz*, *o'n*, *yigirma*, *o'ttiz*, *qirq*, *oltmish*, *yetmish*, *sakson*, *to'qson*, *yuzming*, *million kabi*; olmoshlarda – *u*, *bu*, *shu*, *ana*, *manा*, *siz*, *biz kabi*; fe'llarda – *bor*, *kel*, *ket*, *yur*, *tur*, *o'tir*, *uxla*, *yot*, *ayt*, *qo'y*, *o't kabi*; ravishlarda – *tez*, *sekin*, *oz*, *kam*, *ko'p kabi*; bog'lovchilarda – *va*, *ham*, *ammo*, *lekin*, *birog*, *goh*, *yoki*, *yoinki kabi*; yuklamalarda – *-u*, *-ku*, *-da*, *-yu kabi*; undovlarda – *oh*, *voh*, *voy*, *dod*,

uh, ura kabi. Keltirilgan so'zlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lajja va so'zlashuv nutqida ham qo'llanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiylar me'yordi qurshovida qarashga asos bo'ladi.

Xususiy me'yor ma'lum til umumiylarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek adabiy tili, lajja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiy me'yor sanaladi. Xususiy me'yordi yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yorini ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiy, ilmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yordi ham xususiy me'yordi deb tushunishimizga to'g'ri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa ko'rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oly darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqr kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaatiga va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o'ziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihatni ko'p bo'lib, ular orasida me'yoriylik markazi o'rinda turadi. O'zbek adabiy tilining o'zbek xalqi uchun umummajburiyligi, ko'pvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiyatlarning birontasi me'yoriyiksiz amalga oshmaydi.

Adabiy tilning me'yoriyligi umumxalq tilining boshqa xususiy me'yordi bilan farq qiladi. Uni tafsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kodifikasiyalanganlik – ongli aralashuv yo'li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anganganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar.

Adabiy til me'yordi quydagi ko'rinishlari bor: fonetik me'yor, aksentologik me'yor, grafik (yozuv) me'yor, orfografik me'yor, orfoepik me'yor, leksik me'yor, so'z yasalish me'yori, grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor, punktuatsion me'yor, uslubiy me'yor.

Faqat og'zaki nutqqa xos me'yordi	• Fonetik, aksentologik, orfoepik me'yor
Faqat yozma nutqqa xos me'yordi	• Grafik va orfografik me'yor, punktuatsion me'yor
Ham og'zaki, ham yozma nutqqa xos me'yordi	• Leksik, so'z yasalish, morfologik, sintaktik, uslubiy

1. Fonetik me'yor. Bunda hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlarning qo'llanilishi me'yorlariga e'tibor qaratiladi.

2. Aksentologik (urg'uning to'g'riliqi) me'yorlar. Bunda so'z va gaplarda urg'uni to'g'ri qo'llash me'yori tushuniladi: *traktor, fizika, matematika, direktor, printer, komyuter* kabi.

Urg'uni to'g'ri ishlatmaslik so'z ma'nosiga ta'sir qiladi: *olma – meva, olma – buyruq fe'li; suzma – buyruq fe'li, suzmá – yegulik.*

3. Grafik (yozuv) me'yor. Hozirgi yozuvimiz lotin alifbosiga asoslangan bo'lib, 26 ta harf, 3 ta harf birikmasi va 1 ta tutuq belgisidan iborat. Ularni to'g'ri yozish va qo'llash juda muhim. Masalan, *s* yoki *k* harflari o'rniда *c* ni ishlatish xato sanaladi.

4. Imloviy (orfografik) me'yor. Bu me'yor so'zlarning to'g'ri, xatosiz yozilishiga asoslanadi. Imlo me'yorlari, ya'ni to'g'ri yozish me'yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon sanaladi. Bu me'yorlarning amal qilishi maxsus imlo qoidalari bilan tasdiqlanadi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosidagi yozuv me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ga tayanadi.

5. Talaffuz me'yori (orfoepik) – til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi. Ruscha so'zlarni yozma shakliga taqlid qilib aytish, shevaga xos talaffuz talaffuz me'yorlarini egallasha orfoepik lug'atlarning ahamiyati katta. Og'zaki nutq jarayonida til birliklarini adabiy til me'yorlariga muvofiq aytishi talaffuz me'yorlariga asoslanadi. Nutq tovushlarining so'z tarkibida alifboda belgilanganidek talaffuz qilinishi me'yoriy sanalishi bilan quyidagi holatlar ham talaffuz me'yoriga muvofiqdir:

- so'z oxirida *b* tovushining jarangsizlanib, *p* tarzida aytilishi: *hisob – hisop, kelib – kelip;*

- so'z oxirida *d* tovushining *t* tarzida talaffuz qilinishi, *d* yoki *t* tovushlarida tushib qolishi: *band – bant, go'sht – go'sh kabi;*

- ayrim so'zlarda *l* tovushining tushib qolishi: *bo'lgan – bo'gan, kelsa – kesa kabi;*

- *tank, disk* kabi o'zlashma so'zlarga *a* tovushi qo'shib aytilishi, *ba'zi* o'zlashmalar talaffuzida *v* tovushining *f* tarzida o'zgartirilishi me'yordan chekinish hisoblanmaydi (masalan, *avtomobil, avtobus*).

6. Leksik-semantik (so'z qo'llash) me'yor. So'z variantlaridan hamma uchun tushunarli *bo'lgan* ko'rinishini tanlab olish hozirgi o'zbek tilining lug'aviy me'yori hisoblanadi. Imlo, talaffuz, tarjima lug'atlarda lug'aviy me'yor o'z aksini topadi. So'zning ma'nosini bilmay ishlatish, shevaga xos so'zlarni qo'llash, paronimlarning ma'nosini tushunmasdan ishlatish rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri kalka – tarjima qilish me'yori hisoblanmaydi.

Adabiy tilda mavjud bo'lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli *bo'lgan so'zni* qo'llash nutqning muhim me'yorlaridan sanaladi. So'zni to'g'ri qo'llashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- so'zning nutqda ortiqcha takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun uning ma'nodoshlaridan o'rinali foydalanish;

- shakldosh va paronim so‘zlarni ma’nolarini farqlagan holda ishlatish;
- so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan sheva so‘zlari yoki ijtimoiy guruhlarga oid argolarni qo‘llamaslik;
- o‘zlashma so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan cheklanish, ularning milliy tildagi muqobillaridan foydalanish;
- so‘z qo‘llashda ixchamlik, tejamkorlikka erishish.

7. So‘z yasalish me’ori. So‘z yasovchi qo‘shimchalarining fonetik tuzilishi jihatidan bir qolipda ishlatalishi so‘z yasalish me’ori hisoblanadi. Ba’zan nuqda sifat yasovchi -li va ot yasovchi -lik qo‘shimchalarini farqlanmay ishlataladi. Masalan, *paxtali chopon* o‘rnida *paxtalik chopon*.

8. Grammatik me’yor. Turlovchi va tuslovchi shakllarning eng maqbul variantlari hozirgi tilimizda tanlab olingan va ular nutqda barqaror shaklda ishlataladi. Ammo kelishik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri qo‘llash uchraydi. Ba’zan -ning o‘rnida -ni, -lar o‘rnida -la ishlataladi. E’tibor bering: *Direktorni xonasida ko‘rdim* (direktorni o‘z xonasida ko‘rmoq). – *Direktorning xonasida ko‘rdim* (boshqa birovni direktor xonasida ko‘rmoq).

So‘z shakllari, qo‘shimchalar (morphologik me’yor); so‘z birikmalarining yozilishi, gapda so‘zlarning tartiblanishi, moslashuvi (sintaktik me’yor) grammatik me’yorga asoslanadi. Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi adabiy tilning asosiy talabidir. Gapda so‘z va qo‘shimchalarining to‘g‘ri bog‘lanishi, ega-kesim mosligi, gap bo‘laklarining tartibi grammatika qoidalari asosida shakllanadi. Shuning uchun gap tuzishda, jumla qurishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- kelishik qo‘shimchalarining ma‘no va vazifalarini farqlash hamda o‘rinli qo‘llash. Masalan, -ning qo‘shimchasi ot bilan otni, -ni esa ot bilan fe’lni o‘zarbo‘g‘laydi: *ukamning kitobi, kitobni olmoq* kabi;
- ot va sifat yasovchi qo‘shimchalarini farqlash: *kiyimlik* (ot) – *kiyimli* (sifat) kabi;
- fe’l nisbatlarini hosil qiluvchi qo‘shimchalarini to‘g‘ri qo‘llash: *tadbir o‘tkazmoq – ko‘chat o‘tqazmoq, kuldir – keltir* kabi;
- gapda so‘z tartibiga amal qilish: *Uyga shoshib kirdi. (Kirdi shoshib uyga emas);*
- ega va kesimning shaxs-sonda mosligini ta’minlash: *Ular o‘qiydilar.*

Izoh: She’riy janrlar tilida nutq maqsadiga ko‘ra misralarda so‘zlar tartibining o‘zgarishiga yo‘l qo‘yiladi.

9. Punktuatsion me’yor. Bu me’yor 10 ta tinish belgisi asosida ish yuritadi (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, undov belgisi, so‘roq belgisi, ko‘p nuqta, qo‘shirnoq, qavs).

10. Uslubiy me’yor. Nutq sharoitiga qarab til birliklarining eng ma’qulini qo‘llash adabiy tilning uslubiy me’ori hisoblanadi. Sinonimlardan noto‘g‘ri foydalanish, so‘z takrori, ayrim eskirgan so‘zlarni qo‘llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi. Uslubiy me’yorlarga amal qilishda quyidagilarni unutmaslik lozim:

- so‘zning asl va ko‘chma ma’nolarini farqlash;
- so‘zning ma’nodoshlik, shakldoshlik, uyadoshlik, darajalanish imkoniyatlarini bilish va bulardan o‘rinli foydalanish;

- so‘z va iboralarni aniq, tushunarli tarzda qo‘llash;
- nutq uslublarining o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish;
- til vositalarining badiiy, ta’sirchan imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish;
- so‘zlarning uslubiy farqlanishini hisobga olish.

Til va nutq tizimida me‘yor o‘ziga xos o‘rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshtagan lahzalardanoq uni me‘yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me‘yoriy muammolar kun tartibiga qo‘yilgan. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me‘yoriy holatlarni o‘rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma‘naviy-ma‘rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlari singari qator omillar e’tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me‘yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo‘limage.

Demak, me‘yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an‘anaviylikka ega bo‘ladi. Tildan foydalanishdagi an‘anaviy me‘yorlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so‘zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug‘atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada tildan foydalanish me‘yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib qolmoqda. Bular orasida xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol g‘oyasi yurtdoshlarimizni ma‘naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlарimizni esa erkin, yangicha fikrlashga o‘rgatishtni maqsad qilib qo‘yar ekan, bunga til madaniyatsiz erishib bo‘lmaydi.

Garchi umumxalq tilining hamma ko‘rinishlarida, barcha til jamoalarida o‘ziga xos tarzda amal qiladigan me‘yorlar mavjud bo‘lsa ham kodifikasiyalashtirilgan, ya‘ni ma‘lum qoidalarga kiritilgan me‘yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. «Faqat adabiy tildagina, - deydi V.A.Iskovich, - qanday gapirish va qanday gapirmaslik; me‘yoriy grammaticalarda, lug‘atlarda, ma‘lumotnomalarda qayd etilgan; maktablarda o‘rganiladigan qoda va ko‘rsatmalar amal qiladi». Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me‘yorning qat’iy amal qilishi hisoblanadi.

Darhaqiqat, davlat olib borgan ijtimoiy siyosatning til rivoji va me‘yorlashuviga ta’siri sezilarli bo‘lishi mumkin. Buni sobiq Ittifoq hududida yashovchi xalqlar tillariga bo‘lgan munosabatdan ham anglasak bo‘ladi. «Rus tili – ikkinchi ona tilimiz» degan sun‘iy shior bir asrga yaqin vaqt mobaynida astasekinlik bilan tilimizga rus yoki u orqali boshqa tillardan so‘z qabul qilish va ularning me‘yorlashib borishini ta’milnadi. Biz hech ikkilanmasdan, xuddi shunday bo‘lishi kerakdek, *absolyut, avangard, avantyura, avariya, avtobiografiya, avtonom, avtor, agitator, aggressiv, aggressor, aktiv, aktual, alfavit, alyans, amnistiya, anonim, arbitr, aristokrat, aristokratiya, arsenal, arxaik, ataka, attestat, auditoriya, aforizm* singari so‘zlarni qo‘llayverdik va shunday qo‘llashga ko‘nikdik. ularning tilimizda muqobilari yo‘qmikan deb o‘ylab ko‘rmadik.

To‘g‘risi, bunga imkon ham, umumiyoqimdan chetga chiqishning iloji ham yo‘q edi. Loqaydligimiz esa bunga ko‘maklashdi.

Rus tilining tazyiqi kuchayib borgan sari, asta-sekinlik bilan, o‘zimiz sezmagan holda o‘z so‘zlarimiz va ifoda usullarimizdan voz kecha boshladik. *O‘nta sigir*, *o‘nta qo‘y* deyish mumkin bo‘lgani holda *o‘n bosh qo‘y*, *o‘n bosh sigir*, *o‘n bosh qoramol* deb ishlata boshladik. Bu ruscha matnlardagi «desyat golov oves», «desyat golov korova» degan birikmalarning aynan tarjimasi edi. Shu darajaga borib yetdikki, tilimizdag‘i oddiy *sovliq*, *qora mol*, *uloq so‘zlarini unuta* boshladik. Ularni rus tilidan kalkalab, *ona qo‘y* (*ovsematok*), *ona tovuq*, *ona cho‘chqa*, *ona quyon*, *ona biya*, *yirik shoxli qoramol* (*krupnyy rogatyy skot*), *mayda shoxli mol* (*melkiy rogatyy skot*) tarzida ishlatishdan tortinmadik. Achinarlisi shu bo‘ldiki, oddiy o‘zbek chorvadorlarimizning, cho‘pon-u molboqarlarimizning o‘zlari ham gazeta yoki radiodan muxbir kelib suhbatlashganda shunday deb gapiradigan bo‘ldilar.

O‘zbek tiliga chetdan kirib kelgan birlıklarning me’yorlashish sabablarini shu tarzda anglaydigan bo‘lsak, uning lug‘at tarkibidagi grekcha-yunoncha, mo‘g‘ulcha, ayniqsa, arabcha so‘zlarining paydo bo‘lish omillarini ham to‘g‘ri tushunamiz. Xayriyatki, mustaqilligimizni qo‘lga kiritib, biz bu kamchiliklardan qutuldik. Hech bo‘lmaganda, asta-sekinlik bilan qutulib boryapmiz. Buni yuqorida tanqid qilganimiz chorvachilik sohasida atamalar ishlatishdagi o‘zgarishlarda ham kuzatamiz. Masalan, Samarqand qishloq xo‘jalik institutining 70 yilligiga bag‘ishlab nasr etilgan «Qishloq xo‘jalik korxonalari rahbarlari va fermerlar uchun amaliy qo‘llanma va tavsiyalar» (Samarqand, 1999) kitobining «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi» bo‘limida yuqorida keltirilgan atamalar o‘rnida *qoramol*, *sigir*, *buzoq*, *tana*, *g‘unajin*, *buqa*, *qo‘y*, *qo‘chqor*, *sovliq*, *qo‘zi*, *echki*, *uloq so‘zlarini qo‘llanganini* kuzatamiz.

Xulosa shuki, adabiy nutq me’yorlariga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo‘lib qolmoqda. Tilshunoslarimiz zahmatlari tufayli o‘zbek tilidagi birlıklarining deyarlik barchasidagi me’yoriy ko‘rinishlar ommaga turli qo‘llanmalar, lug‘atlar shaklida tavsiya etildi. Yangi imlo qoidalariga o‘tishimiz munosabati bilan bu yumushlar davom ettirilmoqda. Nafaqat filolog olimlar, balki maorifimiz jonkuyarlar, o‘z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaraydigan barcha ziyyolilarimiz bu me’yorlarning buzilishiga e’tiroz, tuzatish va tavsiyalar tarzida chiqishlar qilib turishibdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, talaffuz me’yorlarini buzish, til madaniyatiga e’tiborsizlik hamon davom etmoqda. Yillar davomida majlislarni rus tilida olib borgan yoki ma’ruzalarini rus tilida eshitgan ko‘pchilik kishilar o‘z nutqlarida ruscha so‘z va iboralarni qo‘llash, ayrim holatlarda rus tili gap qurilishi tartibida o‘zbekcha jumlalar tuzish iskanjasidan chiqib keta olmayaptilar. Bu kamchiliklar hatto radio, ayniqsa, televideniye eshittirishlarida ham sezildi.

Xalqimiz shevachilikdan batamom qutula olgan emas. Garchi ko‘pchiligidimiz adabiy til me’yori talablari asosida savodli yozsak-da, talaffuzda e’tiborsizlik, loqaydlik, mas’uliyatsizlik davom etmoqda. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birlıklar alohida o‘rin tutadi va ularning o‘ziga xos me’yoriy xususiyatlari mavjud.



Mavzuga oid savollar

- 1.Me'yor tushunchasiga izoh bering.
- 2.Adabiy til atamasini izohlab bering.
- 3.Adabiy til me'yorlarini sanang.
- 4.Shevachilikning ijobjiy va salbiy tomonlarinini sanay olasizmi?
- 5.Me'yorning buzilishiga sabab bo'lувчи holatlar haqida fikringizni bayon qiling.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Matnni o'qib, uni gaplarga ajrating, so'ng bosh harflarni tiklab, zarur tinish belgilarni qo'yib ko'chirib yozing.

Nima bo'ldi qizim nega yig'layapsan Gulchehra boshini ko'tardi ro'parasida nuroniy bir mo'ysafid unga dardli tikilib turardi birov xafa qildimi yo'q dedi Gulchehra va uyalganidan qizarib ketdi dadil bo'ling dedi mo'ysafid yig'i hech mahal odamga yordam bergan emas qancha sovuqqonlik qilsangiz shuncha yutasiz asab yig'i ojizlarning udumi tramvay keldi Gulchehra mo'ysafidga nima deb javob qilishini bilmay o'zini tramvaya otdi.

№2. Quyidagi gaplardan grammatic me'yor buzilgan holatlarni aniqlang.

1.Hovli etagidagi uyasida eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi. 2. Chol asta cho'kkalaydi-da, sharti ketib, parti qolgan itni boshini siladi. 3. Shu payt ko'chada darvoza taraqlab ochildi, tarvuzi qo'lting'idan tushib Alijon kirib keldi. 4. Kim u? Joyimga qoqqan qoziqdek qotib qoldim. 5. Mehmon joyida o'tirdi-yu, ammo ko'ngli joyida tushmadi. 6. Og'zida tolqon solganday jim o'tirdi. 7.Mana shu tirranchalarning deb boyta rosa po'stagimni qoqilgandi. 8. Dostonni o'qir ekanmiz, Farhodning aqlli, idrokli, mehnatsevarligini ko'z o'ngida yaqqol gavdalaniadi. 9.O'quvchilik yillarimda mehribon o'qituvchilarning bizga qilgan yoqimli muomalasini, bilim berish san'ati meni o'ziga maftun qilgan edi. 10.Jamila va G'ofirlarga yaxshi his-tuyg'ular uyg'onadi. Solihboyday salbiy obrazlarga nafratlanamiz.

№3. Gaplarda noo'rin ishlataligan so'zlarni to'g'rilari bilan almashtiring.

1. Yigitcha raso charchagan ekanmi, ovqat yeb darrov uxbab qoldi. 2. Ko'lning zilol suvida tongi quyosh nurlari toblanmoqda edi. 3. Nachalnikka uchrashsam, sudga davo qilishingiz mumkin, dedi. 4. Ishimiz shunday suratda davom etsa, qurilishni bayramgacha tugatamiz. 5. Qara, o'g'lim, eshikka bir inson keldi. 6. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamat bo'lmas ado oning haqqin yuz ganch ila. 7. Tupidan ayrilganni bo'ri yer. 8. Men xam bir o'g'lingman, ona sayyora, Bag'ring men uchun xam xoki pok bo'lsin. 9. Ortiqcha har bir so'z noo'rin ichilgan dari kabi zararlidir. 10. Sening xar bir xizmatning boshqalarga ibrat bo'lishini unutma.

№4. Gaplarni o'qing, ulardagi imloviy xatoliklarni toping va to'g'rilang.

1. Farg'ona vodiysi osmono'par tog'lar bilan o'ralgan. 2. Quyosh tog'toshlarni qizdirgan payt, ertapishar olmalar qipqizil. 3.G'o'zapoyasi yig'ib olingen daladan yozu qish hosil olinadi. 4.Yosh qari, erkak ayol aralash quralash bo'lib ko'cha boshida to'planishdi. 5. «Qo'sharioq» jamoa xo'jaligidagi g'o'za obihayotga qondirilmoxda. 6. Ona bola uy joyni yig'ishtirib, sadarayhon atrofida dam olishdi. 7. Bu bodom qovoq qiz xushfe'l tabiatini bilan kattayu kichikning olqishiga sazovor bo'ldi. 8. Og'zaki nutuq qisqa va ifodali bo'lishi kerak. 9. So'z bilan o'ynovchilardan yuragim bezlaydi. 10. Sog'lom va zexnli bo'lib ulg'aygan bola xayotda qiyalmiydi.

№5.Gaplarni o'qing. Tushirib qoldirilgan o'rirlarda zarur qo'shimchalarni qo'llab, gaplarni me'yoriy jihaydan to'g'ri shakllantiring.

1. Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila..., u... tinchligi... asraylik. 2. Hayotda o'z o'rni... topishida odam... bolalikdagi faoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta o'rinn tutadi. 3. Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi gar, qudrat... ko'rgizsa tabiat hassos. Va inson suvrat... u muqarrar, fe'l-u atrofiga aylab qo'ysa bas. 4. Inson dunyo... qanchalik bilsa, o'zligi... ham shunchalik anglaydi. 5. Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson... katta boyligi hisoblanadi. 6. Odam...hayoti hamisha bir daryodek bo'lishi kerak: u...sohilida hamisha yangidan yangi suv oqib turgani yaxshi. 7. – Rahmat! – dedi Matluba chelakdagagi chigit... mashina quticasiga ag'darar ekan. 8. Rahmatli bobom o'sha yili ham, keyingi paytlarda ham xurjun... ikki ko'ziga ikki ko'za... solib, tepalikka suv tashigan-tashigan edi. 9. Kampir...hech narsasi yo'q ekan-u, hovlisida bir tupgina teragi bo'lgan ekan. 10. Bir jism... chiqib tarqalgan tovush... boshqa jism... urilib, tebranish hosil qilishi rezonans hodisasi deb ataladi.

№6.Gaplarni o'qing. So'z yasalishi bilan bog'liq me'yoriy buzilishlar kuzatilgan o'rirlarni aniqlab, ularni to'g'rilang.

1. Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni o'tar. 2. Choyxona mudiri Yusufjon Nozimov turmushning issiq-chuchugini tatigan kishiga o'xshaydi. 3. Otin bibi qari, jiddiy, bosavlat xotin. 4. O'yimali gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqaviy eski eshikka kiramiz. 5. Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalchan, rangpar kishi. 6. Cho'ponlar sezqur itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor. 7. Do'mbirakash qadimgi qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda. 8. Yoqimtoy do'st suhbatli olis yo'lni yaqin qiladi. 9. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohli g'am va qayg'u ostidadir. 10. Rostgo'ylik adabning ustuni, insonparvarlikning asosidir.

№7.So'z qo'llash bilan bog'liq xatoliklarni aniqlang. Adabiy til me'yoriga mos keluvchi birliklar bilan almashtiring.

1. Keksalarning nuroni aftidan xonadonlar yorishganday bo'ladi. 2. Gap bilan shoshma, mehnat bilan shosh. 3. Bizda doimo kattalar izzatda, kichiklar hurmatda. 4. Fazoda qushlar qanot qoqib uchadi. 5. Buldozer ko'chamizda yiqlay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'l ochar edi. 6. Chanoqdagi lo'ppi

ochilgan paxta quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi. 7. Devor tepasida yuksalgan daraxtlarning ustida ulkan oshqovoqlar quyoshning oxirgi shu'lalari bilan oltinlanardi. 8. Turli hajmda kattalashtirib ko'rsatadigan ikki tomoni qabariq oynaga mikroskop deyiladi. 9. Tarixiy kitoblarda misr ehromlari to'rburchak deb atalgan. 10. Yerning Quyosh atrofida to'liq bir marta aylanishiga ketgan vaqt oydeb ataladi.

№8. O'qing. Qanday gap bo'laklari uyushganini aytинг. Moslikning grammatik shaklini aniqlang. Uyushgan bo'laklar qatorida mantiqiy yo uslubiy xatolar bo'lsa, tuzating. O'qing. Uyushiq bo'laklar qatori xato tizilgan o'rnlarni aniqlab tuzating.

1. Sohilda o'tkir hidli qoramtil yalpizlar, sershox jambillar o'sib yatadi. 2. Yodgor mana shu ariqchada qachon muz erib bitganini, qaysi qoqigul eng avval ochilganini, qaysi daraxtning qaybir shoxida qaysi yaproq birinchi bo'lib yozilganini hozir ko'rsatib bera olardi. 3. Bozor iqtisodiyotiga bag'ishlangan konferensiyaga shaharning faylasuflari, siyosatdonlar, akademiklar, tarixchi va adabiyotchi olimlar kelishgan edi. 4. Undan achigan ayran bilan kuygan qo'g'irmoch hidiga o'xshagan sal nordon va shirin hid keladi. 5. Butun kuchimni ikki ko'zimga yig'dim-da, uning bevafo, biroq g'amgin, sho'x, lekin ma'yus ko'zlariga tikildim. 6. Iste'dodli adib ko'p asarlar va dramalar yozdi. 7. Gullagan vodi, kishnagan toying go'zal, 8. Ko'chalar, yo'kkalar, sohil bo'yiali, dala yo'llari ajoyib bog'larga-gulzorlarga aylantirildi. 9. O'yingohda to'planganlar orasida ayollar va chollar, o'quvchilar va o'qituvchilar bor edi. 10. Deputatlar yig'inlarida ishchilar va dehqonlar, hosilot va muhandislar, shifokorlar va o'qituvchilar, olimlar va artistlar, rassom hamda yozuvchilar, korxona rahbarlari, harbiy qism jangchilari, turli millat vakillari qatnashmoqdalar.

№9. Gaplarni o'qing. Orfoepik va leksik xatolarni aniqlab, to'g'rilang.

1. Baxtga qarshi, ko'pchilik aql to'lganda, ozchilik esa, aql ozayganda olamdan o'tadi. 2. Bu daraxt Maktuba juda yaxshi ko'radigan, to dovuchchaligidan boshlab yeb yuradigaa qantak o'rik edi. 3. Yo'q, Sobir Sobirovich hozir zaynitlar, boshqa vaqtida zvonit qiling. 4. Biz 10-15 keksa sho'itta to'planishib, bo'lajak choyxona rejasini tuzvtogan edik, birdan rais kelib qoldi. 5. Vot tak, Xurshidjon yosh bo'lishiga qaramay, respublikada xizmat ko'rsatgan artist degan sharaflı unvon egasi Salimovning nuri diydalari. 6. Uchinchi to'pning avtori tepgan so'nggi to'pi o'yindan chiqib, tashqari holatda edi. 7. U o'zini oynaga solib, allaqanday she'rni kuya solib xirgoyi qilar edi. 8. Daryodan muzdek yel esadi. 9. 50 sentnerdan xirmon yaratish uchun hozirdan zamin yaratmoqdalar. 10. Shuni ham aytib o'tish kerakki, dori-darmondan to'g'ri foydalanish kerak.

№10. Ushbu gapdagagi bezab, g'uncha, tong, aytdi, hayot, otini so'zlar o'rniga sinonim qo'ying. Mazmun yo uslubiy bo'yoqda yuz bergan o'zgarishni izohlang.

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini. (H.O.)



Mavzuga oid testlar

- 1.Qaysi qatordagi gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq me’yor buzilgan?
A) Pirnafas aka qumda bod kasalini tamoman yo‘qtayozgan edi.
B) Xotin-qizlar paxta oralaridagi yot o‘tlarni terishdi.
C) Yaxshiga yondash, yomondan qoch.
D) U ko‘cha tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g‘ijjak, nay, doira ko‘tarib kelayotgan kishilarga ko‘zi tushdi.

2.Qaysi qatorda *yondosh* o‘rnida uning paronimi qo‘llangan?

- A) Yo‘lga yondash anhor oqardi.
B) Yaxshiga yondosh yomondan qoch.
C) Masalaga to‘g‘ri yondashmoq kerak.
D) Durdona dugonalariga yondashib, soy bo‘yiga yo‘l oldi.

3.Qaysi qatorda kelishiklar bilan bog‘liq grammatik me’yoq buzilgan?

- A) Otdan tushib jilovini Ortiqqa berdi-yu, o‘zi direktorni molxonalar tomon boshlab ketdi.
B) Ongni eskirgan g‘arazli maqsadlardan tozalash zarur.

- C) Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur.
D) Qaynanasini kasalligi sababli kuyovni akasi mehmonlarni kuttdi.

- 4.*Mehr-muhabbatga to‘ymaydi inson*. Ushbu gapda jo‘nalish kelishigi o‘rnida qaysi kelishikni sinonim sifatida qo‘llash mumkin?

- A) qaratqich kelishigini B) tushum kelishigini
C) o‘rin-payt kelishigini D) chiqish kelishigini

5.O‘z leksik ma’nosiga nomuvofiq so‘z qatnashgan gapni belgilang.

- A) Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz mujda yuborish shunchalar mushkul edimi?

- B) Biz avlodlar merosini astoyidil o‘rganishimiz lozim.
C) Deraza oynasiga kumushrang yog‘du yopirildi.
D) Ertaklar dunyosi sehrlarga to‘la, ajoyib va g‘aroyibdir.

6.Qo‘srimchalar noo‘rin qo‘llangan gapni toping.

- A) Ulkan majburiyatni sharaf bilan bajarildi.
B) Baxt har kimning o‘z didi va mezonidan
C) Tuyaning ustidan turib, pichan o‘rib bo‘lmaydi

D) Barcha gaplarda qo‘srimchalar no o‘rin qo‘llangan.

7.Qaysi qatorda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xato mavjud?

- A) Do‘gtim, nimaning ko‘yida yuribsiz?
B) Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz kuya soladi.

- C) Men ham uning ko‘yida sargardonman.
D) Bastakor she’rga kuy bastalamoqda.

8.Qaysi gapda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq xatolik mavjud?

- A) Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi.
B) Erta bahorda o‘n tup mevali daraxt ko‘chati o‘tqazdik.
C) Quyosh hamal yulduzlar burjiga o‘tishi bilan kunlar isiy boshladи.
D) Yo‘lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo‘lsa ham, faqir hayotining uch yilini Mirzakarimboy eshigida o‘tqazdi.

9.Yozma nutqda quyidagi birliklarning (juftliklarning) qaysi birini o‘zaro almashtirib qo‘llasak, uslubiy xatoga yo‘l qo‘yiladi?

- A) sinonimlarni B) paronimlami C) omonimlarni D) A va B

10.Qaysi qatorda nutq me’yori buzilgan?

- A) Chol bosh irg‘adi.
B) Ali Qushchi xanjarini ushlaganicha o‘rnidan sakrab turdi.
C) Latifjoni adasi keldi.
D) Qalandarning so‘zida jon bor.



Uy ishi

Nuqtalar o‘rniga mazmun va uslub talab etgan bog‘lovchilar (teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar, ko‘makchilar, yuklamalar, fe’l shakllari) ishlatib, tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

1.Afsus, shoir o‘tdi olamdan ... yoqqan chirog‘i qoldi. 2.Men sham ... u bir quyoshdir. 3.Vatanimiz bir osmon ... biz uni bezagan yulduzlarimiz. 4.Agar Farg‘ona obihayot daryosi ... Shohimardon unga jon ato etguvchi obisharbat bulog‘i. 5.Vodiylarga yangi davr nafasi kelib yetdi ... insonlar chehrasi misli quyoshdek nurga g‘arq bo‘ldi. 6.Hayot talvasasi tinmagay ... mangu boqiy qolur inson va xayol. 7.Har kun ortar ko‘zlarimda nur ... yo‘q aslo g‘amim. 8.Bahor bog‘lariga gul yarashgani ... qo‘sishq yarashadi she‘r to‘yiga. 9.Ko‘z oldimda shu qadar pok edi olam ... nurdan yaralgandi inson degan zot. 10.Chodirlarni yel ko‘targan ... lopillab turardi bu ona diyor.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi “T-sxema” jadvalini shakllantiring. Kuzatish, mutolaa, suhbat jarayonida o‘zingiz duch kelgan me’yoriy buzilishlarni birinchi ustunga qayd eting, ikkinchi ustunda esa ushbu birliklarning adabiy tildagi to‘g‘ri muqobilini keltiring. Natijalarингизning to‘g‘riligini ustozlaringizga tekshirtirib oling.

T- sxema	
Xatoliklar	Adabiy me’yorga ko‘ra
Mavzuni tushuntirildi	Mavzu tushuntirildi
Ilmni afzal tomonlari	Ilmning afzal tomonlari
halq	xalq
***	***
***	***



10- MAVZU. O'ZBEK ADABIY TILIDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI.

Reja:

- 1.Nuqta va uning qo'llanilishi.
- 2.Vergul va uning qo'llanilishi.
- 3.So'roq va uning qo'llanilishi.
- 4.Undov belgisi va uning qo'llanilishi.
- 5.Qavs va uning qo'llanilish o'rirlari.
- 6.Ko'p nuqta va uning qo'llanilish o'rirlari.
- 7.Tire va uning qo'llanilish o'rirlari.
- 8.Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rirlari.
- 9.Ikki nuqta va uning qo'llanilish o'rirlari.
- 10.Nuqtali vergul va uning qo'llanilish o'rirlari.

Tayanch so'z va iboralar: tinish belgilari, ma'no, gap qurilishi, ohang, ishlatalish o'rni, sodda gap, qo'shma gap, uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, kiritma, undalma, izoh, qiyos, o'xshatish, zidlash.

Punktuatsiya so'zi “Punktum” “nuqta”, “joy” degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda esa tinish belgilarini o'rganuvchi bo'limdir. Tinish belgilarini o'z o'rnda to'g'ri qo'llamaslik gapning ma'nosiga ham, gap qurilishiga ham ta'sir etadi.

O'zbek tilida 10 ta tinish belgisi mayjud bo'lib, ularning har biri o'z ishlatalish o'rni ega. Quyida har bir tinish belgisining kelib chiqish tarixi va ishlatalish o'rni bilan tanishib chiqamiz.

1.Nuqta va uning qo'llanilishi. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatalishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatala boshlangan.

Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rirlarda ishlataladi:

1. His-hayajonsiz aytigan darak, buyruq gaplardan so'ng: *Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O'zingga ravo ko'rмаган narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog'лом bo'lsin.*

2. Atov gaplardan keyin: *Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

3. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng: *M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho'lpion kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S.Pushkin – rus poeziyasining quyoshi.*

4. Nashriyot ishlalarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng: *va sh.k. (va sh. kabilalar); s.t. (so'zlashuv tilida); G'. G'. (G'afur G'ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O'qituvchi» nashr.; 1995-y.*

5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlataladi. Bunday hollarda ikkinchi gap *ammo*, *lekin*, *biroq*, *chunki*, *shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin: Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band.* *Chunki dalalarda ish qizg'in*

6. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovechi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: *21.03.2010*.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatalishi mumkin. Masalan: *Tovushlar quyidagi turlarga bo'tinadi:*
1. *Unli tovushlar.* 2. *Undosh tovushlar.*

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi: *2 · 2 = 4* (ikki karra ikki to'rt).

2. Vergul va uning qo'llanilishi. Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatala boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o'rinnlarda foydalaniladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida: *Bolalarning xulql, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishl, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yushmanlariiga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim* (M. Inomova).

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga, purviyor tog'lar!*

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng: *Shubhasiz, Vatanimiz jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rinn olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi. Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muquddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o'ylab ko'rdingizmi?

5. Ajratilgan bo'laklar orasida: *Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, Jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga bargororlashib bormoqda.*

6. Bog'lochisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga: *Do'sting mingta bo'lsa ham oz, duishmaning blita bo'lsa ham ko'p. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'yra.*

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlataladi: *Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatharingiz sizni xudhbnitka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling*

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan ayttilmasa, ulardan so'ng vergul ishlataladi: *Ey, menga bir daqlqaga qarab qo'yin*

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi: *«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmoq't佐ム», – deb aytg'an edi Abu Rayhon Beruniy*

3.So‘roq va uning qo‘llanilishi. So‘roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* – so‘roq so‘ziga olib borib taqaydilar. So‘roq ma’nosida mazkur so‘zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o‘zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so‘ng muntazam ishlatila boshlangan.

So‘roq belgisi quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. So‘roq gaplarning oxirida: *Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag‘ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo‘ldim* (darak gap). *Vazifani bajarib bo‘ldim?* (ohang o‘zgaradi).

2. *Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi?* kabi so‘roq olmoshlaridan so‘ng: *Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi. «Toping!» ma’nosida: *Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi. 5 • 5 = ?* (matematikada).

4.Undov belgisi va uning qo‘llanilishi. Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Mutaxassislarining fikricha, u lotincha *lo* – undov so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, unga nuqta (.) ning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his–hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi: *Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.*

— *Ana tuproq, mana tuproq!* – deydi. — *Bo‘rsildoq tuproq, mag‘izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq!* (Tog‘ay Murod)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi: *Siz ham oyoqni ishlating!* – deb buyurdi. *Suv ostida o‘pqonlar ko‘p. Tortib ketmasin!* (P. Qodirov)

3. So‘z boshida kelib, kuchli his–hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng qo‘yiladi: *Ey arslonlar arsloni!* *Mening yozuqlarimdan o‘t, mening qo‘limni tut, belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber!* (A. Fitrat)

4. *Ha, yo‘q, xo‘p, uZR, mayli, xayr, salom* kabi so‘z–gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qo‘yiladi: *Balli-ball!* – dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. (A. Qodiriy) — *Yo‘q!* *Borolmayman,* – dedi qayrilib.

5. Matn ichida alohida ta‘kidlangan, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin: «*Boburnoma*da tarix, etnografiya, til, adabiyot geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytlishi lozim bo‘lgan fikr o‘ta kuchli his–hayajon bilan aytilsa, ketma–ket uchta belgi qo‘yiladi: *Charos kafti bilan yuzini to‘sancha o‘zini orqaga tashladi.*

— *A-a-a!!!* – dedi chingirib. (O‘. Hoshimov)

— *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

— *Xanjarimiz qonsirag‘on!* (A. Qodiriy)

7. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq, shuningdek, ritorik so‘roq gaplardan so‘ng: *Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu!* (O‘. Hoshimov)

5.Qavs va uning qo‘llanilish o‘rinlari. Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazeti» da 1873-yilda ishlatilgan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda: *O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib* (*Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o‘rinda turadi*), eksport bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi.

2. Remarkalarda: *Xon (yolg‘iz). Shu tiriklikdan-da bezirdilar meni* (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A.Fitrat)

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida: *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (Abdullo Avloniy) Jannat onalar oyog‘i ostidadur. (Hadisdan) «Qasosli dunyo». («Avlodlar dovonii» romanidan)*

4. Izoh ma‘nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida: *Ro‘za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al-Adha)ning birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyyati (demos – xalq, kratos – hokimiyyat) ma‘nosini bildiradi.*

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi: «*Qutadg‘u bilig*» («*Baxt keltiruvchi bilim*»). *Shuhrat (G‘ulom Aminjonovich Olimov)* atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniлади: $(5 + 8) - 7 = ?$

[] ko‘rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko‘p uchraydi. Masalan, egalik *qo‘sishimchasi qo‘shilganda shah [a] ri, o‘r [i] ni, sing [i] lisi* so‘zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko‘ra tushiriladi kabi.

6.Ko‘p nuqta va uning qo‘llanilish o‘rinlari. Ko‘p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e’tiboran «Turkiston viloyatining gazeti» da muntazam qo‘llangan.

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida: *To‘ra biroz o‘ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zinining yelkasidagi pogonini ko‘rsatdi.*

– *Mana shu imperiya...*

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho‘lpon)

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun: *Do‘xtir ayol og‘iz berkitib piq-piq yig‘ladi.*

– *Men... men O‘zbekistonda besholti yil ishlab edim. – deya yig‘ladi.* –

Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...

3. Matn (jumla) qisqartirilsa:

– Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?

– Xo'sh, xo'sh?

– Ilkimdin kelguncha... – deb boshlanar edi.

– Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur.

(X.To'xtaboev)

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa: *Muhammadyor yolg'iz:*

– Turkistonda birinchi *m...m...m...* artaba *tia... t... t... tr.* – *dedi-da, fikrg'a toldi.* (A.Cho'lpon)

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa:

– *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

– *Tushundingizmi, deyapman?* (X.Sultonov)

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rniда: *Nuqtalar o'rniغا kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing. Xayri...x, a...loq, ...abar.*

7.Tire va uning qo'llanilish o'rnlari. Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida:

– *Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?*

– *Bilmayman. Qayerdan kelganining menga farqi yo'q.*

– *Siz tabibmisiz o'zi?*

– *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo'lmasa yo'q.*

– *Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi?* – dedi Kesakpolvon g'ijinib.

– *Olloh bir meniki emas, barchamizniki, – dedi chol ovozini bir pardako'tarib.* – *Siz nomusulmon odamga o'xshab so'zlar ekansiz.* (T.Malik)

2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida: *Til – millatning qalbi. Yer – don, dehqon – xazinabon. Mehnating – boyliging.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: «*Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir*», – deb yozgan edi L.N.Tolstoy.

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida:

1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:

– «*Amir Temur» ordeni;*

– «*Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa: *Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

7. Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida: *O‘zbekiston Milliy sug‘urta kompaniyasi* – «O‘zbekinvest». Veksel – qimmatbaho qog‘oz, pul qarz o‘rganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.

8. Zid ma’noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida: *Vaqting ketdi – baxting ketdi.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi: *Biz – yoshlar – millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog‘larimiz. Samarganddagi Ulug‘bek rasadxonasi – bir paytlari bu yerdan turib ulug‘ bobomiz osmon ilmini o‘rgangan edi – katta ko‘lamda ta‘mirlash ishlari boshlab yuborildi.*

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar orasida: *Toshkent – Andijon avtomobil yo‘li ta‘mirdan chiqarilmogda.*

11. Nashr, kitobot ishlarida: *Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar.* – T.: «Adabiyot va san‘at nashriyoti», 1987.

Eslatma: Hisob-kitob bilan bog‘liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23. Bugun Toshkentda – 3°C sovuq bo‘ladi.

8.Qo‘shtirnoq va uning qo‘llanilish o‘rinlari. Qo‘shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O‘zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo‘shtirnoq quyidagi o‘rinlarda ishlataladi:

1. Ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi: *«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa», – degan edi Sa‘diy Sherzo‘y. I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishiga zeb-u ziynat, – degan edi Alisher Navoiy, – hikmat va donishdir».*

2. Sitatalar qo‘shtirnoq ichida yoziladi: *Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari halihanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.*

Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko‘nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho‘g‘day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...»

3. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, ishlatalishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, piching, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shtirnoq ichida yoziladi: ... oradan yana bir necha oy o‘tib, uchinchi marta sud bo‘lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o‘n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi». (T.Malik) «Xalq artisti», beliga o‘q tekkanday erta-yu kech to‘rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo‘lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A’zamov)

4. Badiiy asarlari, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shtirnoq ichida beriladi: *«Lison ut-tayr» (Qush tili) asari haqida suhbatalashdik. «Ma‘rifat» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Mening oppoq kabutarlarim» spektakli, «Sohibqiron» dramasi, «Amir Temur» portreti.*

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo‘shtirnoq ichida yoziladi: *«Uzdunrobita» qo‘shma korxonasi, «Kochxolding» konserni, «Kamolot» ijtimoiy harakati, «Istiqlol» tennis sport majmuasi, «Diyor»*

savdo uyi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi, «O'zbekavtotrans» Davlat aksionerlik korporatsiyasi, «O'ZDEUavto» O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodi, «Chorsu» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi: «Neksiya» rusumli yengil mashina, «Boing» samolyoti, «Otayo'l» mikroavtobusi, «Rayhon» alkogolsiz ichimligi, «Kibo» oyoq kiyimi, «Hojimatov damlamasi».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi: «El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q.G'.Abdullayev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi: 1995-yilning 6-may kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi: 11-«A» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimga «besh» baho qo'ydi.

9.Ikki nuqta va uning qo'llanish o'rniinlari. Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatala boshlangan.

U quyidagi o'rnlarda ishlataladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng: *Olt mishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman hayotda iz qoldiribman.* (A.Qahhor)

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng: *Bundan so'ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'tiruvchi Ostoboyim va Kumushga qichqirdi:*

– Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin: *O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.*

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng: *Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni».*

Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:

I.Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.

II.Navro'z – umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin: *Toshkentda «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiysi bo'lib o'tdi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun: *Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi. «Andijon» va «Paxtakor» komandalari o'rtasidagi o'yin durang naija bilan tugadi – 2 : 2.*

Eslatma: Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi. 100 : 2 – 50.

10. Nuqtali vergul va uning qo'llanilish o'rirlari. Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

U quyidagi o'rirlarda ishlataliladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lмаган hollarda: *Lekin avtor shu kichkinagini hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi.* (A. Qahhor)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda: *Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!* Yaxshimi yomon dema, olishing bo'lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

3. Uyushiq bo'laklar guruhanlib, o'zaro vergullar yordamida bir–biridan ajratilganda, har bir guruhi anglatuvchi so'zdan keyin: *Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda*, quyosh, boshoglar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillarangda, g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda, tog'lar havorangda, chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida:

Otabek timsoliga taysif:

a) Otabek – o'qimishli, o'z davrining yetuk kishi;

b) Otabek – mard va jasur yigit;

c) Otabek – o'z ahldiga sodiq, vafoli yor.

Tinish belgilaringning qo'shaloq holda ishlatalish o'rirlari. O'zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma'nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo'llash hollari ham uehrab turadi. Ularning qo'llanilishidagi asosiy o'rirlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida so'roq va undov belgilari ketma-ket qo'yiladi:

— Axir, ablah, — derdi Yumus, — birovning uylga oyog'ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg'atgantib oq qilmaysan! (A. Qahhor)

2. So'roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin. Ev, purviqor tog'lar! Nega jimsizlar, nega!!! (A. Cho'lpion)

3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi.

«*Ertaga! – deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi – xo‘sish, ertaga nima bo‘ladi?..»* (N.Qilichev) Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:

– *Topdi-mm!.. Topdi-im!.. (Sh.Bo‘tayev).*

4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatalishi mumkin: «*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi,*» – deb yo‘zgan edi A.Qahhor.

Tinish belgilarinining o‘z o‘rnida ishlatalishi ham mazmun, ham grammatik tomoniga ta’sir qilishi mumkin.



Mavzuga oid savollar

- 1.O‘zbek tilida nechta tinish belgisi bor?
- 2.Tinish belgilari gapning qaysi jihatiga ta’sir etishi mumkin?
- 3.Qaysi tinish belgilari qo‘shaloq tarzda ham ishlatalishi mumkin?
- 4.Ko‘chirma gaplarda ishlataladigan tinish belgilari haqida ma’lumot bering.
- 5.Nima sababdan chiziqcha (defis) tinish belgisi hisoblanmaydi?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Matnni o‘qing. Kerakli tinish belgilarini qo‘yib daftaringizga ko‘chiring.

Tog‘ga ham chiqamizmi() dedi Feruza quvonchdan qichqirib() Zuhra Feruzaning qo‘lidan ushlab yo‘l boshlagan edi, oyisi tayinladi() -Yalpiz ham terib kelinglar() Feruza yalpizni hech ko‘rmagan edi() – Nima yalpiz ham gulmi() deb so‘radi() – Voy, yalpizni bilmaysanmi() Fotima hayron bo‘ldi() Yalpiz o‘tda() (O’.Hoshimov)

№2. Gaplarni o‘qing. Tinish belgisi bilan bog‘liq holda gaplar ma’nosidagi farqnı tushuntiring.

1. Bu gaping yomon, bo‘lmadi. Bu gaping yomon bo‘lmadi. 2. Sen katta, bola emassan. Sen katta bola emassan. 3. Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo ko‘rmaydi. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo ko‘rmaydi. 4. To‘g‘ri, yo‘llarda ham mashaqqat bor. To‘g‘ri yo‘llarda ham mashaqqat bor. 5. Ajdodlarimiz ulug‘, temuriylarga borib tutashadi. Ajdodlarimiz ulug‘ temuriylarga borib tutashadi.

№3. Berilgan gaplarning ma’nosini tinish belgisini qo‘yish bilan o‘zgartiring. Har bir gapni o‘zgarguncha va o‘zgargandan keyin o‘qing hamda ohangiga e’tibor qarating.

1. Sobir akam keldi. 2. Yaxshi bolalar vaqtini bekor o‘tkazmaydi. 3. Xona katta kishilarga yoqdi. 4. Gullar chiroyli stolni bezab turibdi. 5. Akam kecha kelgan mehmonlarni o‘zi kutib oldi.

№4. Matnni o‘qing. Tinish belgilarining qo‘yilish o‘rinlarini izohlab bering.

Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko‘rgan qop-qora tog‘lar! Ey, Vatanim Turkistonning eski davrini ko‘rgan tog‘ bobolar! Chin ayting! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko‘rub turubsiz! Nimaga bu madaniyatga kirmakka o‘zlar harakat qilmaydilar?

Ey vatandoshlarim! Qachong‘acha bu g‘aflat? Nimaga buncha xushyoq-massizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko‘z oldingizga kelub turg‘on ilm va ma’rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og‘izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko‘z ochinglar!

Uyqudan ko‘z ochinglar! Urununglar! Ilm-ma’rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o‘tdi... (A.Cho‘pon)

№5. Gaplarni o‘qing. Qavsning qo‘yilish o‘rinlarini izohlang.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo‘yiladi. (Dilnavoz boshini ko‘tarib) Oh... Ey ko‘k tovushi, to‘g‘ri so‘ylading! Dunyoda kuchsizlikdan yomonroq narsa yo‘q. (A. Fitrat) Birjada yetkazib berish vaqt o‘tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish (forvord) bitimlari, bir qolipdagil mollar-ni sotish yoki sotib olish (fyuchers) bitimlari hamda kelajakda sotib olish bo‘yicha oldi-sotdi (opsion) bitimlari tuziladi. Dehqon (fermer) xo‘jaliklariga biriktirilgan yer maydoni 10 yil ichida 30 baravarga o‘sdi. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash fondi (Biznesfond)ni tashkil qilish haqida Prezident Farmoni (1995-yil 26-iyul) ni amalga oshirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn («lkki til muhokamasi») asarida fors-tojik va turkiy tillar bir-biriga solishtiriladi. Abdulla Qodiriy (Julqunboy)ning «O‘tgan kunlar» romani uning o‘ziga qo‘yilgan boqiy haykaldir.

№6. Gaplarni o‘qib, tushirib qoldirilgan tinish belgilarini toping va daftaringizga to‘g‘rilab ko‘chirib yozing.

1. Omon Muxtorov shunday degan edi: Abdulla Qahhorning shaxsiy ko‘zoynagi bo‘lmaganida, u hech qachon Qahhor bo‘lmasdi.

2. Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari ataladi:

xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;

fujarolarning teng huquqliligi;

inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;

hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.

3. Ma’rifat ro‘znomasining manzili 700085, Toshkent. Matbuotchilar ko‘chasi, 32.

4. Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lmog‘i lozim yuzi ham kiyimi ham qalbi ham fikri ham.

5. I.A.Karimovning O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarini o‘qib chiqib muhokama qildik.

№7. Tushirilgan tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Nima qilmoqchisan o'g'lim 2. Voy-voy Maynaxon uyingizni yig'ishtirib olsangiz bo'lmaydimi 3. Qizil shapkacha qayoqqa ketyapsan debdi Bo'ri 4. Hoy qizim xafa bo'lma 5. Bulbul sening makoning shu yerda odamlar orasida bo'lsin

№8. Tire ishlatilgan gaplarni tiresiz holga keltirib ko'chiring (ularning o'rniغا kesimlik shakllari va bog'lamalarni qo'ying).

1. Ochiq yuzlilik – bekning yaxshi fazilatlaridan biri. 2. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik – nodonlar ishi. 3. Fisq-fasod – qut-saodat dushmani. 4. Vazirlilik – ulug' ish. 5. Tamagirlik – kishining boshiga bitgan balo. 6. So'zga chechanlik – kirishimlik alomati. So'zi go'zalning ishi ham yurishadi. Xotira baquvvatligi – elchiga ziynat. 7. Sirni eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi – vazir, boshqasi – kotib. 8. Bu dunyodagi eng yirik yov – nafsing. 9. Qorin to'ysa arpa ham, holva ham bir xil – ikkalasi ham ortib qolaveradi. 10. Ko'ngil chopmagan ishni qilish – xatar. («Qutadg'u bilig»dan)

№9. Gaplarni o'qing. Ko'p nuqtaning ishlatilish sabablarini tushuntiring.

1. – E-e, otam... – Qo'zivoyni hijichoq tutib qoldi. – X-xush ke-kelib... h-hiq... siz... H-hozir sizni... (M. Ochilov). 2. Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirkaganidan keyingina zal asta-sekin tinchiy boshladi. O'sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi: «... Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...». (O'. Hoshimov) 3. Xoji Ahmad o'lar vaqtida Muhammadyorga qarab:

–O'g'lim! Meros sen...ga...o'lturgan...joy... Vasiyatim... - o'qi...o'...qu... o'qu...o'qi... Men...r-r...zomen, – deb jon taslim qildi. (A. Cho'lon)

4.– Yig'layman, to'yib-to'yib yig'lab olaman goho. Pahlavonda ham yurak bor, uning ham g'am-g'ussasi bor, ukam... (X. To'xtaboyev)

5. Asablar,

Asablar,

Asablar...

Sababsiz sochilgan g'azablar

Gunohsiz chekilgan azoblar.

(E. Vohidov)

№10. Gaplarni o'qing. Qayerlarda qo'shtirnoq ishlatilishi lozimligini aniqlang, izohlab, so'ng gaplarni daftaringizga ko'chirib oling.

1. Markaziy Osiyo madaniyati haftalik gazetasini muntazam o'qib turaman. Vatan, millat so'zlarini ishlatmay turib ham vatanparvarlik, millatparvarlik mohiyatini olib berish mumkin. 2. Odam keksaygandan keyin yosh bolaga o'xshab qolarkanmi, mana shu yildan boshlab sal narsani ham ko'ngilga oladigan tegmanozikka aylandi-qoldi. 3. Fitrat so'zining lug'aviy ma'nosini ikki jiddlik o'zbek tilining izohli lug'atidan topolmaysiz. Navoiy lug'atida tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish deb izohlangan. 4. Odob – oltindan qimmat, – deydi xalqimiz. 5. Zarafshon-Nyumont qo'shma korxonasining mahsulotlari dunyo bozorida anchalardan sanaladi. 6. Shoir B.Boyqobilov Navoiynoma tetralogiysi uchun Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini olish baxtiga sazovor bo'lgan.



Mavzuga oid testlar

1.Gapda tinish belgilari o‘z o‘rnida ishlatilmasa, gap qaysi jihatdan o‘zgarishi mumkin?

- A) faqat mazmuni o‘zgaradi
- B) faqat sintaktik tuzilishi o‘zgaradi
- C) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgaradi
- D) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgarmaydi

2.Jismimiz yo‘qolur // o‘chmas nomimiz. Ushbu gapdag'i // belgisi o‘rnida qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?

- A) vergul B) undov belgisi C) ko‘p nuqta D) tire
- 3. Qaysi javobda yordamchisiz bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga tire (-) qo‘yilishi kerak?

- A) Qilayotgan ishingni sevishing kerak // ana shunda mehnat ijodga aylanadi.
- B) Davlat tinch // xalq tinch.
- C) Tashvishsiz va g‘amsiz hayot baxt emas // baxt ko‘ngilning besaranjomligi.

- D) Yuz husni yaqqol ko‘zga tashlanadi, uning kutilmagan sir//asrori yo‘q.
- 4.Tire noto‘g‘ri qo‘llangan qatorni aniqlang.
- A) O ‘zbekiston – mustaqil davlat.
- B) Til – millatning boyligi va bebahoh mulki.
- C) Men – o ‘qituvchiman
- D) Ona yerim – oltin tuprog‘im.

5.Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro payt munosabatida bo‘lsa, ular orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

- A) ikki nuqta B) tire C) nuqtali vergul D) vergul
- 6.Qaysi bog‘lovchilardan oldin yozuvda vergul qo‘yiladi?

 - A) lekin, ya‘ni, balki, chunki, negaki, takror qo‘llanuvchi ayiruv bog‘lovchilar
 - B) biroq, chunki, agar, gar, toki, goh..., goh...
 - C) ammo, lekin, biroq, agar, gar, toki, basharti
 - D) ammo, lekin, biroq, agar, gar, takror qo‘llanuvchi ayiruv bog‘lovchilari

7.Fikrning tugallanmaganligini ko‘rsatish uchun yozuvda qanday tinish belgisi ishlataladi?

- A) undov va so‘roq belgilari B) nuqtali vergul
- C) ikki nuqta D) ko‘p nuqta
- 8.Qaysi gapda tinish belgi noto‘g‘ri qo‘llangan?

 - A) Uy, buyum, mol-hol, hammasi senga qolsin.
 - B) Ulardan uchtasini: Sayyorani, G‘ayratni, Shavkatni ko‘rib turamiz.
 - C) Anvar har bir kishidagi shunday xislatsini: odamoxunlik, mehmondo‘slik, ochiq chehralikni yoqtiradi.
 - D) Qayoqdan keldi shuncha olomon: bolalar, xotinlar, chollar?

9. Qaysi atoqli otlar qo'shtirnoq ichiga olinadi?

- A) Navoiy nomidagi mahalla, Katta Farg'ona kanali
- B) Barcha javoblardagi atoqli otlar qo'shtirnoq ichiga olinadi.
- C) Oqtepa mahallasi, Mustaqil O'zbekiston jamoa xo'jaligi
- D) Yoshlik nomli suratxona, Qorasuv nomidagi mahalla

10. Kurashda bir tabiat qonuni bor // polvon davrada mag'lub bo'lsa, taqdirda tan berib ketmaydi. Ushbu gapda // belgisi o'rniда qaysi tinish belgisi qo'llanadi?

- A) nuqtali vergul
- B) hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi
- C) vergul
- D) ikki nuqta

Uy ishi

№1.Gaplarni o'qing. Tushirilgan tinish belgilariini qo'ying. Qavs va undov belgilaringin qo'yilish sabablarini tushuntiring.

1. Biz oltmish student dorulfununning adabiyot bo'limida besh yil (!) tahsil ko'rdik, lekin Alisher Navoiyi bilmasdan ketaverdik. (E. Vohidov)

2. Mavlono (eshikka qarab). G'ulom Nabi! G'ulom Nabi!

G'ulom Nabi (kelib). Labbay!

Mavlono. Bizning bir ishimiz bor. Ichkariga kishi qo'yma!

G'ulom Nabi. Xo'p. (Chiqar) (A. Fitrat)

3. Tabib kosadan barmog'iga biroz ilashtirib yaladi va darrov tuplab tashladi.

- Zahar ichibdi!

Otabek sapchib turib ketdi, tusi qo'rqinch holga kirgan edi.

- Bekor gap!

Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatga keldi. (A. Qodiriy)

4. Dehqon (fermer) xo'jaliklari O'zbekistonda tadbirkorlik shakllaridan biridir.

5. Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) o'zbek romanchiligini yangi takomil bosqichiga ko'targan adiblardan biridir.

№2.Kerakli o'rnlarga tire qo'yib gaplarni ko'chiring. So'ngra uni izohlang.

1.Kishidan kishiga qoladigan meros so'z. 2. Bilimsiz kishilar donolarning dushmani. 3. Dunyo shodligini olmoqchi bo'lgan odamga chora ezgulik. 4. Bilimsiz kishi yilqi-hayvon bilan teng. 5. Qo'limda keskir xanjar. Bu mening kimligimga ishora. 6. Ezgulik o'ng, yomonlik chapdir. 7. Ko'p so'zlash donolik belgisi emas. U ezmalik alomati. 8. Otalar so'zi aqlning ko'zi. 9. Do'stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi chaqimchi. 10. Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar, yomon so'z bilan pichoq qinidan.

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Matnni o'qing. Unda tushirib qoldirilgan tinish belgilariini qo'ying.

Mol go'shti mahsulotlarining oziq-ovqat sanoatida tutgan o'rni

Go'sht sanoati uchun muhim mahsulot go'sht asosan qoramol qo'y echki va cho'chqalardan yetishtiriladi Lekin ayrim tuman va viloyatlarda yilqi qo'tos buyvol tuya va bug'ulardan ham go'sht yetishtiriladi Go'sht yetishtirishga mo'ljallangan hayvonlar so'ylidigan hayvon yoki go'sht uchun boqiladigan yoki boqilayotgan hayvon deb ataladi Hayvonlar turi yoshi va jinsiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi

Qoramol ho'kizlar axtalangan buqa yoki buqachalar sigirlar tuqqan va bir necha buzoq bergen urg'ochi qoramol buqalar axta qilinmagan yirik erkak qoramol novvoslar axtalanmagan yosh erkak qoramol g'unajin tanalar hali tug'magan yosh urg'ochi qoramol buzoq faqat sut bilan boqilgan 14 kundan 3 oyligiga qadar erkak va urg'ochi qoramol

Qo'y qo'chqor yirik axtalanmagan erkagi axtalangan qo'chqor valux yirik axta qilingan erkak qo'ysovliq bir yoki bir necha marta qo'zilagan qo'y yoshsovliq hali tug'magan yirik urg'ochi qo'zi qo'zilar yosh qo'ylar

Cho'chqa to'ng'iz vazni 20 kg dan ortiq bo'lgan axtalanmagan erkak cho'chqa urg'ochi cho'chqa tuqqan yoki bo'g'oz cho'chqa cho'chqacha vazni 20-59 kg bo'lgan yosh urg'ochi yoki axtalangan erkak cho'chqa cho'chqa bolasi porosyonok vazni 6-20 kg bo'lgan bolasi yosh cho'chqa bolasi vazni 2-6 kg bo'lgan bolasi

O'zbekiston viloyatlarda iqlim jug'rofiy va ekologik shart-sharoitlariga ko'ra barcha turdag'i chorva mollarining har xil zotlari va biror muayyan mahsulot berishga moslashgan guruhlari boqiladi Zot deb ma'lum tur bir xil ko'rinishga va nasliy belgilarga ega bo'lgan hayvon guruhiga aytildi



11-MAVZU. MULOQOT JARAYONI VA UNING KO'RINISHLARI.

Reja:

1. Muloqot haqida tushuncha.
2. Muloqot turlari va shakllari.
3. Muloqot madaniyati.

Tayanch so'z va iboralar: muloqot, muloqot turlari, munosabat, pedagogik muloqot, dilkashlik, xushmuomalalilik, mulohaza, madaniyat, axloq, kasbiy muloqot, muomala.

Muloqot haqida tushuncha. Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib boilmaydi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog E.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek muhimdir. Go'daklik va o'smiertlik davrlarida muloqot etakchi faoliyatga, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoji bo‘lib, munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar, ma’lumot hamda axborot almashtishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir.

Muloqot – odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayrboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayrboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan muloqotda bo‘lamiz. Munosabatning keyingi jihatni muloqotga kirishuvchilarining bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo‘lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqotning tizimida o‘zaro bir-biriga bog‘liq jihatlari ajratiladi:

Perseptiv jihat – bu muloqot jarayonida o‘zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir.

Kommunikativ jihat – bu muloqotdagi individrlarning o‘zaro ma’lumot almashtinishidir.

Interaktiv jihat – bu individlar muloqotda nafaqat bilim va g‘oyalar, balki harakatlar bo‘yicha ham o‘zaro ta’sirini tashkil etishdan iborat.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o‘z “Meni” atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, shaxsnинг hayot yo‘llari avval oilada, bog‘cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri – bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagи bolalarga kattalarga nisbatan qo‘llaydigan so‘zlarini ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o‘ziga xos so‘zlar qo‘llaniladi. Bunda so‘zning ta’sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsni temperament xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo‘llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko‘nikma, bilim, malakalarning hosil bo‘lishida muloqotning o‘rni beqiyos. Oddiy ko‘nikma (“to‘g‘ri o‘tir, qo‘lingni yuv, joyingga bor, salom ber”) lar ham muloqot orqali singdiriladi.

Shaxs muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergen ko'rsatmalaringizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lilar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Demak, muloqot birqalikdagi parakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni.

Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir. Muloqotning o'zaro birqalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan tashqarida uning pertseptiv jihatni munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro idrok etish yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: "Kundalik hayotga odamlar bilan muomalaga kirisharkamiz, biz ularning xulq-atvoriga mo'ljal olamiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma'lumotlari ma'lumotlari mohiyatini go'yo o'qib ya'ni mag'zini chaqib chiqamiz va shu yo'sinda konteksta mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihatni mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz".

Muloqot turlari. Muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birqalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdarligi va samaradorligini ta'minlovchi muhim omil ekanligini bildiradi. Fanda muloqotning quyidagi turlari farqlab o'rghaniladi:

Moddiy muloqot deganda sub'yeqtning dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida ayni paytda shug'ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

Kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o'rGANISH, ma'lumotlarni bilib olish jarayonida o'zaro bilim almashinuviga aytildi.

Konditsion muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko'tarishi yoki, aksincha, ona qizining o'ksinib yig'layotgan holatiga yig'i bilan munosabat bildirishi va h.k.

Motivatsion muloqot muayyan yo'nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o'zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlar almashinuviga jarayoni bilan izohlanadi.

Faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko'nikma va malakalar ayirboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma'lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi va takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko'ra biologik va ijtimoiy ko'rinishda bo'ladi. Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlanirish, himoyalash kabi tabiiy

ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot vositasiga ko'ra **bevosita** va **bilvosita** bo'lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida, ya'ni qo'shi, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayrboshlasa, bu bevosita muloqot bo'ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma'lumot almashishda maxsus quroq va vositalardan foydalanilsa, bu muloqot bilvosita deyiladi.

Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Vositali muloqot muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog'liq. Bular yo tabiiy (yog'och, erdag'i izlar va h.k.) yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) jismlar.

To'g'ridan to'g'ri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot shakl (usul)lari. Muloqot **demokratik**, **avtoritar**, **liberal** shakli (usuli)da amalga oshadi. **Demokratik** usulda suhbatlar, munozaralar, muhohazalar o'zaro tenglik, o'zaro hurmat ruhiga bo'ysundirilib, ta'sir o'tkazish sohalari yashiringan holda bo'ladi. Shu boisdan, tasodifan voqeja va hodisalarning sodir bo'lishi turlicha baholanadi, rag'batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlarda do'stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti-harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi norma va talablarga moslashish, o'z faoliyati uchun javobgarlik, emotsiyonal zo'riqish davrida o'z-o'zini qo'liga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo'ladi.

Muloqotning yana bir shakli **avtoritar** deb atalib, bunda shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik o'z ahamiyatini yo'qta boshlaydi. Masalan, boshliq tomonidan xodimlarning yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha cheklab qo'yiladi. Boshliq tomonidan ta'sir o'tkazishning asosiy metodi – jazolash hisoblanadi. Biroq onda-sonda rag'batlantirish metodidan foydalaniyganda ham, u xodimga ma'naviy ozuqa bermaydi. Mazkur usul oilada qo'llanilsa, farzandlarda ota-onaga yaqinlik, mehr hissi kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashish, "begonalashish" kechinmasiga aylanadi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarni qoniqtirmaydi; natijada odamovi, tund, ichimdagini top, tashvishlilik, xavotirilik kabi sotsial norma va qoidalarga qiyinchilik bilan moslashishdan iborat xarakter xislatlari vujudga keladi. Shu sababdan oila a'zolari ruhiy dunyosida simpatiya (yoqtirish), empatiya (hamdardlik), samimiylik, hayrixohlik kabi yuksak insoniy his-tuyg'ular juda nursiz ifodalanadi. Ko'rko'rона va so'zsiz bo'ysunishga asoslangan munosabatlar negizida yotgan tarbiyaviy ta'sir qo'rqaq va irodasi kuchsiz shaxsni tarkib toptiradi.

Muloqot shakli ichida **liberal** usuli ham ko'zga tashlanib turadi. Bu usul muloqot jarayonida murosasoz, ko'ngilchan bo'lishlik, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimi, guruhiy moslikni o'zida aks ettirgandek bo'lib tuyuladi. Afsuski, liberallik, murasasozlik har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri – o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, vaziyatni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir.

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qiliш, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi.

Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyatni jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiatijtimoiy normalar sifatida maxsus hulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng – mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi.

Muloqot madaniyati. Insonlarning surat va shakkllari go'zal qilib yaratilgan. Bu hikmat ularning muomalasi ham go'zal bo'lishini taqozo qiladi. Inson surat va siyratini, ichki dunyosini chiroyli qilgani sayin komillik darajasiga yaqinlashaveradi. Shuning uchun farzandlar muomalada muloyimlik va kechirimlilikni shior qilib olishlari lozim. E'tibor qancha kuchli bo'lsa, ana shu miqdorchha ota-onan huzurida imkoniyatga ega bo'ladilar. Odatda kishi obro'-e'tiborini til orqali topadi. Dono xalqimizning bu to'g'rida "Tilga e'tibor, elga e'tibor". "Bug'doy noning bo'lmasisin, bug'doy so'zing bo'lsin". "Achchiq til zahari ilon, chuchuk tilga jon qurban". "Bemorga shirin so'z kerak, aqlsizga ko'z". "Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi" kabi hikmatlari bejiz emas. Zero, insonning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan hayot tarzini engillashtiradigan, ish yuritishda foydaga asos bo'ladigan, sog'lik-salomatligini barqarorlashtiradigan asosiy omildir.

Tilga e'tiborli bo'lish, mulohaza va mushohada bilan fikr yuritish, boz ustiga samimiy muomalada bo'lish inson uchun faqat yaxshilik keltiradi. Farzandlarining muomala madaniyatini yaxshi bo'lishini istagan ota-onalarning o'zlarini bu jihatda farzandlarga ibrat bo'lishlari kerak. Muomala oilada hayot fayzi, xonodon egalari uchun uning chirog'i kabi deyishimiz mumkin. Bunda avvalambor ota-onan bir-birlarining kamchiligi yoki noto'g'ri harakatini ko'rganda, farzandlar oldida tanqid qilib, gap bilan uyaltirmasdan, og'ir-bosiqlik bilan voqealab sababini aniqlashtirish, samimiy gap-so'zlar bilan muammoni hal qilish tahsinga sazovordir. Turmush o'rtog'inining tashqi ko'rinishi, kiyinishi, harakatlarini boshqalarga taqqoslab, salbiy jihatlarini yuziga solish, ta'na qilish mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, farzandlar oldida tanqid qilish, kamsitish yurakda ketmas dog' bo'lib

qolishi mumkin. Aksincha, farzandlarni oldida turmush o‘rtog‘iga bolalarning mehrini keltiruvchi vaziyatga muvofiq so‘zlar bilan muloqot va muomala qilish ota-onaning izzat-hurmat topishning muhim bosqichlaridandir.

Hayotda turli vaziyatlarga duch kelamiz. Ba’zi ota-onalar farzandlarini o‘ksitmaslik, namunali qilish maqsadida kiyinishda, ovqatlanishda, ta’lim olish va ishlashda ular uchun barcha sharoitlarni yaratib beradilar. Farzand bu imkoniyatlarni noto‘g‘ri tushunib, kibrli, manmanlik kayfiyati uning axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oxir oqibat to‘qlikka sho‘xlik qilib muomala va muloqotda qo‘pol, mulohazasi sayozligi evaziga bir og‘iz so‘z bilan ota-onalarning dillarini og‘ritadi, ranjitadi. Natijada o‘rtadagi muomala madaniyati izdan chiqadi, boshqalarning undan ko‘ngli qoladi. Tuzatish qiyin bo‘lgan muammo va qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Farzandlar hoh o‘g‘il, hoh qiz bo‘lsin o‘zlariga oro bersalar-u, muomalani bilmasalar, hech qachon el hurmatiga sazovor bo‘lmaydilar.

Agar nazar soladigan bo‘lsak, muomala madaniyatining go‘zalligi bilan muammolar yechiladi, qalblarga yo‘l topiladi, orzular ro‘yobga chiqadi, ota-onani ko‘nglini olishga sharoit yaratiladi. Shu o‘rinda xalqimiz “Shirin so‘z bilan ilon inidan chiqadi”, deb bejiz aytmagan. Hatto, chiroyli muomala moddiy mablag‘ bilan qilingan yaxshiliklarni ham bosib o‘tishi mumkin. Bu ma’noni ta’kidlab, Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg‘ambarimizdan (solallohu alayhi vasallam) keltirgan hadisi sharifda: “Tabassum bilan aytilgan chiroyli so‘z - sadaqadir”, deyiladi. Bu bilan odamlarning o‘zaro muomalasi qay darajada izzatlanishi ta’kidlanmoqda. Gohida kichkina e’tiborsizlik katta noxushliklarga sabab bo‘ladi, muammo ustiga muammo tug‘iladi.

Buning uchun turli insonlar bilan suhbatlashish jarayonida bir necha kichik qoidalarga amal qilsa bas:

- suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni istamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish mumkin emas;

- suhbatdoshingizga o‘zingizga ta’rif, tasnif berishdan, o‘z muammo va yutuqlaringiz haqidagi ma‘lumotga e’tiborni kuchaytirishdan qoching. suhbat chog‘ida o‘zingizni “men”ingizni markaziy joyga qo‘ymang, kamtar bo‘ling;

- o‘zingizni fikringizni uqtirishdan oldin uyalib qolmasligingiz uchun ham-suhbatingizni ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma‘lumotga ega ekanligini bilib olgandan so‘ng suhbatga kirishing;

- suhbatdoshingizni hurmat qilishga o‘rganing, hatto uning fikrini siz noto‘g‘ri deb bilganiningizda ham oxirigacha eshititing;

- boshqa insonlarni g‘iybat qilishdan, ularni muammosi haqida gaplashish ham axloqsizlik sanaladi.

Hamma xursand holatda suhbatlashayotgan holatda kayfiyatni tushuruvchi qo‘rqinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarning kayfiyatini tushurib yuboradi. Kasal ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasalining tarixi, mayda-chuydalari haqida gapirish mumkin emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lgan taqdirda ham, ko‘rinishi yaxshiligi, albatta tuzalib ketishi mumkinligi borasida suhbat qurish lozim. Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular haqida

gapirilmaydi. Taomni yomonlash, kamchilik axtarish mumkin emas, balki pishirgan insonni ko'nglini ko'tarish lozim.

Tarbiyali va madaniyatli inson umumiy tanish haqida fikr bildirayotganda yolg'on ishlatmaydi, u haqida noloyiq so'zlar aytmaydi. Bir inson haqida (hatto u yomon inson bo'lganda ham) fikr bildirayotgan paytda u kirib qolsa, miyig'ida kulib, iboli qarash, piching, qochiriqlar qilish, ba'zida betga aytgan haqiqiy fikrdan ham qattiq dilga ozor beradi. Suhbatlashishning chog'ida inson tinglashni ham bilmog'i darkor.

Tinglash faqat eshitib o'tirish degani emas. Yaxshi suhbatdosh o'z suhbatdoshi fikrini mantiqiy tugatgandan so'ng, o'z fikrini to'liq bayon qilib beruvchi insondir. Juda ham kerak bo'lib qolgan vaqtida kechirim so'rab, masalan, "Kechirasiz, menimcha shu fikringiz..." yoki "Fikringizni bo'lganim uchun uzr so'rayman, menimcha..." bu vaqtida gapirayotgan odam suhbatdoshiga imkon berishi lozim. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda albatta yoshlari bilan kattalarni o'rtasida tushunmovchiliklar bo'ladi. Shunday paytlarda yoshlari o'zlarini fikrlarini yoqlamasdan "xo'p" deb mavzuni o'zgartirishlari kattalarning dili og'rib qolishidan saqlaydi.

Suhbatdoshingizning fikrini noto'g'ri deb bilgan taqdiringizda ham tarbiyali va kamtar inson sifatida munosabatda bo'lib "menimcha, adashdingiz", "uzr men boshqa fikrdaman", "kechirasiz, men sizning fikringizga qo'shilmayman" degan iboralar bilan murojaat qilinadi. Hech qachon "umuman noto'g'ri", "bu to'g'rida hech narsani tushunmaysiz", "bu narsani yosh bola ham biladi" degan iboralarini ishlatish mumkin emas.

Maqsadlariga ko'ra, muloqot xizmat ko'rsatish ehtiyojlariga muvofiq holda **biologik va ijtimoiy** turlarga bo'linadi. Biologik – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq. Ijtimoiy muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini nechta turga ajratish mumkin bo'lsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari bo'lishi mumkin.

Muloqot turlari orasida, shuningdek, ish bo'yicha va shaxsiy, instrumental va maqsadli kabi turlarni ajratish mumkin.

Mavzuga oid savollar

1. Muloqot deganda nimani tushunasiz?
2. Muloqot turlari haqida nimalarini bilasiz?
3. Muloqot muammosi bilan qaysi olimlar ko'proq shug'ullanganlar?
4. Muloqotchanlikni qanday tarbiyalash mumkin?
5. Muloqot jarayonida qanday psixologik to'siqlar mavjud?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Matnni o'qing. Muloqotning maqsadiga ko'ra turini aniqlang va izohlang.

Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko'rgan qop-qora tog'lar! Ey, Vatanim Turkistonning eski davrini ko'rgan tog' bobolar! Chin aytin! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko'rub turubsiz! Nimaga bu madaniyatga kirmakka o'zlar harakat qilmaydilar?

Ey vatandoshlarim! Qachong'acha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyoq-massizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar!

Uyqudan ko'z ochinglar! Urununglar! Ilm-ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi... (A. Cho'lon)

№2. Hikoyani o'qing. Nuroni chol va bola o'rtasidagi muloqotga diqqat qiling. Muloqot turini belgilang.

Nuroni chol ko'chada o'tirgan yosh bolani ko'rib so'radi:

- Hoy yaxshi bola, oting nima?
- A? – dedi bola anqovlanib.
- Oting nima deyapman!
- A, otimmi?
- Ha, oting!
- A... – o'ylanib qoldi bola.
- Oting anqov ekan! – dedi chol xafa bo'lib. (Shukur Sa'dulla)

№3. Matn bilan tarnishing. Bugungi kunda yoshlarning nutq madaniyati haqida mulohazalaringizni bayon qiling.

Otasi yoki u tengi boshqa kishiga «paxan», «boboy», onalariga «babulya», «babushka», «kampirsho», aka-ukalariga nisbatan «brat», «bratan», «bratishka» deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so'zları qulqqa og'ir eshitiladi.

Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha-hindcha shakkarda o'rinsiz qisqartirilib aytlishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi.

Ko'cha-ko'yda, avtobuslarda, o'quv dargohlarida «xey», «vey», «xov» deb yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do'stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlар ham uchrab turadi.

Bularning hammasi o'ta madaniyatsizlik, odob me'yorini bilmaslik sanaladi. (A. Mirzaboyev)

№4. O'qing, motivatsion matn belgilarini ko'rsating.

Muruvvat-u ma'rifatdir buyuklikning nishonasi,
Qadam qo'ying, mana sizga asl yo'lning ostonasni.

Jahon ichra buyuk yurtni ulug' doston etaylik biz,
Zamon keldi Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz.
Ming-ming shukr, kelib davron istiqloqga erishdik biz,
Xarob bo'lgan xonadonni butlamoqqa kirishdik biz.
Ilyon nuri oqib turar bir gavhar bor qonimizda,
Ne-ne buyuk bobolarning bardoshi bor jonomizda.
Oldindadir hali hikmat, oldindadir imkonimiz,
Yetishgaymiz kelajakka, pokizadir vijdonimiz.
Jahon ichra buyuk yurtni ulug' doston etaylik biz,
Zamon keldi Vatan bag'rin go'zal bo'ston etaylik biz. (A. Oripov)

№5. Dialogik matnni ko'chiring va tinish belgilariga e'tibor qiling

Do'stimga dedim: «Senga sir emaski, gul beba, guliston bevafodir». Donishmandlar deydi: «Har narsaki bevafo bo'lsa, u muhabbat qo'yishga noravodir». Do'stim dedi: «Xo'sh, u holda qanday tadbir ko'rildi?» Men unga javob berdim: «Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan «Guliston» nomli kitob yozishim mumkin». Shu so'zlar og'zimdan chiqar-chiqmas, do'stim etagimga yopishib xitob qildi: «Karam sohibi bo'lgan odam va'da berdimi, va'dasiga vafo qilmog'i lozim!» (Sa'diy)

№6. Matnni o'qing. Muloqot jarayonida amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalarga e'tibor qiling, berilgan fikrlarga munosabat bildiring.

- Martabaga erishganlar suhbatda quyidagi qoidani saqlash kerak:
- 1) har kimning ahvoliga qarab, munosib so'z aytsin.
 - 2) dag'allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.
 - 3) gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.
 - 4) ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin.
 - 5) odamlarga nafi tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin.
 - 6) agar so'zning qimmati – qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisol urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qay yerga ekmang, unib chiqmaydi.

Martabaga yetmaganlarning suhbat odobi:

- 1) so'ramaguncha gapirmsasin.
- 2) gapirayotganda ovozini baland ko'tarmasin.
- 3) gapirayotganda o'ng-u so'liga qaramasin.
- 4) g'arazli va kinoyali gaplarni gapirmsasin.
- 5) qattiq gapirmsasin va betga choparlik qilmas.
- 6) pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin.
- 7) odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin.
- 8) ko'p gapirmsasin. Chunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham soz gapirishni shior etsin.

№7. “Inson uchun eng qadrlı narsa nima?” degan savolga hayotiy tajribangiz asosida javob berishga harakat qiling.

№8.Berilgan ma'lumotni diqqat bilan o'qing. Muloqot borasida kuzatiladigan muammolarining kelib chiqish manbalari haqida bahs-munozara tashkil eting.

R.S.Nemovning fikriga ko'ra, maktabgacha bo'lgan davrda muloqot bosqichlari:

1.Tug'ilgandan 2-3 oylikkacha bo'lgan yosh davri. Mazmun jihatidan biologik bo'lgan, bolaning hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi aloqaviy muloqot. Muloqotning asosiy vositasi – sodda mimika va oddiy imo-ishoralar.

2. 2-3 oylikdan 8-10 oylikkacha yosh davri. Asosiy his-tuyg'u organlari faoliyatining boshlanishi va yangi taassurotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bilish muloqotining dastlabki bosqichi.

3. 8-12 oylikdan taxminan 1,5 yoshgacha bo'lgan davr. Kognitiv ehtiyojlarga xizmat qiluvchi boshqariladigan, verbal-noverbal muloqot. Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga o'tish.

4. 1,5 yoshdan 3 yoshgacha. Jismli faoliyat va o'yinning paydo bo'lishi bilan bog'liq faoliyat va o'yin muloqotining yuzaga kelishi. Faoliyat va shaxs muloqotiga bo'linishning dastlabki bosqichi.

5. 3 dan 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Tabiatdan berilgan turli xildagi tabiiy belgilar yoki orttirilgan muloqot vositalarini ixtiyoriy ravishda tanlash va ulardan foydalanish. Sujetli-rolli o'yinlarga jalb qilish asosida paydo bo'ladigan sujetli-rolli muloqotning rivojlanishi.

№9.Matnni o'qing. Nuqtalar o'rnnini to'ldirishga harakat qiling, fikringizni asoslab, o'z mulohazangizni bildiring.

1.Bir mashhur tabibdan so'rabdilar:

– Dunyoda eng og'ir xastalik nedur?

Tabib aytibdur:

Xastalikning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, ammo eng dahshatlisi ... dir.

Siz nima deysiz?

2.Dunyoda shunday hunarlar borki, xatosini hech kim tuzata olmaydi. Bular

– Ular inson hayotini, inson qismatini hal qiladi. (*O'.Hoshimov*)

№10. Jumlalarni o'z fikringiz bilan to'ldiring.

1. Agar adolatli inson bo'lib qolishni istasangiz, ...

2. Agar sizni birov alday boshlasa, ...

3. Agar haqiqat sirini ochishni istasangiz, ...

4. Agar boshqalar gapingizni eshitishni xohlalamay qolgan ekan, ...

5. "Haqiqiy go'zallik nima?" deb so'rashsa, men ... deb javob beraman.

Mavzuga oid testlar

1. Shaxs muloqotini shakllantirishda nimalarni hisobga olgan holda ish olib borish lozim?

A) hamma javoblar to‘g‘ri B) uning yoshi

C) jinsi D) kasbi, dunyoqarashini

2. Qaysi javobda «Muloqot» tushunchasining to‘g‘ri va aniq ta‘rifi mavjud?

A) Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta‘sirlashuvi sifatida ta‘riflanadi.

B) Odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta‘sirlashuvi.

C) Axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta‘sirlashuvi sifatida ta‘riflanadi.

D) Hamma javoblar to‘g‘ri

3. Qaysi javobda muloqotning kognitiv tomoniga to‘liq ta‘rif berilgan?

A) Shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarни o‘rganish, ma‘lumotlarni bilib olish jarayonida o‘zaro bilim almashinuviga aytildi.

B) Sherikning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi savollarga javob berish imkonini beradi.

C) Suhbatdoshning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan savollarga javob berish imkonini beradi.

D) Begonaning kim va nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, uning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim savollarga javob berish imkonini beradi.

4. Insonlarda qanday muloqot maqsadlari ehtiyojlarni qondirish vositasи bo‘lib hisoblanadi.

A) ijtimoiy, madaniy

B) bilish, ijodiy, estetik

C) aqliy o‘sish, axloqiy

D) hamma javoblar to‘g‘ri

5. Konativ nima?

A) aql-idrok B) tafakkur

C) hayajon

D) xulq-atvor

6. Muloqot nima?

A) insonning rivojlanishi uchun muhim vosita

B) ijtimoiylashishini ta‘minlovchi vosita

C) individni shaxs bo‘lib shakllanishini va shaxslararo munosabatlari

D) hamma javoblar to‘g‘ri

7. Muloqot maqsadiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) ijtimoiy va biologik B) ilmiy va badiiy

C) og‘zaki va yozma

D) moddiy va kognitiv

8. Perseptiv jihat nima?

A) Muloqotning perseptiv jihatni muloqot jarayonida insonlarni tushunishdir

B) Muloqotning perseptiv jihatni muloqot jarayonida o‘y xayollar orqali tushunishdir

C) Muloqotning perseptiv jihatni muloqot jarayonida fikrlash orqali tushunishdir

D) Muloqotning perceptiv jihatni muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir

9.Kommunikativ jihat nima?

A) Muloqotning kommunikativ jihatni muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir

B) Muloqotning kommunikativ jihatni muloqot jarayonida o'y xayollar orqali tushunishdir

C) Muloqotning kommunikativ jihatni muloqot jarayonida fikrlash orqali tushunishdir

D) Muloqotning kommunikativ jihatni bu muloqotdagi individlarni o'zaro ma'lumot almashinishdir

10.Interaktiv jihat nima?

A) Muloqotdagi individlarni o'zaro ma'lumot almashinishdir

B) Muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir

C) Bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni.

D) Muloqotning interaktiv jihatni bu individlar muloqotda nafaqat bilim va g'oyalar balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

Uy ishi

Adiblar ijodidan olingen quyidagi fikrlar yuzasidan mulohazalaringizni bayon qiling. Hayotda bu hikmatlarga qaydarajada amal qilasiz?

Ular qichqiraversin: «Hayot – bu lahza. O'yna!»

Siz o'zingiz uchun javob bering: «Hayot – bu lahza. O'yla!»

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Bo'lajak mutaxassis sifatida sohangiz vakillari bilan suhbat o'tkazing va buni audioyozuv shaklida yozib oling. So'ngra ularni mustaqil ta'lim daftaringizga yozma shaklda aks ettiring.

12-MAVZU. NUTQNING XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Nutqning to'g'riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning sofligi.
5. Nutqning boyligi.
6. Nutqning jo'yayiligi.
7. Nutqning ifodaliligi.

Tayanch so‘z va iboralar: nutqning madaniyligi, nutq odobi, kommunikativ sifatlar, to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soqlik, jo‘yalilik.

Odob juda keng va qamrovli tushuncha bo‘lib, u nutqni to‘g‘ri va o‘rnida qo‘llash odobini ham o‘z ichiga oladi. Buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobida «Odobning boshi tildir» degan maqol qayd qilingan. Ulug‘ alloma Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida «til ardam» (nutq odobi) haqida bir qancha go‘zal hikmatlar mavjud bo‘lib, jumladan “So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin, Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin”, “Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi, Nodonning so‘zi o‘z boshini yeysi”, “Aql ko‘rki so‘zdir va til ko‘rki – so‘z” deyliladostonda. So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy so‘zning muloqotdagiligi o‘rnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va lo‘nda gapirishni fazilat deb bilgan. Tariximizda go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma‘rifat darg‘alari tilimiz muhofazasi, tilning soqligi va nutq odobi haqidagi jiddiy fikrlarni bayon qilganlar.

Bugungi nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashni nazarda tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma‘rifiy taraqqiyotining, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisi, o‘ziga xos ko‘zgusidir. Nutqiy muloqotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog‘liq, chunki madaniy nutqqina chinakam ta’sir kuchiga ega bo‘la oladi.

Tilshunoslikda «nutq madaniyati» termini, asosan, ikki xil ma’noda qo‘llanadi, ya’ni: 1) tildan bermalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqs adga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o‘rganish va o‘rgatish bilan shug‘ullanuvchi b o‘limi.

Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborot va hissiy holatni tinglovchi (o‘quvchi)ga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat. Ammo nutq bunday ta’sir quvvatiga ega bo‘lishi uchun, albatta, madaniylik talablariga javob berishi zarur. Buning uchun nutqda bir qator zaruriy sifatlar mavjud bo‘lishi kerak.

Nutqning madaniyligini ta‘minlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha bo‘lib, ularning asosiyлари qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: **to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soqlik, jo‘yalilik**. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog‘liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya’ni nutqda to‘g‘rilik sifatining mavjudligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi

hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi. **Nutqning to‘g‘riligi**. Nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyati haqidagi ta‘limot ning markaziy masalasidir.

Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga kela oladi. Zotan, to‘g‘ri bo‘laman nutqning aniqligi yoki mantiqiyligi, ifodaliligi yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to‘g‘riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to‘g‘riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo‘lib, maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarda aynan to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To‘g‘rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me‘yorlariga to‘la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me‘yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi. Adabiy me‘yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg‘un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiyligi amaliyot va an‘anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida quyidagi me‘yorlar farqlanadi: 1) leksik (so‘z qo‘llash) me‘yorlar; 2) talaffuz me‘yorlar; 3) so‘z yasalishi me‘yorlar; 4) morfologik me‘yorlar; 5) sintaktik me‘yorlar; 6) uslubiy me‘yorlar.

Adabiy til me‘yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto‘g‘ri tuzilishiga olib keladi. Ammo badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me‘yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylik uchun xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi grammatic me‘yorlarga ko‘ra, ega shaxs bo‘lmasa, u ko‘plik sonda bo‘lsa-da, kesim ko‘plik qo‘srimchasini olmaydi. Ammo badiiy asarda tasvirga erka bir ohang berish maqsadi bilan mahoratli ijodkor Abdulla Qodiriy “Bu xabarni eshituvchi – Kumushbibining qora ko‘zlarini jiq yoshga to‘lib, kipriklari yosh bilan belandilar” tarzidagi go‘zal jumlanı tuzadi.

Adabiy tilning yozma shaklida to‘g‘rilik sifatining ta‘minlanishi uchun yana ikki turli me‘yorga amal qil ish lozim. Bu me‘yorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) me‘yorlar; 2) tinish belgilari (punktuaatsion) me‘yorlar.

Imlo me‘yorlarini mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlarini, shuningdek, tarixiy an‘analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug‘atlarida o‘z aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni ta‘minlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilari qo‘llash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda so‘zlar, morfemalar kabi til birlklari bilan ko‘rsatish mumkin bo‘laman turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda favqulodda muhim o‘rin tutadi. Bu belgilari tilning sintaktik quril ishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta‘minlashda benihoya zaruriy vositadir. **Nutqning aniqligi**. Nutqning aniqligi so‘zning tildagi ma‘nosiga tamomila muvofiq tarzda qo‘llanishi, so‘zning voqelikdagi o‘zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat’iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir. Tavsiflanayotgan voqelikni yaxshi bilish, tildagi so‘z ma‘nolarini yetarli anglash, nutq mazmuniga e’tibor bilan qarash aniq nutq tuzish malakasining shakllanishi uchun imkon beradi. So‘z ma‘nosи, uning nozikliklarini yaxshi o‘zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo‘lmaydi. Masalan, “Avlodlar merosini o‘rganamiz”

jumlasida ifodalanmoqchi bo‘lgan mazmun *avlod* so‘zining leksik ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydi. *Avlod* so‘zi asli arabcha bo‘lib (uning birlik shakli *valad*, ya‘ni «bola» demakdir), o‘zbek tilida «bir ota-boboden tarqalgan nasl», «bir davorda tug‘ilib o‘sgan kishilar» kabi ma’nolarga ega. Gap meros haqida ketar ekan, *ajdod* so‘zi qo‘llanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha bo‘lib, uning ma’nosи «ilgari o‘tgan nasl-nasab, ota-bobolar» demakdir. Shunga ko‘ra, mazkur jumla “*Ajdodlar merosini o‘rganamiz*” shaklida tuzilishi kerak edi. Ko‘rinadiki, *avlod* so‘zi tildagi leksik ma’nosiga muvofiq tarzda qo‘llanmaganligi uchun nutqning aniqligiga putur yetgan.

Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma’nodosh, ko‘p ma’noli so‘zlar, paronimlar, so‘zlarining uslubiy bo‘yog‘i kabilardagi ma’no o‘ziga xosliklarini yaxshi tasavvur qilmoq zarur.

Aniqlik sifati badiiy nutqda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi, chunki badiiy asar, ma’lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Badiiy nutqda obrazlilik asosiy bo‘lganligi uchun so‘z ma’nosidagi siljishlar, ko‘chishlar ko‘p kuzatiladi. So‘z va u ifodalagan predmet o‘rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko‘pincha ochiq va to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy nutqning asosiy vazifasi estetik ta’sir etishdan iboratligi uchun so‘zning turlicha qo‘llanishi, tovlanishi, turlanishi, xilma-xil ma’nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi. Badiiy nutqda so‘zlar o‘z va hatto ko‘chma ma’nolaridan tashqari ham o‘ziga xos yangidan yangi ma’no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta’minlashi mumkin. Masalan, “*Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldil, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi*” (Cho‘lpon, «Kecha va kunduz») gapidagi g‘ururning kaltaklanishi va kular yuzini no‘qtalamoq birikmalarida kaltaklanishi va no‘qtalamoq so‘zları kasb etgan ma’no nozikliklari («g‘ururni azobli darajada poymol qilish», «keskin va tamoman to‘xtatmoq») bilan matnga ham aniqlik, ham ta’sirchanlik baxsh etgan. Oddiy nutqda *Qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo‘ladi. Chunki qor – yonmaydigan narsa. Ammo “*Qalovini topsang, qor yonar*” degan maqolda, ya‘ni badiiy nutqda fikr go‘zal, obrazli va mubolag‘ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Nutqning mantiqiyligi. Fikr tarkibi va qurilishining to‘g‘ri ifodalaniishi nutq mantiqiyligining asosidir. Nutqda til vositalarining mantiq va to‘g‘ri tafakkur qonuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini yuzaga keltiradi. Ana shunga ko‘ra mantiqiylik sifati nutqda so‘zlar, gaplar o‘rtasidagi mazmuniy va grammatick aloqalarning fikr mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat‘iy mosligi tarzida ta’riflanadi. Mantiq va grammatica har qanday nutqning tayanchi, har qanday nutq sog‘lomligining zaminidir. Ulug‘ donishmand bobomiz Forobiy grammatica va mantiq ilmining favquloddha ahamiyati haqida quyidagilarni qayd etgan: «Grammatika odamlar nutqini to‘g‘rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo‘lgan joyda tafakkurni to‘g‘ri yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi. Grammatikaning tilga va til ifodalalariga bo‘lgan munosabati mantiq ilmining aql va aqliy tushunchalarga bo‘lgan munosabati kabidir. Grammatica har doim til ifodalalarida xatolar kelib chiqishi mumkin bo‘lganda,

tilning o‘lchovi bo‘lganidek mantiq ham har doim aqliy tushunchalarda xato kelib chiqishi mumkin bo‘lganda, aql o‘lchovidir».

Mantiqiy nutq tuzish uchun so‘zlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalardan boxabar bo‘lishi kerak, ayni paytda til birliliklarining leksik-semantik va grammatic mohiyati, ularning bog‘lanish xususiyatlarini ham nazardan qochirmsligi zarur. Aytaylik, so‘zlarning jumla tarkibida mantiqiy-mazmuniy ziddiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg‘un qo‘llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini yetarli darajada bilish lozim. Masalan, “*Traktor va mashinalar yelday uchadi*” gapini mantiqiy deb bo‘lmaydi, chunki unda mantiqiy-mazmuniy ziddiyat bor. Mashina mantiqan juda tez, ya’ni yelday uchishi mumkin, ammo traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifati buzilgan.

Nutqning mantiqiyligi ifoda nuqtayi nazaridan ko‘proq tilning morfologik va sintaktik sathi bilan bog‘liqdir. Har qanday sintaktik birlikning nutqda o‘z mantiqiy-grammatik o‘rnii bor. Gapda so‘zlar tartibining to‘g‘ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg‘un bo‘lishi mantiqiy nutq tuzishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So‘z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikkiyoqlama anglanishiga olib keladi. Masalan, “*Loqaydlik tufayli ko‘rsak ham, indamaymiz*” tarzidagi jumlada so‘z tartibidagi nuqson sababli fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya’ni «loqaydlik tufayli ko‘rish» (bu, albatta, mantiqqa zid) va «loqaydlik tufayli indamaslik». Aslida, ifodalanmoqchi bo‘lgan fikr – ularning ikkinchisi. Jumladagi so‘z tartibi “*Ko‘rsak ham, loqaydlik tufayli indamaymiz*” tarzida tuzilsa, mantiq to‘g‘ri ifodalanadi.

Nutq mantiqiyligining buzilishi matn sintaksisi sathida, ya’ni gaplarning o‘zaro mazmuniy-sintaktik bog‘lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma‘lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi, shunga ko‘ra bog‘li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog‘lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Masmuniy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik abzas va mustaqil gaplarni bog‘lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko‘rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)ning qo‘llanishi orqali namoyon bo‘ladi.

2. Mantiqiy bog‘lilik. Bunday bog‘lilik gaplar, abzaslar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xillas* kabi kirish so‘zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so‘z va so‘z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog‘lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi.

3. Kompozitsion bog‘lilik. Bunday bog‘lilik qayd etmoq lozimki, aniqki, ta‘kidlamoq joizki, yuqorida aytib o‘tilgani kabi tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi.

Yaxlit matnning mantiqiyligini ta‘minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog‘liqlik, umuman, tizim mavjud. Masmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o‘z aksini topmog‘i lozim. Mantig‘i sog‘lom matn «*biri tog‘dan, biri bog‘dan*» fikrlar «*bo‘tqa*»sidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq

kompozitsiya bo‘lishi zarur. Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismidan iborat bo‘ladi, ya’ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o‘rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo‘lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, «qissadan hissa» qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka qo‘yiladigan talablar tamoman o‘ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur mahsuli ekanligi bilan aloqadordir. Mantiqiylikning buzilishi badiiy nutqda o‘ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Xilma-xil alogizmlar (mantiqsizlik), g‘ayriodatiy birikmalar, jonlantirish va boshqa shu kabi qo‘llanishlar ijodkorning badiiy mahorati bilan matnning zaruriy unsurlariga aylanadi. Masalan, nobadiiy nutqda “*Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar*” shaklidagi gap mantiqsiz hisoblanadi. Chunki tinglash uchun «qurol» og‘iz emas, balki quloqdir. Ammo Cho‘ponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu parchada bu gap betakror badiiy obraz tasviriga aylangan: “*O‘tirganlar bir seskanib oldilar*”.

— Qanaqa pul, taqsir? — dedi Matxoliq amin.

Hammaning ko‘zi uning og‘ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko‘zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og‘ziga osildilar. Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar.

Yozuvchi noxush va shum xabarni hayronlik va chorasisizlik ichida og‘izlar ochilib qotgan ko‘yi eshitmoqning badiiy rasmini shu tarzda chizgan.

Nutqning sofligi. Nutqning sofligi nutqning adabiy til va jamiyatdagi ma’naviy-axloq qoidalariga yot bo‘lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanadi. Kishi nutqining sofligi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko‘rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarning asosiyлари quyidagilardan iborat: 1) shevaga xos so‘z, ibora, grammatik shakllar, urg‘u va talaffuz; 2) o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari (varvarizmlar); 3) dag‘al, haqorat so‘z va iboralar (vulgarizmlar); 4) «ishlamaydigan» yoki parazit so‘zlar; 5) idoraviy so‘z va iboralar (kanselyarizmlar). Nutq tuzuvchi o‘z nutqining sofligi haqida qayg‘urar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo‘llashdan tiyilishi lozim.

Badiiy nutqda nutqning sofligi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy nutqda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta‘kidlash maqsadi bilan shevaga oid so‘z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma’rifiy saviyasiga urg‘u berish uchun o‘zbek tiliga kirib o‘zlashmagan chet so‘z va so‘z birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini bo‘ttirib ifodalash niyatida dag‘al va haqorat so‘z-iboralar, shaxsnинг hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko‘rsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, ya’ni. aytaylik, hildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytam, gap shundaki, qarang kabi o‘z ma’nosidan begona qilingan, ya’ni ishlamaydigan so‘z* va iboralar ishlatalishi mumkin. Ta‘kidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan

so'z va iboralar rasmiy uslubdagina qo'llanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish

maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatalishi o'rini bo'lmaydi. Ammo personajning madaniy-ma'naviy saviyasini kinoyaviy ta'kidlash maqsadida, ya'ni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qo'llanishi kuzatiladi.

Nutqning boyligi. Nutq ta'sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo'lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o'lchanadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan ochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo'limg'i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo'lsa, notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida o'rinn tutadi.

Nutqning boyligini ta'minlashda bir qancha til vositalari ishtirok etadi. Ular orasida leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida o'rinn tutadi. Boy, shirali nutq tuza bilishi uchun so'zlovchining, eng avvalo, so'z zaxirasi boy bo'limg'i kerak. Atoqli so'z san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq, rus shoiri A.S.Pushkinda 21 mingdan ortiq so'z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so'z boyligiga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o'z nutqining boy va ta'sirchan bo'lishini istaydigan har bir kishi o'z lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Nutqning boyligini ta'minlashda, ayniqsa, ma'nodoshlilik katta imkoniyatiga ega. Ma'nodoshlilik, ma'lumki, faqat so'zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik birliklar doirasida ham keng tarqalgan. Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yo'llaridan biri ayni shu ma'nodoshlilik asosida bir xil birliklarni almashtirishdir. Tilimizdagi sodda va qo'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qoliplari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlalar boy nutq tuzish uchun cheksiz imkoniyatdir. Bularidan xabardor kishining nutqi tarkib nuqtayi nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumlalardan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi.

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo'llanadigan takrorlardan farqlash lozim.

Ko'proq badiiy va publisistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta'kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Masalan, quyidagi she'riy parchada buni ko'rish mumkin:

*Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.*

Yurt bu kun ohuday xo'p ishvakordir,

Sir kabi seraydir, Pomirday poydor.

(A.Oripov)

Nutqning jo'yayiligi. Nutq tuzishdan oldin bu nutqning jo'yasini – munosib o'mini tasavvur qilish kerak. Har qanday nutq ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mazmuni, tinglovihi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og'zaki ekanligi, nutq vaziyatiga to'la mos kelishi zarur, jo'yalilik sifati shu asosda yuzaga keladi. Til vositalarini tanlashda shu jihatlar inobatga olinishi zarur. Masalan, yaqin kishisini yo'qotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma'lum. Shunday odamdan ko'ngil so'rash, unga ta'ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda «o'lmoq» ma'nosini ifodalash uchun aynan o'lmoq so'zini tanlash o'rinni emas, bu so'z so'zlovchi va tinglovochi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning jo'yalilikini ta'minlash maqsadida mazkur so'zning vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq kabi «yumshoqroq» muqobilari qollanadi. Kichkintoylar nutqida, masalan, "Soglikda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!" kabi iboralar jo'yalilik sifatidan mahrum bo'ladi, chunki ular bola nutqi uchun mutlaqo xos emas. Bunday jumlalar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki "Bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi" gapida minnatdorchilik bildirmoq iborasi nojo'ya qo'llangan, shuning uchun bu nutqni jo'yali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda jo'yalilik sifati rag'batlantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari borligini Siz yaxshi bilasiz. Bir uslubga xoslangan so'z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o'tkazilishi nojoiz, o'rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning jo'yaliliği buzilishi mumkin. Bu o'rinda aytish kerakki, jo'yalilik sifatini o'rganishda nutqning yozma va og'zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida jo'yalilik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, yozma va og'zaki nutqning voqe bo'lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko'ra bu ikki nutq shaklining o'ziga xoslangan birlıkları, grammatic shakllari, sintaktik qolipiari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning jo'yaliligiga putur yetadi. Albatta, badiiy nutqda jo'yalilik o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Nutqning ifodaliligi. Nutq tinglovochi yoki o'quvchiga jiddiy ta'sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunun diqqatni o'ziga jaib qila oladigan bo'lishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib bo'lgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin.

Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to'la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi. Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog'ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e'tibor qilinsa, ilmiy uslubda o'rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo'ladi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir.

Tilda ifodalilikni ta'minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birlıklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so'z xazinasi, morfologik shakllari, sintaktik birlıklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor bo'lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiyalmaydi.

Tilning so'z xazinasi nutqiy ifodalilikning o'ziga xos assosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug'at boyligidagi so'zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko'rindi. Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obraslilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, *kutmagan so'zi yetti uqlab tushiga kirmagan* iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ancha ustun. Yana qiyoslang: *o'takegan - uchiga chiqqan; beqiyos (juda) – yer bilan osmoncha; albatta – turgan gap; hech qachon – ikki dunyoda (ham); yashirin – yeng ichida*. **Frazeologik iboralar** o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obraslilik yorqin bir tarzda aks etadi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqeal-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obraslilik ifodalaridir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir. So'z san'atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalananadilar. Iboralarning asosiy qo'llanish o'rni, yashash joyi, asosan, badiiy uslubdir. Ilmiy va rasmiy uslublarda esa iboralar deyarli qo'llanmaydi.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha assosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsiyal-ekspressiv bo'yodkorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylilik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, anqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi bir necha turlari farqlanadi.

Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Masalan, *qozonning qulog'i* birikmasidagi *qulog* so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning qulog'iga o'xshashligi asosida yuzaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan. Metafora qanchalik yangi, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodalib bo'ladi. Mohir so'z ustalari

o‘z asarlarida so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llash orqali ifodali, obrazli nutqning go‘zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misolda buni ko‘rish mumkin: *Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini ko‘rsang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor.* (Iqbol Mirzo) Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ko‘chma – metaforik ma’noda qo‘llangan.

Metonimiya narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishidir. Masalan, *Dasturxonga qarang!* jumlasidagi *dasturxon* so‘zi metonimik qo‘llangan. Yozuvchining mahorati bilan badiiy nutqdagi metonimiya tufayli yuzaga kelgan ifodalilikka e’tibor bering: *Bu yerga termulib parishon dunyo, To‘g‘rilab oladi qo‘lda soatin.* (A. Oripov)

Sinekdoxa narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi butun-bo‘lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko‘chirishdir. Masalan, *Bu kishi tirnoqqa zo‘r* jumlasidagi *tirnoq* so‘zi sinekdoxa yo‘li bilan «farzand» ma’nosida qo‘llangan. Nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o‘rin tutadi. Bunda so‘z yoki ibora o‘z ma’nosiga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘chma ma’noda ishlatalidi.

Kinoya so‘zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalardan bo‘lganligi uchun ham so‘z yoki iboraning to‘g‘ri ma’nosiga zid, ya‘ni inkor, emotsiyonal-ekspresiv bo‘yoqli ma’no vogelanadi. Bunday kinoyaviy ma’noning vogelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o‘ynaydi. Masalan, *Bugun jug‘rofiya o‘qituvchisi darsga kelmadi. Xomtok qilaman deb so‘ridan yiqilib, oyog‘ini sindiribdi.* Ajoyib «xushxabar»dan keyin bir zumda sinf bo‘shadi-qoldi (Said Ahmad) parchasida xushxbabar so‘zi «shumxabar» tarzidagi kinoyaviy ma’noda qo‘llangan. Kinoyada so‘z yoki iboraning tildagi ma’nosi bilan nutqda reallashgan ko‘chma ma’nosi o‘rtasidagi zidlik kuchli ta‘kid oladi va shunga ko‘ra birdaniga diqqatni jalb etadi.

O‘xhatishlar nutqda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta‘minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi. O‘xhatishlar to‘rt unsurdan tarkib topadi, ya‘ni: 1) o‘xhatiladigan narsa (yoki subyekt); 2) o‘xhatish etaloni; 3) o‘xhatish asosi; 4) o‘xhatishning shakliy ko‘rsatkichi. Masalan, *Yigit musichadek beozor ekan o‘xhatishida yigit o‘xhatiladigan narsa, musicha o‘xhatish etaloni, beozor o‘xhatish asosi, -dek qo‘shimchasi esa o‘xhatishning shakliy ko‘rsatkichidir.* O‘xhatishlarning ikki turi farqlanadi: 1) erkin o‘xhatishlar; 2) turg‘un (doimiy) o‘xhatishlar. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o‘xhatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zining badiiy tasvir maqsadiga muvofig ravishda xilma-xil original o‘xhatishlar yaratadi, bu o‘xhatishlar kutilmaganligi, ohrliliqi bilan o‘quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan, *Miryogub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvozlikopiday ura boshladi* (Cho‘lpon) gapidagi o‘xhatish – yozuvchining o‘z ijodi mahsuli. Mana bu o‘xhatishlar ham erkin badiiy o‘xhatishlardir: *Maydalab*

o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay ko'ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (Ismoil To'lak). Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida ursga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor frazeologik birliklar kabi nutqqa olib kirladi. Masalan, *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum* (Cho'lpon); *Bolalari qo'rqqanlaridan baqadek qotib qolishdi* (M.Nizanov) gaplaridagi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlardir. Turg'un o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rinn tutadi.



Mavzuga oid savollar

1. Til vositalarini ifoda maqsadiga to'la muvofiq tarzda tanlash asosida nutqning qaysi kommunikativ sifati yuzaga chiqadi?
2. Nutqning to'g'riliqi sifatini ta'minlashda nimalarni hisobga olish lozim?
3. Jo'yalilikni ta'minlashda sinonimlardan qanday foydalaniлади?
4. Nutqning ifodalilik sifati tilga xos qaysi vazifani butun ko'lami bilan namoyon etadi?
5. Ko'chma ma'no va emotsiyonal-ekspressiv bo'yoq haqida nimalarni bilasiz? Ko'chimlarning qanday turlarini bilasiz?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Matnni o'qing. Unda *kapalak* so'zining 7 marta takrorlanishi natijasida nutqning leksik boyligi zarar ko'rganligi haqida fikrlashing.

Kapalaklami aytmaysizmi? Bir-birini quvlab guldan gulga qo'nayotgan kapalaklarga mahliyo bo'lmay ilojing yo'q. Bularning hammasi O'tkirim butunlay sehrlab qo'ydi. O'tkir o'rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyligi kapalakka ko'zi tushib qoldi. Buncha chiroyligi uchmasa. O'tkir kapalakni ushlamoqchi bo'ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib ushladim deganda, kapalak ko'z ochib yunguncha boshqa gul ustida paydo bo'lardi. O'tkir kapalakning orqasidan quvlab charchadi, ko'p ovora bo'ldi. Axiyri, kapalakni ko'zdan yo'qotib qo'ydi. (A.Sodiqov. «Tog'da» hikoyasi)

№2. Matnlarni o'qing. Leksik, sintaktik va intonatsion takrorning matn mazmunini ta'kidlashdagi o'rnini izohlang. Takrorning nutq boyligiga ta'sirini baholang.

1. Bir mahal tungi osmondagisi bulutlar supurilib, ozod-ozod to'lin oy samoda nur sochdi. Bir malak bor edi, kelin bo'ldi, bir jayron bor edi, qafasga tushdi, bir qiz bor edi, turmush ostonasiga shu tariqa qadam qo'ydi. 2. Farzand ko'rgach, Ra'no, haqiqatan ham, gul-gul ochildi. Qizlik go'zalligi bu tarovat oldida hech

nima bo‘lmay qoldi. Gul edi, xudoning qudrati bilan oqi oqqa, qizili qizilga ajraldi. Chechak edi, barq urib ochildi. Bulut edi, yomg‘irini ayamay to‘kdi. Quyosh edi, harorat-la porladi. Oy edi, to‘lishdi. Kecha edi, bag‘ri yulduzga to‘ldi. Qush edi, jo‘shib-jo‘shib sayradi. Zilol edi, sharqirab oqdi. (*Isajon Sulton*)

№3. Matnni ko‘chiring. Nutqning boyligini ta’minlayotgan ma’nodosh so‘z va iboralarni aniqlang.

Amir bo‘lamiz – ko‘ngli ochiq, qo‘li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi yigit. U menga juda mehribon, «bolajonim»lab boshiga ko‘taradi. Qisqasi, xudo bergenini birodarlarli bilan bo‘lishadigan hotamtoy, muruvvatli inson. Uning tog‘amizga nisbatan ham kek-g‘arazini sezmaganman, hamisha bag‘rini oolib muomala qiladi. To‘g‘ri, andak kinoya aralash, andak piching-u istehzo bilan. Ammo bunga ham tog‘amizning o‘zi aybdor. Sababi menga qorong‘i bu ziddiyat tog‘a-jiyanning o‘rtasida azaldan bor edi. Bu, tabiatan bir-birini xush ko‘rmaslik – iqi suymaslikmi yoki arzimas bir narsadan boshlangan bolalik arazining tobora chuqurlashib adovat chohida aylanganimi, ishqilib, men bilmayman. Bobomizning kenjatoy-erkatoyi xarxashayu janjal evaziga boshqalardan undirgan neki narsasi bo‘lsa, menga ilingani-ilingan edi, «o‘gay» jiyan – Amirga esa odatdagи yovqarashdan o‘zga hech vaqo yo‘q. (*Erkin A‘zam*)

№4. Kaykovusning «Qobusnom» asaridan olingan parchani o‘qing. Gapni o‘z joyini topib gapirishning foydasi haqida fikrlashing.

Tilingni yaxshi hunar bila o‘rgatg‘il va muloyim so‘zdin boshqa narsani odat qilmag‘il. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatg‘il, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamag‘ilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: «So‘z bir nash’adur, undan xumor paydo bo‘lur».

№5. Berilgan matnni o‘qing. Qaysi o‘rinda nutqning jo‘yaliligi buzilganini aniqlang.

- Kechirasiz, o‘zingizni tanishtirmadingiz.
- Asli farg‘onalikman. Ismim Kamola. Hozirda oilam bilan Toshkentda yashayman.
- O‘z tug‘ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...
- Albatta. O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l deganlari haq ekan. (*«Xonodon» gazetasi*)

№6. Berilgan misollarda adabiy til me‘yorlariga nomuvofiq qo‘llangan, ammo badiiy vazifa bajargan birliklarni izohlang va yozing.

1. Fuqarolar yig‘inlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda jamoatchilik komissiyalarining o‘rni sezilarli bo‘layapti. 2. Hademay bir-ikkita sovlig‘im qo‘zilaydi. Og‘iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin. (Sh.

Xolmirzayev) 3. Akalari izidan Samarqand borsa, «Ko'nglim shuni xohladi, borib atynglar otamga», – deb ularni qaytarib yuborgan ekan. (Erkin A'zam) 4. Yo'q, qorin janoblari to'qlar, ertalab baliq yegan edik, faqat choy bo'lsa kifoya, – dedi u kulib. (N. Aminov) 5. «Barakalla ota-o'g'il, bopladingiz!» O'g'li Hasanboyni bag'riga mahkam bosib, shunday deyishni diliga tukkan Ma'rufjon Hayitboyevni suhbata tortamiz. 6. Hammasi tinch, salom deb yuborishdi... – dedi Rahim Saidov masalaga qanday yondoshishni o'ylar ekan. (O'. Umarbekov) 7. Mahallada katta tayyorgarlik bilan o'tqazilgan tadbirda keksa-yu yosh faol ishtirok etdi. (Gazetadan) 8. Bo'sh vaqt bermas jarida ham noshirlikning ishi ko'p. (E. Vohidov) 9. Bahor kelishi bilan bog'larda ko'chat o'tkazish ishlari avj oldi. (Gazetadan) 10. Xalq tarixini o'rganishi lozim bo'lgan ilmgoh, asosan, Xolidiyining xiz matini o'tash bilan mashg'ul edi. (Tohir Malik)

№7. Alibek Rustamovning «So'z xususida so'z» asaridan olingen parchani o'qing. O'zbek tilida ma'nodoshlik hodisasining namoyon bo'lishiga diqqat qiling.

Havo harakatini bildiruvchi so'zlar *yel, bod, shamol, janub, sabo, dabur, dovul, shurta, esin, nasim, shabboda, tundbod, garmsel, samum, sarsar, iżg'irin, bo'ron, bo'rag'on, purga, to'fon, tayfun, urag'an yoki uragan, girdbod, quyun, uyurmadir*.

Shamol so'zining o'zi, aslida, shimoldan esgan yelni bildiradi. Lekin hozirgi o'zbek tilida bu so'z keng ma'noda qo'llanadi. Maxsus eski kitoblarda janubdan esgan yel *janub* deb ataladi, ammo bugungi o'zbekchada *janub* so'zi mazkur ma'noda butunlay ishlatalmaydi. G'arbdan esgan yel eski kitoblarda *dabur* deyilgan, ammo hozir bu so'z *dovul* shaklini olgan va vayronalik keltiradigan kuchli shamolni bildiradigan so'zga aylangan. *Sabo* so'zi she'rda ko'p ishlataligani uchun o'z shakli va ma'nosini o'zgartirmagan. Sharqdan esadigan yel *sabo* deb ataladi. Sabo – tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo bo'lishiga tongda ko'pincha Sharqdan yel esib turishi sabab bo'lgan. *Esin, nasim* va *shabboda* yoki shabada so'zları mayin yelni bildiradi. *Samum* va *garmsel* so'zları issiq shamolni, *sarsar, iżg'irin* yoki *iżg'iriq* sovuq shamolni bildiradi. Bir ishni qilayotganda kishiga yordamlashadigan, masalan, kemani kerakli tomonga suradigan yel *shurta* deb ataladi. *Bo'ron, buran, burya, purga* degan so'zlarning kelib chiqishi bir. Bular «bo'ron» ma'nosidagi bo'r o'zagidan yasalgan so'zlardir. Mazkur so'zlarning rus va o'zbek tillaridagi ma'nolari haqida gapiradigan bo'lsak, ruschada *buran* deganda, asosan, cho'l yoki dalada qishda yerdagi qorlarni to'zg'itadigan kuchli shamol tushuniladi. O'zbek tilida bu ma'noda *iżg'irin* yoki *iżg'iriq* so'zları qo'llanadi. O'zbek tilida *bo'ron* deganda, umuman, shiddatli shamol tushuniladi. Rus tilida bu ma'noda *burya* so'zi qo'llanadi. Amerika qit'asi atrofida bo'ladigan o'ta kuchli okean shamolini *urag'an* yoki *uragan*, janubi sharqdagi Tinch okeanning kuchli shamolini *tayfun* deb ataydilar. Yog'in, shamol va sel natijasida yer yuzini yoki uning katta qismini suv bossa, buni *to'fon* deyiladi. Tayfun bilan *to'fon* so'zlarining kelib chiqishi bir. Aylanma shamolga nisbatan o'zbek tilida *quyun, uyurma* va *girdbod* so'zları qo'llanadi.

Havoshunoslikda *siklon* deb havoning bulutlarni quyuqlashtiradigan aylanma harakatiga aytildi.

№8. Berilgan parchadagi *jamg'armoq* so‘zining o‘z ma’nosi va uning ko‘proq rasmiy uslubga xoslanganligi haqida mulohazalaringizni aytинг. Keltirilgan gapda bu so‘zning o‘z o‘rnini topgan-topmaganligini izohlashga harakat qiling.

Ramazon aytuvchilar ko‘payib ketgan edi... Mabodo ulardan oldinroq bирор eshikka borib qolsak, jamg‘argan narsalarimizni zo‘ravonlik bilan tortib olishardi. (*S. Ravshanov*)

№9. Ma’nodosh va paronim so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash bilan nutq aniqligiga putur yetgan o‘rinlarni aniqlang, ularni muvofiq muqobilari bilan almashtiring.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir og‘iz mujda yuborish shunchalar mushkul edimi? (*Murod Mansur*) 2. Boshqa shaxsning kechirmalarini tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (*M. Nasibullin*) 3. Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, yoqilg‘i kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (*Sh. Boshbekov*) 4. Juman bobo hamisha bitta gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o‘tqazib qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman. (*Said Ahmad*) 5. Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z qobiqlarini ochdi. (*M. Nasibullin*)

№10. Gaplarni o‘qing. Nutqning mantiqiyligi buzilgan o‘rinlarni toping va izohlang.

1. Boyqush qarg‘ish olgan, qadimdan qolgan shunday gap bor. U qaysi xonadonga qo‘nib, ovoz chiqsara, noxushlik alomatidan darak emish. (*S.Ravshanov*) 2. U nihoyatda ehtiyyot bo‘lib harakat qilayotganini uyqu elitgan ko‘zlar bilan sezdi. (*N. Jaloliddin*) 3. Qish. Yanvar havosi juda sovuq. Laylakqor hadeb savalagani-savalagan. (*S. Ravshanov*) 4. Odamlar nochorlikdan, yegani narsasi yo‘qligidan ro‘za tutib yurishibdi. (*S.Ravshanov*) 5. Ilm-fanda faraz qilish yoki o‘ylab chiqarishga o‘rin yo‘q. Fanning rivojlanishi faqat kashfiyotga bog‘liq. Fanda fikr bildirish, ishonaman deyish – bilmagan bilan barobar. (*Gazetadan*) 6. Hikoya va suhbatdan tashqari o‘zbek tilini yaxshi o‘rganish, unga qiziqishni uyg‘otish maqsadida til o‘rgatishga oid o‘yinlar, kichik-kichik she‘rlar, badantarbiya va ashulalar berib boriladi. (*S. Jo‘rayev*) 7. Imzoga qo‘l qo‘yish mahalida gurs etib yerga quladi. (*Gazetadan*) 8. Yugurib charchamaydigan chayir mashinasi dam tepalikka, aylanma yo‘llar osha dam pastlikka, kishining nigohi tushsa yuragi shig‘illab ketadigan jarliklar yoqasidan o‘tib, yana ko‘tarilib qolardi. 9. Qiya, aylanma yo‘llarda ko‘p yurganiga qaramay, yigit juda ehtiyyotkorlik bilan mashinani olib borardi. Qo‘llari, oyoqlari o‘ziga bo‘ysunmay, o‘z-o‘zidan harakatlanar, uni qayoqqadir olg‘a eltardi. (*M. Nasibullin*) 10. Uning yoqimli qiliqlari, ovozi eshitilib ketganday bo‘ladi. Ko‘zim o‘ngidan hadsiz odamlar o‘tdi.

Mavzuga oid testlar

1. So'zlovchi boy, shirali nutq tuza bilishi uchun uning, eng avvalo...
- A) ko'p tillarni mukammal o'rganishi zarur
B) so'z zahirasi ko'p bo'lishi zarur
C) nutq so'zlash mahoratiga ega bo'lishi zarur
D) tashqi ko'rinishi yoqimli bo'lishi zaur
- 2.A.Navoiy o'z asarlarida qancha so'z ishlatga?
- A) 26034 ta B) 21000 dan otiq C) 18000 D) 223460 ta so'z
- 3.Matnda so'z, so'z birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yo'llaridan biri
- A) ma'nodoshlik asosida bir xillikdan qochish
B) antonimlarni ko'p qo'llash
C) paronimlarni ko'p qo'llash
D) omonimlarni ko'p qo'llash
- 4.Yaqin kishisini yo'qotgan odamdan ko'ngil so'rash, unga ta'ziya bildirish uchun tuziladigan nutqda ishlatib bo'lmaydigan so'z berilgan qatorni toping.
- A) vafot etmoq B) o'lmoq C) bo'lmay qolmoq D) olamdan o'tmoq
- 5.Soglikda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz! Ushbu ko'rinishdagi gaplar qaysi qatlama nutqida uchramaydi?
- A) ishchilar B) ayollar C) erkaklar D) bolalar
- 6.Bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi gapida jo'yali qo'llanmagan so'zni toping.
- A) tarbiyachi B) bolalarni chaqirib
C) minnatdorchilik bildiradi D) jo'yalilik buzilmagan
- 7.Amir bo'lamiz – ko'ngli ochiq, qo'li ochiq, aksariyat savdo ahliga xos kirishimli, sal narsaga yon beruvchi yigit. U menga juda mehribon, bolajonim»lab boshiga ko'taradi. Qisqasi, Xudo bergenini birodarlarli bilan bo'lishadigan hotamtoy, muruvvatli inson. Uning tog'amizga nisbatan ham kek-g'arazini sezmag'anman, hamisha bag'rini ochib muomala qiladi. Ushbu matndagi ma'nodoshlik qaysi so'z turkumi doirasida yuz bergan?
- A) ot B) sifat C) fe'l D) ravish
- 8.Yomon niyat bilan deyarli aybi yo'q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq ma'nosini beruvchi ibora qo'llangan qatorni toping.
- A) qildan qiyiq axtarmoq B) yer tagida ilon qimirlasa bilmuoq
C) yog' tushsa yalaguday D) jon-jonidan o'tmoq
9. Yetti uxlab tushiga kirmagan iborasi bilan ma'nodosh bo'lgan iborani toping.
- A) ko'nglining ko'chasi B) xayolining ko'chasiga kelmagan
C) tuyaning dum'i yega tekkanda D) lom-lim demaslik
10.turmushdagi turli voqe'a-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilmal-xil harakat-holatlariiga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarining o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Nuqtalar o'rmini to'ldiring.
- A) iboralar B) tasviriy ifodalar C) sinonimlar D) ko'p ma'noli so'zlar

Uy ishi

Ardoqli adib O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olingan matnni o'qing. Badiiy maqsad bilan qo'llangan leksik, grammatik va intonatsion takrorning nutq boyligini ta'minlashdagi o'rniغا diqqat qiling.

Chegara

Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko'ra sholg'om eksa, qozoniga tushadi-ku.

Odamzod nima uchun bulbul chax-chaxini eshitganda entikib ketadi? Undan ko'ra bulbulni sho'rvaga solib pishirsa, nafsin qondiradi-ku.

Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlamni ko'rib, ko'ngli zavqqa to'ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku!

Odamzod nima uchun kitob o'qiyotib, suyukli qahramoni o'lib qolsa, yig'laydi? Uni yozuvchi «ichidan to 'qib chiqargani»ni biladi-ku!

Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go'dak alla eshitmasa, uxmlamaydimi?

Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o'tib ketgan bobosining qabrini ziyyorat qiladi? Marhum ularni ko'rmaydi-ku!

Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi Ma'naviyat deb ataladi!



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Tengdoshlaringizni, atrofingizdagи insonlarni kuzating. Turli vaziyatlarda, turli shaxslar bilan munosabatlarda namoyon bo'layotgan nutq ko'rinishlarini tasmaga yozib oling, so'ngra daftaringizga matn shaklida tushiring. Tayyorlagan materiallaringizda nutqning xususiyatlari qaytarzda namoyon bo'layotgani haqida xulosalar chiqaring.



13-MAVZU. MATN VA UNING KO'RINISHLARI.

Reja:

1. Matn haqida umumiy tushuncha.
2. Matnning hajmiga ko'ra turlari.
3. Matning uslubiy xususiyatiga ko'ra turlari.
4. Matnning maqsadiga ko'ra turlari.

Tayanch so'z va iboralar: matn, mikro va makro matn, ilmiy-ommabop matn, matn tuzilishi, matn elementlari.

O'zaro va tarkiban bog'langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og'zaki shakldagi yaxlit birlik *matn* sanaladi. Matn tuzuvchi muayyan voqe-

hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish, ularni tasvirlash yoki ular haqida muhokama yuritish kabi maqsadlarni ko'zda tutishi mumkin

Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi.

Matn – nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmalni nutqiy asar.

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1.Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari. 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

Hajm belgisiga ko'ra matn turlari. Matn gapdan ko'ra yirik hajmi aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Mikromatn** (minimal) va **makromatn** (maksimal) matn.

Mikromatnga quyida bir necha misollarni ko'rib chiqamiz:

Atomning tuzilishi

Tabiatda hamma narsa moddalardan tashkil topgan. *Modda* – bu ma'lum bir agregat holatdagi atom va molekulalar majmuasidan iboratdir. Moddalar *oddiy* va *murakkab* bo'ladi. Oddiy moddalar tarkibiga faqat bir elementning atomi kiradi. Murakkab modda yoki kimyoiy birikma bir qancha elementlar atomlaridan iborat bo'ladi.

Elektron qobiq

Elektronlarning yadro tevaragida aylanishi paytida o'zida tutib turadigan energiyasiga bog'liq holda elektronlar u yoki bu elektron orbitada to'planadi. Boshqacha qilib aytganda, elektron orbita daraja yoki qavat ham deb ataladi.

Mikroblarning metallurgiyada qo'llanishi

Ba'zi mikroblar metallarni eritish xususiyatiga ega. Bundan eski, rudasi kam, tashlandiq konlardan metall olishda foydalilanildi. Lekin bunday mikroblar – temir bakteriyalari – temirni yemirib, zarar ham yetkazadilar. (Xarkov, Kiyev metropolitenlarida – temir konstruksiyalarini buzishgan)


Mikroblar temirni eritibgina qolmay, ishlab chiqarishi ham mumkin.

Matn – struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi

yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Makromatn (maksimal) matn deyilganda keng ko‘lamdag‘i voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Makomatn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga to‘g‘ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so‘zboshi (muqaddima), so‘ngso‘z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g‘oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritishiga oid ayrim masalalarga qo‘s himcha izoh, sharh bo‘lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo‘ladi.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq ko‘rshimiz mumkin:



Makromatnning eng kichik birligi abzasdir. Abzas bir mazmuniy butunlik bo‘lib, «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo‘lgan qismi» hisoblanadi. Abzas **qisqa xabar** (abzasda aytilmoxchi bo‘lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), **oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog‘lovchi vositalar** (bog‘lovchi vositalar abzasni o‘zidan oldingi abzasga bog‘laydi, shuningdek, abzas ichidagi xabar jumlalarini bir-biriga bog‘laydi), **xabarning to‘ldirilishi** (dastlabki xabar to‘ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va **xulosa** (xabar yakunlanadi, natija aytildi) qismlarni o‘z ichiga oladigan butunlikdir.

Matn **uslubiy mohiyatiga ko‘ra ilmiy matn** (tezis, maqola, ma’ruza, annotatsiya, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy va nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma’lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Matnning **maqsadiga ko‘ra** quyidagi turlari farqlanadi: 1) hikoya matni; 2) tasviriy matn; 3) muhokama matni.

Muayyan voqe-a-hodisa yoki narsa, shaxsniga tasvirlash, tavsifash, ta’rifash maqsadida tuzilgan matn **hikoya matni** sanaladi. Hikoya matni ko‘proq so‘zlashuv va badiiy asarlarda qo‘llanadi.

Muayyan voqe-a-hodisa yoki narsa, shaxsniga tasvirlash, tavsifash, ta’rifash maqsadida tuzilgan matn **tasviriy matn** sanaladi. Tasviriy matn so‘zlashuv, badiiy asarlarda qo‘llanadi.

Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida muhokama yuritish, mulohaza bildirish maqsadida tuzilgan matn **muhokama matni** sanaladi. Muhokama matni ko'proq ilmiy asarlarda, shuningdek, badiiy, so'zlashuv va boshqa nutq shakllarida qo'llanadi.

Matn tarkibidagi gaplar tuzilishiga ko'ra sodda ham, qo'shma ham bo'laverishi mumkin. Ular mazmunan va mantiqan bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Muayyan so'z va grammatik shakllar bu bog'lanishni ko'rsatib turadi.

Mavzuga oid savollar

1. Matn so'ziga ta'rif bering.
2. Hajm belgisiga ko'ra matn qanday turlarga bo'linadi?
3. Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Matnning maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
5. Kontekst deb nimaga aytildi?

Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Matnlarni o'qing. Mulohaza qiling, yozuvchining falsafiy fikrlarini sharhlashga harakat qiling. Matnlarning hajmiga ko'ra turini aniqlang.

Tabiat gultoji

Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Amma bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko'ngil hushi uchun sherni ham o'ldiradi... Keyin.. urush qilib, bir-birining boshini yeydi...

Darvinga e'tiroz

Darvin ta'limoti noto'g'ri. Odam maymundan emas, maymun odamdan tarqagan. Oyog'i yerdan uzilmaganlar odam bo'lib qolgan. Oyog'l yerdan uzilganlar esa maymun bo'lib daraxtga chiqib ketgan... Bu jarayon hamon davom etmoqda...

Eng aqlii jonivor

Dunyoda eng aqlii jonivor – baliq! Birinchidan, soqov. Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi!

Qaldirg'och

E'tibor bergenmisiz: qaldirg'ochlar fays siz, noahil xonadonga hech qachon in qurmaydi.

Goho qaldirg'och odamdan aqlli oqimikin, deb o'y lab qolaman.

Donishmand

Nar lochin yemish topib kelarkan. Moda lochin o'ljani polaponlariga bo'lashib berarkan. Biron falokat bo'lib, moda lochin o'lib qolsa, nar lochin har qancha yemish topib keltirmasini, baribir, polaponlar ochidan nobud bo'lar ekan. Negaki, nar lochin o'ljani bolalariga burdalab berishni eplolmas ekan...

Tabiat naqadar beshfqat, tabiat naqadar dono!

№2.O‘qing. Matning hajmiga ko‘ra turini aniqlang.

Respublikamizda uzlusiz ta’lim tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi chuqur bilimli, yuksak ma’naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mehmondo’st, mehnatsevar, bolajon xalqimizga mos bo‘lgan sofdil, mard va dovyurak, dono yoshlar kelajak poydevoridir.

№3. Matning uslubiy mohiyatiga ko‘ra turini aniqlang. Sohaga oid atamalarni ajratib yozing va izohlang.

Exinokokkoz

Exinokokkoz antropozoonoz kasallik bo‘lib, u bilan qishloq xo‘jaligi, yovvoyi, ov qilinadigan hayvonlar, odamlar kasallanadi hamda ular parazitning oraliq xo‘jayini hisoblanadi.

Exinokokkning voyaga yetgan shakli it, bo‘ri, shoqol, ba’zan tulkilarning ingichka ichagida parazitlik qiladi. Kasallik hamma joyda keng tarqalgan.

Qo‘zg‘atuvchisi. Kasallikni *Taeniata* kenja turkumi *Taeniidae* oиласига mansub sestoda lichinkalari – *Echinococcus granulosus* larvae kasallikni qo‘zg‘atadi.

Voyaga yetgan exinokokk tanasining uzunligi 2-6 mm. Boshida yopishadigan 4 ta so‘rg‘ichi bor. Xartumchasi juda yaxshi rivojlangan bo‘lib, unda ikki qator ilmoqlar joylashgan. Bo‘yin qismi 1-2 bo‘g‘indan, strobillasi 2-3 bo‘g‘indan tashkil topgan. Bo‘g‘inlar shakli va kattaligi har xil. Oxiridan bitta oldingi bo‘g‘in *germafrodit*, oxirgi bo‘g‘in esa *yetilgan bo‘g‘in* deyiladi va barcha bo‘g‘imlardan uzun bo‘ladi. Yetilgan bo‘g‘in bachadonida 800 tagacha tuxum bo‘ladi.

№4. Matning hajmiga ko‘ra tirini aniqlang. Sohaga oid atamalarga e’tibor bering.

Viruslarning paydo bo‘lishi

Bir guruh olimlarning fikricha, viruslar qadimgi hujayra shakliga ega bo‘lmagan tirik parazit sistemasining turkumi bo‘lib, faoliyatি bo‘yicha xo‘jayin hujayrasи bilan bog‘liq, ammo mustaqil holda rivojlanuvchi va irsiy jihatdan xo‘jayin hujayrasidan alohida bo‘lgan organizmdir. Ularda turli xil nuklein kislotalarining bo‘lishi, yo‘q bo‘lib ketgan hujayralargacha bo‘lgan bir ipli RNKning ikki ipli DNKga aylanishi evolutsiyasidir.

Ikkинчи guruh tarafdarlari viruslar evolutsiya jarayonida oqsil sintez qiluvchi sistemani yo‘qtgan va haqiqiy hujayra ichidagi parazitga aylanib qolgan degan fikrdalar.

Uchunchi guruh olimlarning fikricha, viruslar hujayra elementlaridan hosil bo‘lib, avtonom sistemaga aylanib qolgan. Bu gipotezaga ko‘ra, viruslarning irsiy materiali xilma-xil, bundan tashqari hujayra tarkibidagi ko‘pgina tuzilmalar bo‘lib, ular virus komponentlariga qardosh bo‘lishi mumkin. Masalan: DNK, RNK, plazmidalar va boshqalar.

Hozirgi tushunchaga muvofiq viruslar tuzilishi, kimyoviy tarkibi, irsiy apparatiga ko‘ra prokoriot va eukariotlardan farq qiladi. Ammo barcha tirik sistema kabi ular o‘z-o‘zidan hosil bo‘lish, o‘zgaruvchanlik, irsiy materiallarni

o'tkazish, xo'jayin hujayrasi bilan o'zaro munosabatining o'ziga xosligi, yashash muhitiga moslashishi, xo'jayinni o'zgartirib, tabiatda aylanib yurish xususiyatiga ega.

№5. Matnni o'qing, Gaplardagi nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring. Nega aynan shu so'zni tanlaganeningizni izohlang. Hajmi va uslubiy xususiyatiga ko'ra turini aniqlang.

Chumchuqdek keladigan kichkina, kulrang ... (sayroqi, o'ynoqi, vaysaqi) qush bulbul deb ataladi. ... (Ko'hna, Eski, Qadimgi) turkiy tilimizda sandulach ham ... (gapirladi, aytildi, deyiladi). Bulbulning... (nolasni, sadosi, xirgoyisi)ni sevib tinglashadi. Kuylari qalbda allaqanday... (dahshatli, yoqimli, tantanavor) hislarni uyg'otadi.

№6. Atoqli yozuvchi O'. Hoshimovning quyidagi gapini muhokama qiling va og'zaki matn tuzing. Matnda qo'shma gaplardan foydalaning.

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!

№7. Matnni o'qing. Unda ifodalangan fikr haqida mulohazalaringizni bayon qiling. Matnning maqsadga ko'ra turini aniqlang.

Charxpalak

Maktabimiz biqinida ariq oqardi. Ariqda charxpalak bor edi. Katta tanaffusda charxpalakni tomosha qilishni yaxshi ko'rardim... Yog'och gardishi ko'hna. Temir paqirchalari zanglab ketgan. Parraklariga ko'kimtir suv o'tlari yopishgan... Birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek... Charxpalak nolali g'iyyillab aylanadi. Kaftida suv ko'tarib, yuqoriga olib chiqadi... Tepaga chiqib olgan suv ortiga qaytmaydi...

Charxpalak ham bunga ranjimaydi. Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi... Nolali g'iyyillaydi...

Oradan ko'p yillar o'tib, o'sha charxpalak tushlarimga kiradigan bo'ldi. Nega shunday bo'lganini uzoq o'yladim...

So'ng... Bir haqiqatni angladim. Men charxpalakni emas, ustozlarimni qo'msar ekanman.

Suv suv emas, men ekanman! Charxpalak charxpalak emas, o'qituvchilarim ekan!

Meni – bir tomchi suvni katta hayot yo'liga olib chiqib qo'ygan ustozlarim – charxpalak zahmatini oqlay oldimmikan?.. Bilmadim.

... Ko'hna charxpalak hamon tushlarimga kiradi...

№8. Matnni o'qing. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridani olingan parchani o'qing. Adib fikrlarining ahamiyatini bugungi kun bilan bog'lab izohlang.

BADAN TARBIYASI

Badanning salomat va quvvatli bo'lmosi insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik,

kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'Imagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidur. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo'lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do'xturga boqizmak kerak.

Imom Shofe'i hazratlari: «Ilm ikki xildur: biri badan ilmi, ikkinchi din ilmi», – demishlar. Bunga qaraganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, alomatlikga ters bo'lgan narsalardan saqlanmak ila bo'ladur.

Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatlikig'a zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram salollohu alayhi vasallam afandimiz: «Har narsa ko'p ichganda mast qiladurgan bo'lsa, man sizni aning ozginasidan ham nahy qilaman», – demishlar.

№9. Matnni o'qing. Mirzakalon Ismoiliyning madaniyatilik va nutq madaniyati o'rtasidagi aloqadorlik haqida fikrlarini muhokama qiling va o'z fikrlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Gap madaniyat yoki madaniylik ustida borganda, hozirgi ba'zi yoshlarning bema'ni bir asovligi haqida gapirmasdan bo'lmaydi. Odamning o'z ona tiliga bo'lgan mehr-u muhabbati va hurmati, o'z tilini qanchalik bilish-bilmasligi undagi madaniylik darajasiga o'Ichovdir. Madaniyatning tom mohiyatini tushungan, ya'ni madaniylik qonun-qoidalari tanasiga singib ketgan har bir odam o'zi gapirgan tilning sofligi, tantanasi uchun hamma vaqt jon kuydiradi. Bunday odam ruscha gapirayotganda, rus tilining, o'zbekcha gapirayotganda, o'zbek tilining sofligini saqlaydi. Madaniyatning nima ekanini anglamagan, o'z ona tilini qadrlamagan saviyasi past odamgina ruscha gapirib turib o'zbekcha so'zlarni, o'zbekcha gapirib turib ruscha so'zlarni aralashtiradi. Bu esa har ikkala tilni buzish, ikkala tilning yuziga oyoq bosishdan boshqa narsa emas!

Mazkur tillarda har qanday fikr va mulohazani juda chiroyli qilib bildirish, har qanday lavha va manzarani odam hushini oladigan qilib tasvirlash mumkin.

Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmayan yo toza gapireshni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb bo'lmaydi. Gapning qisqasi, madaniyatli bo'lish uchun odamga faqat bilim, kiyim, taqinchoq, yaxshi ro'zg'orning o'zигина kifoya emas, shular bilan birga shirinso'zlik, tozalik, saranjomlik, og'irlik, halollik va, eng muhimmi, o'z ona tiliga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat ham zarurdir.

№10. "Sharq hikmatlaridan" olingen ushbu parcha asosida muhokama matni yaratating.

Kishida odob bo'lsa, ilm ham bo'lishi lozim. Odob shunday tojki, u aqlli, farosatli odamlar boshini bezaydi. Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amenti quvadi. Ilm bir daraxt, odob esa uning mevasidir. Odob ulug'lik va yuksaklik qasrinig narvonidir, shuning uchun u orgali barcha maqsad va manzillarga yetish mumkin. Qaysi yerda ilm-u ma'rifat kuchli bo'lsa, o'sha yer baxt maskanidir.

Mavzuga oid testlar

1. «Matnning lingvistik tahlili» asari muallifi kim?
A) A.Qilichev B) I.Pavlov C) V.Tomsen D) R.Galperin
2. Matn hajmiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
A) makromatn va mikromatn B) ilmiy va badiiy
B) rasmiy va publitsistik D) rivoya va muhokama matn
3. ... – bu bir leksik yoki grammatik birlilik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi.
Nuqtalar o'rnnini to'ldiring.
A) kontekst B) havola C) sitata D) matn
4. Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
A) makromatn va mikromatn B) ilmiy, rasmiy, ommabop va badiiy
C) rasmiy va publitsistik D) rivoya va muhokama matn
5. O'zaro va tarkiban bog'langan gaplar ketma-ketligidan iborat yozma yoki og'zaki shakldagi yaxlit birlik ... sanaladi.
A) kontekst B) havola C) sitata D) matn
6. Muayyan voqe-a-hodisa yoki narsa, shaxsni tasvirlash, tavsifash, ta'rifash maqsadida tuzilgan matn ... sanaladi.
A) tasviriy matn B) hikoya matni
C) muhokama matni D) og'zaki va yozma
7. Muayyan voqe-a-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish maqsadida tuzilgan matn ... sanaladi.
A) hikoya matni B) tasviriy matn
C) muhokama matni D) og'zaki va yozma
8. Muayyan voqe-a-hodisa yoki narsa, shaxs haqida muhokama yuritish, mulohaza bildirish maqsadida tuzilgan matn ... sanaladi.
A) hikoya matni B) tasviriy matn
C) muhokama matni D) og'zaki va yozma
9. Nutq ... shakllarda namoyon bo'ladi?
A) hikoya matni B) tasviriy matn
C) muhokama matni D) og'zaki va yozma
10. Matnning kirish qismi mavzuning necha foizini tashkil etishi kerak?
A) 20 B) 30 C) 10 D) 50

Uy ishi

Berilgan matn bilan tanishing. Matnni turli jihatlariga ko'ra tavsiflang.

Qoramollarning sistiserkozi (finnoz)

Qoramollar sistiserkozini *Taeniidae* oilasiga kiruvchi, odamning ingichka ichagida parazitlik qilib yashaydigan sestoda – *Taeniarhynchus saginatus*ning lichinkasi *Cysticercus bovis* chaqiradi.

Sistiserkoz bilan, asosan, hayvonlarning muskul to'qimalari, ko'pincha til, jag', bo'yin, qovurg'alararo va yurak muskullari zararlanadi.

Sistiserkoz xo'jalikka ko'pgina iqtisodiy zarar keltiradi.

Sistiserkoz bilan yengil zararlangan mol go'shtining sifati pasayadi, chunki u faqatgina zararsizlantirilganidan keyingina shartli sog' go'sht sifatida iste'mol etishga ruxsat etiladi. Agar mol kuchli zararlansa, go'shti yo'qotiladi.


Qo'zg'atuvchisi. Qurollamagan zanjirlilar qoramol solityorining lichinkalik davri – sistiserk (*Cysticercus bovis*) yupqa pardali, kattaligi no'xatdek keladigan pufakchadan iborat, uzunligi 5-15 mm, eni 3-8 mm, uning ichida rangsiz suyuqlik va parazitining boshchasi (skoleksi) bor. Sistiserk tashqi tomondan biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan parda bilan o'ralgan. Undan kelgusida lentasimon sestoda – *Theniarhynshus saginatus* rivojlanadi. Jinsiy voyaga yetgan *T.saginatus*ning uzunligi 10 metr va undan ko'p, eni 12-14 mm. Skoleksi qurollamagan, yirik, eni 1,5-2,0 mm.

Qo'zg'atuvchisining rivojlanishi. Qoramol solityorining rivojlanishi xo'jayin almashishi bilan kechadi. Qo'zg'atuvchining voyaga yetgan shakli faqat odamning ingichka ichagida yashaydi. Sestodaning oxirgi bo'g'lnlari bittadan uilib, bemorning anal teshigidan harakatlanib yoki axlati bilan birga tashqariga chiqadi. Bitta bo'g'inda 145-175 mingtagacha tuxumlar bo'ladi. Tuxum ichida embrional taraqqiyot jarayoni natijasida olti ilmoqli embrion – onkosfera rivojlanadi. Onkosfera parazitning oraliq xo'jayini uchun invazion qobiliyatga ega.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi "Pog'ona" usulidan foydalanib, jadvalni shakllantiring va mavzuga oid ma'ruza ma'lumotlari asosida to'ldiring.





14-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.

Reja

1. Hujjatchilik tarixi haqida.
2. Ish yiritish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar.
3. Ish yuritish hujjatlarining qo‘llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko‘ra turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: hujjat, tasniflash, hujjat rekvizitlari, rasmiylik, hujjatchilik, hujjatlashtirish, zaruriy qismlari, lisoniy talablar, qoliplashgan birikmalar.

Ish yuritishning asosini bevosita hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzlusiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo‘lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq bu jamiyat a‘zolari o‘zaro munosabatlardagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat’iy qayd etib borishga ehtiyojga sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibridoij hujjatlar yuzaga kelgan.

Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094-yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan tartibot vositalarining nechog‘li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlaming almashinishi, aniqrog‘i, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillashishi barobarida hujjatlar ham takomil topib brogan.

Sharqda X-XIX asrlarda *yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznomalar, vasiqa, tilxat* yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri «*patta*»lardir.

Oktabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o‘zining istibbdot yo‘rig‘iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo‘riq sirtmog‘idan chetda qolmadi. Mohiyatan o‘ta g‘irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqeyi pasayib bordi. Turkiston o‘lkasining 1918-yildagi Asosiy qonunida o‘zbek va rus tillari davlat tili deb e’lon qilingan. Holbuki o‘sha davrdagi o‘lka nufusining 37 foizini o‘zbeklar, 35 foizini qirg‘izlar (qozoqlar bilan birga), 17 foizini tojiklar va atigi 7 foizinigina ruslar tashkil etar edi. Bu hol hisobga olinsa, davlat tilini belgilashdagji mantiqining sog‘lom emasligini aniq ko‘rish mumkin. Tabiiyki, rasman o‘zbek va rus tillari davlat tili deb e’lon qilingan bo‘lsa-da, amalda idoraviy ish yuritish rus tilida olib borilavergan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi.

Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayni paytda, hujjatlar matnini tuzish boshqaruv apparati faoliyatidagi eng sermehnat va sermashaqqat jarayondir. Bu jarayonning oqilonaligi va samaradorligini oshirmsandan turib, umumiy boshqaruv madaniyatini yuksaltirib bo'lmaydi. Jamiyat hayoti barcha jabhalarining jadal rivoji esa boshqaruv madaniyatining darajasiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar har qanday zaruriy axborotni rasmiy – ish tilining tegishli shakllarida bemalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish malakalarini puxta egallagan bo'lishi zarur.

O'zbek hujjatchilagini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o'zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlar va qoidalarini ma'lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo'lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo'nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo'lmaydi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o'z ish vaqtlanining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Mazkur xodimlar o'zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo'limsa, ish vaqtlanining 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham ijobji natijaga erishish qiyin.

Ish hujjatlarida har doim rasmiylik ma'nosi ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo'lgan so'zlar va qoliplashgan barqaror iboralar qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllar (qurilmalar) hujjatlar tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, "muhokama qilindi", "zimmasiga yuklansin", "qaroriga muvofiq ravishda", "ma'lumot uchun qabul qilinsin", "ruxsat berishingizni so'rayman", "ishonch bildiraman" kabi. Bunday qoliplashgan birikmalar matnga rasmiylik belgisini kiitadi. Qoliplashgan birikmalarni o'rganish va yodda saqlash hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi.

Sirdan qaraganda, hujjat tayyorlash juda oson ko'rindi, lekin har bir hujjatning o'ziga xos xususiyati – zaruriy qismlari, lisoniy talablari bor.

Hujjat tilida biror-bir shaxsga murojaat etganda, "Si=" olmoshi bosh harf bilan yoziladi. Ot turkumiga oid so'zlar ko'p ishlataladi. Son, odatda, raqam (I, II, X, 1, 2, 10) bilan yoziladi. Pul bilan bog'liq o'rinnarda raqamdan so'ng qavs ichida shu raqamning ifodasi so'zlar bilan qayd etiladi. Hujjatga oid gaplarda inversiya (gap bo'laklarining o'zgargan tartibi)ga yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlar matni I shaxs yoki III shaxs nomidan yoziladi. Qonun moddalar esa shaxssizlik xususiyatiga egadir, chunki qonunla davlat amri bo'lib, davlat nomidan chiqariladi.

Hujjatchilikda imlo qoidalariga alohida, tinish belgilaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Har bir hujjatning nomi matn tarkibida atoqli ot sifatida bosh harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yilmaydi. Qolgan o'rinnarda hujjat nomlari kichik harf bilan yoziladi.

Hujjat tayyorlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish talab etiladi:

1) har bir hujjatni tuzishda uning zaruriy qismlariga qat'iy rioya qilinishi lozim, ya'ni zaruriy qismlarning o'ren almashinuviga yo'l qo'yilmaydi; 2) har kim o'z bilganicha hujjat to'lg'izishiga ruxsat berilmaydi; 3) hujjatlardan ariza, tarjimayi hol, tushuntirish xati, shaxsiy ishonchnoma, ba'zan hisobot, bildirishnoma, bildirgi ham hujjat to'ldiuvchining o'z dastxatida yoziladi; qolgan hujjatlar esa turli yozuv uskunlari vositasida yozilishi mumkin; 4) hujjatlar matnida tuzatish va o'chirishga yo'l qo'yilmaydi, bunday hujjatlar haqiqiyligini yo'qotadi, ya'ni qalbaki hisoblanadi. Alohida ahamiyatga ega hujjatlar to'ldirilganda hujjat to'ldiruvchining imzosi muassasa, xo'jalik yoki notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi shart.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnomha, nizom, shartnomha va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnomha, dalolatnomha, ishonchnoma, tavsifnomha, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. Xizmat yozishmalari (taklifnomha, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarda quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz) // bildiraman(miz) // eslataman(miz)»;

2) «...ga rozilik bildiradi», «kafolat beradi», «qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «... tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.



Mavzuga oid savollar

1. Hujjatchilikning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni haqida ma'lumot bering.

2. Ish hujjatlarining dastlabki namunalari qaysi davrlarga tegishli?

3. Ish hujjatlar oldiga qanday talablar qo'yiladi?

4. Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

5. Elektron hujjatlar haqida ma'lumot bering.



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Quyida berilgan birikmalardan rasmiy uslubga xoslangan birikmalarni ajrating.

Aytib o'tmoq, ta'kidlab o'tmoq, qayd etmoq, qayt etmoq, bo'shatib yubormoq, vazifasidan ozod etmoq, masalasini hal qilmoq, chora ko'rmoq, jazo qo'llamoq, vaziyatni yumshatmoq, ayovsiz tanqid qilmoq, ehtiyyot chorasini qo'llamoq, hisobot uchun qabul qilmoq.

№2. Namuna bo'yicha amaliyotning natijalari to'g'risida hisobot yozing.
 (Professor, dotsent) rahbarligida, 2022-yilning ... dan ... gacha amaliyotda bo'ldim. Bundan tashqari alohida topshiriqlarni bajardim, ... o'rganib oldim, tajriba orttirdim.

№3. Qavs ichidagi savollar yordamida kerakli so'z va so'z birikmalarini zarur kelishik qo'shimchalar bilan qo'llang. Gaplarni daftaringizga yozing.

1.Talabalar (qayerdan?) qaytishdi. 2.Parazitologiya kafedrasи mudiri G.Rahimov (qayerdan?) qaytdi. 3.Talabalar (qayerga?) jo'natildi. 4.Veterinar (qayerga?) jo'natildi. 5.Talabalar ishlab chiqarish amaliyotini (qayerda?) o'tashdi. 6. Biotexnologiya fakulteti talabalari (qayerda?). 7. Veterinariya diagnostikasi fakulteti binosida (nima?) o'tkazildi.

№4. Mos javoblar asosida jadvalni to'ldiring.

Hujjat turlari		Hujjatlar
Tashkiliy hujjatlar		buyruq, ko'rsatma, farmoyish
Farmoyish hujjatlari		ariza, bayonnomा, dalolatnomа, ishonchnomа, tavsifnomа, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon
Ma'lumot-axborot hujjatlari		taklifnomа, telegramma, xatlar
Xizmat yozishmalari		guvohnomа, yo'riqnomа, nizom, shartnomа

№5. Quyidagilardan ma'lumot-axborot hujjatlar nomlarini ajratib yozing.

Guvohnomа, yo'riqnomа, buyruq, farmoyish, ariza, bayonnomа, dalolatnomа, ishonchnomа, tavsifnomа, tarjimayi hol, tilxat, ko'rsatma, nota, e'lon, taklifnomа, telegramma, xatlar, tushuntirish xati, nizom, shartnomа, bayonot, ma'lumotnomа, bildirishnomа, kafolat xati.

№6. Quyida berilgan ma'lumot bilan tanishing. Hujjatning mazkur jihatga ko'ra turida e'tibor qaratiladigan xususiyatlarni ko'rsating.

Hujjatlar mazmun bayonining shakliga ko'ra uch turli bo'ladi:

1. Xususiy hujjatlar:

➤ fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ular asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo'ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

2.Namunaviy hujjatlar:

➤ har bir taskilot va uning bo'linmalari uchun zaruriy bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnomа, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.

3.Qolipli hujjatlar:

- ko‘plab turlari mavjud, ular soha faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

№7. Quyida berilgan hujjat namunasidagi xatoliklarni toping va to‘g‘irlab ko‘chiring.

Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasи va chorvachilik biotexnologiyalar Universiteti Veterinariya diagnostikasi fakulteti 101-guruh talabasi Eshbo‘riyev Hakimjonidan fakultet dekani Prof. B.Davlatovga

TUSHUNTIISH XATI

Meni 2022-yilning 10-14-mart kunlari oilaviy muammolarim sababli darslardan ozod qilishingizni so‘rayman. Qoldirilgan darslarni qayta topshirish orqali o‘zlashtirib olishga va’da beraman.

2022.03. 4 (imzo) ism, sharif

№8. Hujjat turi nomini toping va nuqtalar o‘mini mos qo‘srimchalar bilan to‘ldiring.

“O‘zbek , rus tillari va adabiyoti” kafedrasи
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi Y.Shaymanova...
Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash
texnologiyasi yo‘nalishi 104-guruh talabasi
Alisher Doniyorov...
.....

Men 2022-yil 8-noyabr kuni 3-juftlik darsi... hech bir sababsiz ishtirot et...dim. Bunday holat boshqa qaytarilmaydi. Mabodo qaytaril..., tegishli chora ko‘rishingiz... qarshi emasman.

12.04.2022

imzo. A.Doniyorov

№9. Quyidagi hukmlar orasidan to‘g‘ri deb hisoblaganlaringizni belgilang va asoslab bering.

- Ish hujjatlari umumiy bitta qolip asosida yuritiladi.
- Uslubiga ko‘ra ish hujjatlari 3 turga bo‘linadi.
- Tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo‘riqnomा, nizom, shartnomा kabi hujjatlар kiradi.
- Tashkiliy hujjatlар aynan bir shaxs tomonidan yoziladi.
- Ariza, bayonna, dalolatnomा, ishonchnomа kabilar ma’lumot-axborot hujjatlari kiradi.
- Taklifnomа, telegramma kabilar javob talab qilmaydigan ish hujjatlari hisoblanadi.
- Qoralama har qanday hujjatning asli, birinchi rasmiy nusxadir.
- Ikkinci nusxa (dublikat) asl nusxa bilan bir xil huquqiy kuchga ega emas.

➤ Nusxa va ko‘chirmalar, notarius, kadrlar bo‘limi va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo‘ladi.

➤ Farmoyish hujjatlari mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

№10. Ariza yozishda foydalaniladigan quyidagi qoliplashgan birikmalarni esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

... qabul qilishingizni so‘rayman, ... ta‘mirlashingizni so‘rayman, ... ozod etishingizni so‘rayman, ... ruxsat berishingizni so‘rayman, ... veterinariya fakultetiga o‘tkazishingizni so‘rayman.



Mavzuga oid testlar

1. Hujjatlar tuzilishiga ko‘ra nechta turga bo‘linadi?

- A) ichki va tashqi hujjatlar B) sodda va murakkab
C) namunaviy va qolipli D) rasmiy va shaxsiy

2. Davlat tomonida chiqariladigan qonun va farmoyishlar nechanchi shaxs nomidan yoziladi?

- A) I shaxs B) II shaxs C) III shaxs
D) Bunday hujjat turlari shaxssizlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

3. Tashkiliy hujjatlarga qaysilar kiradi?

- A) buyruq, buyruqdan ko‘chirma, farmoyish, ko‘rsatma
B) ariza, bayonna, bildirishnoma, dalolatnoma
C) guvohnoma, yo‘riqnom, nizom, shartnoma
D) adres, taklifnoma, xatlar, telegramma

4. Qaysi uslub uchun frazeologik birikma ishlatalishi xos emas?

- A) ilmiy va rasmiy B) badiiy va rasmiy
C) ilmiy va badiiy D) so‘zlashuv va ilmiy

5. Hujjatlar matni qanday talablar asosida ko‘riladi?

- A) xoslik, aniqlik B) ixchamlik, lo‘ndalik
C) mazmuniy to‘liqlik D) barcha javoblar to‘g‘ri

6. Qonun matnlari, farmonlar, buyruqlar, ariza, hujjatlar qaysi uslubda yoziladi?

- A) badiiy uslub B) so‘zlashuv uslubi C) ilmiy uslub D) rasmiy uslub

7. Ma’muriy boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko‘ra hujjatlar qanday guruhlarga bo‘linadi?

- A) tashkiliy, farmoyish hujjatlari B) ma’lumot-axborot hujjatlari
C) xizmat yozishmalari D) barcha javoblar to‘g‘ri

8. Farmoyish hujjatlari guruhiga qanday hujjatlar kiradi?

- A) guvohnoma, yo‘riqnom, dalolatnoma B) buyruq, ko‘rsatma, farmoyish
C) farmoyish, ariza, bayonna D) hisobot, buyruq, dalolatnoma

9. Ma'lumot-axborot hujjatlar guruhiga qaysi hujjatlar kiradi?

A) ariza, bayonnama, bildirishnoma, dalolatnoma

B) e'lon, hisobot, buyruq, ariza

C) guvohnoma, hisobot, tilxat, buyruq

D) ma'lumotnoma, shartnoma, e'lon, vasiyatnoma

10. Hujjat matni qaysi shaxs tilidan yoziladi?

A) 1, 2 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 1




Uy ishi

O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida"gi qonunida ish yuritish hujjatlarining davlat tilida rasmiylashtirilishi haqida berilgan moddalar mazmuni bilan tarnishing.



Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyida berilgan slaydlarda ko'rsatilgan hujjat turlari haqida ma'lumot tayyorlang.



15-MAVZU. ISH YURITISH HUJJATLARI TURLARI.

Reja:

1. Ish yuritish hujjatlarining tuzilishga ko'ra turlari.
2. Hujjatlar mazmuniga ko'ra turlari.
3. Mazmun bayonining shakli jihatidan hujjat turlari.
4. Hujjatlarning tegishlilik jihatiga ko'ra turlari.
5. Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati ko'ra turlari.
6. Hujjatlardagi zaruriy qismlar (revvizitlar) va ularni rasmiylashtirish.

Tayanch so‘z va iboralar: hujjat turlari, uzlusiz faoliyat, ish yuritish, til, nutq uslublari, sodda va murakkab hujjatlar, hujjatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ishonchnoma, tushuntirish xati, tilxat, tilning lug‘at tarkibi, so‘z boyligi, xizmat yozishmalari.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko‘ra tasnif qilinadi. Tasniflashda mutlaqo bir xil guruhlashtirish mavjud bo‘lmasa-da, har qalay, ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlashtirish mumkin.

Hujjatshunoslikdagi ana shu an‘anaga ko‘ra ish yuritishdagi hujjatlar, eng avvalo, tuzilish o‘rniga ko‘ra tasnif qilinadi. Bu jihatdan **ichki va tashqi hujjatlar** farqlanadi. *Ichki hujjatlar* ayni muassasaning o‘zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalilanadigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladiganlari esa *tashqi hujjatlar* hisoblanadi.

Hujjatlar mazmuniga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: 1) **sodda hujjatlar** muayyan bir masalani o‘z ichiga oladi; 2) **murakkab hujjatlar** ikki yoki undan ortiq masalani o‘z ichiga oladi.

Mazmun bayonining shakli jihatidan **xususiy, namunaviy va qolipli** (yoki trasfaretli) hujjatlar farqlanadi. Matnning o‘ziga xosligi, betakrorligi, hamisha ham bir andozada bo‘lmasligi *xususiy hujjatlarning* asosiy belgilariadir (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham muayyan doimiy tarkib mavjud bo‘lsa-da, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo‘ladi. *Namunaviy hujjatlar* boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog‘liq, bir-biriga o‘xshash va ko‘p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o‘z ichiga oladi. *Qolipli hujjatlar*, odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog‘ozlariiga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, ya’ni *o‘zgarmas* (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va *o‘zgaruvchi* (hujjatni tuzish paytida yoziladigan) axborotlar; shuning uchun bu tur hujjatlarga nisbatan ko‘pincha «yozmoq» emas, balki «to‘ldirmoq» so‘zi ishlataladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, hujjatlarning qolipli turlari doirasini kengaytirish – ish yuritishni takomillashtirishdagi maqbul yo‘llardan biridir. Chunki bu tadbir hujjat matnlarini bir xil qilish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan vaqt hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlar sirasiga, masalan, ish haqi yoki joyi haqidagi ma‘lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safari guvohnomalari va boshqa ko‘plab hujjatlami kiritish mumkin.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko‘ra, xizmat yoki **rasmiy hujjatlar** va **shaxsiy hujjatlarga** ajratiladi. *Xizmat hujjatlari* tayyorlanishiga ko‘ra, muassasa yoki mansabdar shaxslarga tegishli bo‘lsa, *shaxsiy hujjatlar* yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog‘liq masalalarga tegishli bo‘ladi (masalan, shaxsiy ariza, shikoyat va h.k.).

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jihatiga ko‘ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: **qoralama; asl nusxa; nusxa; ikkinchi nusxa (dublikat), ko‘chirma.** Aksar hujjatlar dastlab *qoralama* nusxada tayyorlanadi, bu hujjat muallifi, ya’ni tayyorlovchining qo‘lyozma yoki kompyuterda ko‘chirilgan dastlabki nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta

ko'chirilishi mumkin. Aytish joizki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. *Asl nusxa* har qanday hujjatning asli, birinchi rasmiy nusxasidir. Asl nusxaning aynan qayta ko'chirilgan shakli *nusxa* deb yuritiladi, odatda, o'ng tomonidagi yuqori burchagiga «Nusxa» degan belgi qo'yiladi. Hujjatchilikda, shuningdek, aynan (faksimil) va erkin nusxalar ham farqlanadi. *Aynan nusxa* asl nusxaning barcha xususiyatlari – hujjat zaruriy qismlarining joylashishi, mavjud shakliy belgilari (gerb, yumaloq muhr, to'rtburchak muhr, nishon kabi), matndagi bosma, yozma harf shakllari va shu kabilarni aniq va to'liq aks ettiradi, masalan, fotonusxani yoki kompyuterda chiqarilgan nusxani shu tur hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Erkin nusxada esa hujjatdagi axborot to'la ifodalansa-da, bu nusxa tashqi xususiyatlari jihatidan bevosita asliga muvofiq kelmaydi, ya'ni erkin nusxada asl nusxadagi muhr o'rniha «muhr» deb, imzo o'rniha «imzo» deb, gerb o'rniha «gerb» deb yozib qo'yiladi va h.k. Ba'zan muayyan hujjatga emas, balki uning bir qismiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday hollarda hujjatdan nusxa emas, balki *ko'chirma* olinadi (masalan, bayonnomadan ko'chirma, buyruqdan ko'chirma va h.k.). Nusxa va ko'chirmalar, albatta, notarius, kadrlar bo'limi, «QR» kod, elektron raqamli imzo va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo'ladi. Asl nusxa yo'qolgan hollarda hujjatning ikkinchi nusxasi beriladi, ikkinchi nusxa asl nusxa bilan bir xil huquqiy kuchga egadir.

Keyingi yillarda hujjatlarning elektron shakldagi nusxalarini O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – «lex.uz»ga joylashtirish amaliyoti shakllandi. Unda O'zbekiston Respublikasi miqyosida amal qiladigan qonun, farmon, qaror, farmoyish, kodeks, nizom, yo'rqnoma, uslubiy ko'rsatma, dastur, buyruq, ro'yxat, doktrina, deklaratsiya va yana boshqa ko'plab hujjatlar elektron shaklda joylashtirilgan. Mazkur tizimning joriy qilinishi aholining huquqiy ongini o'stirish bilan birga, istalgan joyda kerakli hujjat namunalarini bilan tanishish imkonini bermoqda.

Idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatning matni A4 formatdagi qog'oz varag'ining bir tomonida masshtab kichraytirilmagan holda joylashishi lozim. Qoida tariqasida, standart varaq 1,2 qator oralig'iда («множитель») yozilishi lozim; har bir bet: yuqorida va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega; xatboshi besh-olti belgiga teng va bir xilda bo'lishi lozim. Matnni kompyuter vositasida bosib chiqarishda «Times New Roman» 12 o'chamli shriftida yoki shunga o'xshash shriftni qo'llagan holda Microsoft Word matn redaktoridan foydalananish tavsiya qilinadi.

Hujjatlarning aniq turlari (buyruq blankalari, ma'lumotnoma blankalari, dalolatnoma blankalari va b.) bir yilda 200 donadan ko'proq ishlatalidigan bo'lsa, shunday blankalar chiqarishga yo'l qo'yiladi.

Aksariyat hujjatlarni, masalan, dalolatnoma, ma'lumotnoma, ishonchnoma, shuningdek, hisobxona hujjatlarini va boshqalarni tuzish oson bo'lishi uchun ulardagi qolip so'zlar yozilib ko'paytirilgan ish qog'ozlari ham odatda blanka deyiladi. Bulardan farqlash uchun yuqoridagi rasmiy xizmat blankalari «rasmiy ish qog'ozsi» deb yuritiladi.



Mavzuga oid savollar

1. Ma'lumot-axborot hujjatlari haqida ma'lumot bering.
2. Tashkiliy hijjatlar sirasiga kiruvchi hujjatlarni sanab o'ting.
3. Xizmat yozishmalari haqida ma'lumot bering.
4. Ish hujjatlari tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
5. Elektron hujjatlар haqida qanday ma'lumotga egasiz?



Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

№1. Quyida berilgan ariza namunasiga e'tibor bering, zaruriy qismlar joylashishini yodda saqlang.

TILXAT

Men, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalar universiteti iqtisodiyot va agrotexnologiya fakulteti texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish yo'nalishi 105-guruh talabasi Xoldorov Solmon Lazizovich ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha fakultet dekani o'ribosari Rozmurodov Do'stmurod Azizovichdan talabalar spartakiadasida voleybol bo'yicha ishtirok etayotgan fakultet terma jamoasi a'zolari uchun 12 dona yangi sport kiyimi, bir dona voleybol to'pi oldim. Kiyimlar va to'pni sport musobaqlari tugagach, dekanatga keltirib topshirishni o'z zimmamga olaman.

2022.18.01.

imzo

S.L.Xoldorov

№2. Hujjatlar matnida qo'llanishi mumkin bo'lgan quyidagi gaplar tarkibidagi fe'llarning nisbatini majhullik nisbati bilan almashtiring.

Meni veterinariya bo'limiga ishga taklif etishdi. Fermamizdagi qoramollarni emlashdi. Yirik shoxli qoramollar ustida tajriba o'tkazdi. Quyonchilikni rivojlantirish bo'yicha respublikada ilmiy anjuman o'tkazishdi. Mayda shoxli hayvonlarda mahsuldarlikni oshirish bo'yicha maqola tayyorladim.

№3. Quyidagi so'z va birikmalarni daftaringizga ko'chiring va izohini topib yozing.

Ariza, taklif, shikoyatnama, ilova, zaruriy qismlar, bildirgi, dalolatnama, hisobot, rasmiy munosabat, kafolat xati, ishonchnoma, tushuntirish xati.

№4. Quyidagi gaplarni ariza shakliga mos tarzda ketma-ketlik asosida joylashtiring.

- 1.Kasalligim tufayli qishki imtihonlarni o'z vaqtida topshira olmadim.
- 2.Kasalligim to'g'risidagi ma'lumotnama ilova qilindi. 3.Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti dekani R.B.Davlatovga.

4.Imtihonlarni topshirish uchun ruxsat berishingizni so'rayman. 5.Ariza. 6.101-guruh talabasi Boboyorov Davlatbek tomonidan.

№5.Quyidagi ishonchnoma matnida tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib matnni ko'chiring.

Ishonchnoma

Men, Samadov Alisher, guruhdoshim Tos temirov Ashraf... universitet hisobxonasi... men... nomim... 500.000 (besh yuz ming) so'm miqdordagi stipendiya... olish... ishonch bildiraman.

2021-yilning 10-apreli (imzo)

Samadov Alisher

Samadov Alisher... imzosi... tasdiqlay...

Universitet kadr... bo'lim... boshlig'... (imzo) N. Do'stmatov
(muhr)

№6.Quyidagi so'z va so'z birikmalarini yordamida gaplar tuzing.

Bayon nomma, ehitildi, kun tartibi, so'zga chiqdi, muhokama qilindi, hisobot uchun qabul qilinsin, qaror qiladi, yuklatilsin, belgilansin.

№7.Shartnomaga oid quyidagi so'z va so'z birikmalarini daftaringizga yozib oling va yodda tuting.

Shartnomma, buyurtmachi, muassasa, bajaruvchi, ijrochi, munosabat o'rnatmoq, majburiyatlarini oladi, amalga oshiriladi, moddiy javobgar hisoblanmaydi, o'z kuchini yo'qotadi, ijara ga oluvchi, zimmasiga oladi, bajaruvchining majburiyatları, buyurtmachining majburiyatları.

№8.Quyidagi birikmalardan foydalananib, matn talabiga binoan gaplar tuzing va yozing.

Viloyat veterinariya qo'mitasi. "Sahovat" fermer xo'jaligi, naschiliklik rivojlantirish bo'limi. Naslli mollarni keltirish. Polsha tajribasiga asosanlib. Mahsuldarlikni orttirish maqsadida. 100 bosh buzoq keltirish. Tajribali veterinarlar bilan maslahatlashib. Veterinar nazorati ostida. Kasallikka qarshi emlash.

№9.Qavs ichidagi so'zlarni kerakli qo'shimchalar bilan qo'llab, e'lon matnnini yaratting.

11 (aprel) yig'ilish bo'ladi. (yig'ilish) taklif etiladi. (Muzey) borish uyushtiriladi. (Majlisla zali) o'tkaziladi. (Talabalar) qatnashishi so'raladi.

№10.Taklifnomma matnnini zaruriy qismlar ketma-ketligi asosida joylashtiring.

Samarcand Veterinariya meditsinası va chorvachilik biotexnologiyalar universiteti ma'muriyati. Anjuman universitet faollar zalida o'tkaziladi. Hurmatli Rustam Hakimovich! Viloyat veterinarlar uyushmasi bilan hamkorlikda. A.Navoiy tavalludining 660 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan adabiy kechni. Adabiy kecha soat 10:00 da boshlanadi.

Mavzuga oid testlar

1. Hujjatlar tayyorlanish xususiyatiga ko‘ra qanday bo‘ladi?

 - A) qoralama, asl nusxa, nusxa, ikkinchi nusxa, ko‘chirma
 - B) asl nusxa, ikkinchi nusxa
 - C) qoralama, asl nusxa, nusxa, ko‘chirma
 - D) hujjatlar asl nusxada bo‘lib, zarurat tug‘ilganda nusxa olinadi

2. Hujjat matnlarida nimalar bayon etiladi?

 - A) yozilish sabablari ko‘rsatiladi, taklif va xulosalar beriladi
 - B) rasmiy munosabatlarni ifodalaydi
 - C) axborot, voqeа-hodisalar badiiy vositalar orqali bayon etiladi
 - D) rasmiy xarakterda bo‘lmaydi

3. Qaysi javobda hujjatga aloqador bo‘lмаган qismlar keltirilgan?

 - A) hujjatning nomi, ilova mavjudligi haqidagi qayd
 - B) sarlavha, tasdiqlovchi imzo, muhr
 - C) tasdiqlash ustxati, shartli raqam (indeks), sana
 - D) hujjat matnni izohlashga ko‘mak beruvchi grafik shakllar va rasmlar

4. Hujjatga aloqador bo‘lмаган hukmni aniqlang.

 - A) shaxsning hayoti davomidagi faoliyatini qayd etib boruvchi yozma vosita-rasmiy
 - B) xabar beruvchi yoki buyuruvshi yozma vosita
 - C) barcha hukm to‘g‘ri
 - D) munosabatlarni ifodalovshi va qayd etuvchi rasmiy vosita

5. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi?

 - A) qisqa, ravon, aniq va mantiqli bayon etiladi
 - B) hujjatning nomi yoki sarlavha to‘lig‘icha bosh harflar bilan yoziladi
 - C) matn I shaxs yoki III shaxs tilidan yoziladi
 - D) Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Tarixiy hujjatlar berilgan qatorni toping.

 - A) kafolat xati, bayonnomा, tuzilma
 - B) yo‘riqnomа, nizom, da’vo xati
 - C) farmoyish, ko‘rsatma, bildirishnomа
 - D) tilxat, farmon, bitim, patta

7. Iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan hujjat nomi nima?

 - A) ariza B) ma'lumotnomа C) ishonchnomа D) bildirishnomа

8. Jamiyatning barcha a‘zolari yozishi mumkin bo‘lgan hujjat turlarini belgilang.

 - A) ma'lumotnomа, ariza, e’lon
 - B) tushuntirish xati, tilxat, hisobot
 - C) ishonchnomа, tilxat, ariza
 - D) bildirishnomа, e’lon, tavsiyanomа

9. Qaysi hujjat turi kun tartibi, qaror kabi qismlardan iborat?

 - A) dalolatnomа B) bayonnomа
 - C) farmoyish D) hisobot

10. Hujjat turlaridan qay biri huquqiy kuchga ega emas?
A. asl nusxa B. nusxa C. qoralama hujjat D. ko'chirma

Uy ishi

Nuqtalar o'rnini mos qo'shimchalar bilan to'ldirgan holda hisobot matni yaratting.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasiga va chorvachilik biotexnologiya... universiteti ilmiy ishlari bo'yicha prorektor A.Daminov... O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasiga o'qituvchisi Eshniyazova Maysara... Toshkentdagi Navoiy nomli kutubxonada o'tkazilgan konferensiya haqidagi

Hisoboti

104-guruh talabalar... bilan mazkur konferensiya.... ishtirok etdi... Konferensiya taassurotlar... boy bo'l... Konferensiya... so'ng talabalar shahar... diqqatga sazovor joy... ekskursiya qilish... Ekskursiya talaba... katta qiziqish uyg'ot...

2022-yilning 12-fevrali

Guruh tutori:

(imzo) M.Eshniyazova

Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Guruh yig'ilishining bayonnomasini rasmiylashtirib, hujjat namunasi matnnini yaratting.

**“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fanidan rejalashtirilgan talabalar
mustaqil ta’limi mavzulari va topshirish shakli**

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Soat	Topshirish shakli
1.	Matn turlari va tarkibi	2	Namunalar tayyorlash
2.	Hujjatchilik tarixi va rivojlanishi	2	Ma’ruza tayyorlash
3.	Xizmat yozishmalariga namunalar yaratish (tushuntirish xati, kafolat xati, tilxat)	2	Namuna yaratish
4.	Ish hujjatlari namunalarini yaratish (ariza, bildirgi, tarjimayi hol)	2	Namuna yaratish
5.	“Yoshlar innovatsion g‘oyalar tashabbus-kori” mavzusida ko‘rgazmali material tayyorlash	2	Ko‘rgazmali qurol tayyorlash
6.	Dunyoning mashhur universitetlaridan biri haqida referat tayyorlash	2	Referat tayyorlash
7.	Til va terminologiya. Mutaxassislik atamlari lug‘atini yaratish.	2	Atamalarni imlo qoidalariga mos yozish va izohlash
8.	Badiii asar mutolaasi(“Chol va dengiz”, “Qiyomat”, “Yovvoyi yo‘rg‘a”, “Qorako‘z majnun”, “Ot kishnagan oqshom”). Asar taassurotlari mavzusida fikr va mulohazarini bayon qilish.	2	Istalgan shaklda taqdimot
9.	Sohaga oid ilmiy matn tuzish	2	Mustaqil ta’lim daftaringizga matn namunasini yozish
10.	A.Qahhor hikoyalari tili	2	Asardagi turg‘un birikma (ibora) o‘llanilishiga misollar keltirish
11.	Ixtiyoriy sohaga oid matn tanlab, uni tahlil qilish	2	Matnni daftaringizga yozib, organayzerlar orqali ifodalang
12.	Egallayotgan sohangiz bo‘yicha ilmiy maqola yozish	2	Maqola yozish
13.	Mutaxassisning odobi va nutqi mavzusida dialogik matn yaratish	2	Dialog tuzish
14.	Hozirgi o‘zbek imlosi haqidagi mulohazarilaringiz	2	Shaxsiy fikr-mulohazarilaringizni daftaringizda bayon eting
15.	O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari. Veterinariyaga xos o‘z va o‘zlashgan so‘zlar tasnifi.	2	Daftaringizga o‘zlashma so‘zlar izohini yozing
Jami:		30	

ZARUR HUJJATLAR VA ULARDAN NAMUNALAR

ARIZA – muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza amaliyotda eng ko‘p qo‘llanadigan va keng tarqalgan ish qog‘ozidir. Maktab o‘quvchisi va talaba, menejer va fermer, muhandis va olim, tadbirdor va mansabdor shaxs – jamiyatning barcha a’zosi ariza yozishdan xoli emas.

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chovachilik va biotexnologiyalar universitetи rektori X.B.Yunusovga Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi 14-uyda yashovchi Qarshiboyeva Zuhra Abduvahobovnadan

ARIZA

Meni O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasiga bir stavka o‘qituvchi lavozimiga ishga qabul qilishingizni so‘rayman.

Arizaga oliv ma’lumot to‘g‘risidagi guvohnomani ilova qilaman.

2022-yil 2-sentabr

(imzo)

Z.Qarshiboyeva

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chovachilik va biotexnologiyalar universitetи Biotexnologiya fakulteti dekani A.Nurniyozovga 1-bosqich 101-guruh talabasi Mirzaliyeva Moxinurdan

ARIZA

Kasalligim tufayli qishki imtihon va sinovlarni vaqtida topshira olmadim. Ana shu imtihon va sinovlarni qayta topshirishga ruxsat berishingizni so‘rayman. Arizamga kasalligim haqidagi vrach ma’lumotnomasi ilova qilindi.

2022-yil 28-fevral

(imzo)

M.Mirzaliyeva

Namuna

SamDVMCHBU rektori b.f.d.
X.B.Yunusovga universitetning katta o‘qituvchisi Jo‘rabek Islomovdan

ARIZA

Meni universitetning katta o‘qituvchisi lavozimidan o‘z ixtiyorimga ko‘ra ozod etishingizni so‘rayman.

2021-yil 30-dekabr

(imzo)

J.Islomov

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Zooinjeneriya fakulteti dekani E.Shaptakovga 1-bosqich talabasi Fozilov Jasurbekdan

ARIZA

Viloyatdan kelganimni inobatga olib, menga talabalar yotoqxonasidan joy berishingizni so‘rayman.

2021-yil 14-sentabr

(imzo)

J.Fozilov

BAYONNOMA - turli yig‘ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.

Namuna

Samarqand veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari 1-son yig‘ilishi BAYONI

«09» aprel 2022-yil

SamVMI 457-xona

Qatnashdilar: Kafedra mudiri S.Ulliyeva, katta o‘qituvchi: D.Xolboyeva, o‘qituvchilar: S.Gafurova, M.Abdusalomova, D.Umarova, D.Tosheva, Z.Vafayeva, D.Allayarova, Y.Shaymanova, Z.Qarshiboyeva, Sh.Hamidova, M.Eshniyazova.

KUN TARTIBI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagи PQ №187 sonli “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarori mazmuni va undan kelib chiqadigan vazifalar haqida. (Kafedra mudiri S.Ulliyeva).

2.Kafedrada O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 1-apreldagi 01-13/233-sont xati to‘g‘risida. (Kafedra mudiri S.Ulliyeva).

Eshitildi:

Birinchi masala yuzasidan kafedra mudiri S.Ulliyeva so‘zga chiqdi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 31-martdagи PQ №187-sonli “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish” to‘g‘risidagi qarori bilan tanishtirib o‘tdi: “Veterinariya va chorvachilik sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, Samarqand veterinariya meditsinası instituti faoliyatini ko‘lamini kengaytirish, xalqaro nufuzini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni tizimli olib borish, innovation ta’lim va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, ta’lim va ishlab chiqarishni uzviy bog‘lash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi

oliy ta'lrim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator masalalar ko'rib chiqilgan. Jumladan, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining Samarcand veterinariya meditsinasi instituti negizida Samarcand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi.

Universitetning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi: veterinariya, chorvachilik, biotexnologiya, agrotexnologiya, agroqtisodiyot tarmoqlari uchun oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash; zamonaviy o'quv va ilmiy-laboratoriya bazasini shakllantirish, ilg'or texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish; o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarни shakllantirishga yo'naltirish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va innovatsion o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish, veterinariya klinikasi, o'quv va ilmiy laboratoriya, o'quv tajriba xo'jaligi, ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalarida nazariy bilim hamda amaliyotning uyg'unligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratish; ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha uzuksiz ta'lrim tizimini yaratish; yetakchi xorijiy oliy ta'lrim muassasalari bilan qo'shma ta'lrim dasturlari va ilmiy loyihalarni joriy etish, Universitet professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish, bitiruvchilarning respublika va xorijiy oliy ta'lrim muassasalarida (ilmiy markazlarda) magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha tahsil olishlarini tashkil etish; o'quv jarayonini talabalarda mustaqil ta'lim olish, tizimli tahlil qilish, ijodiy fikrlesh va amaliy, jumladan tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish; sohadagi ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlarini Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarga biriktirgan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash; Universitetning yuqori bosqich talabalari hamda ilmiy izlanuvchilarining ilmiy-tadqiqot institutlari laboratoriyalarda faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish; tasarrufidagi ta'lrim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Universitet boshqaruven kengashiga quyidagi vakolatlar berildi: o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiiga haq to'lash miqdorlarini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib belgilash; Universitetning tashkiliy tuzilmasiga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan yangi lavozim va tarkibiy bo'lmalar hamda qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish; Universitet huzurida faoliyatining asosiy yo'nalishida ta'lim, ilm-fan va uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish; ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar uchun ta'lim davomiyligi muddatlarini belgilash; o'zaro kelishuvlar asosida respublikadagi oliy ta'lrim muassasalariaro ichki akademik mobillikni amalga oshirish; ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish.

Universitet veterinariya meditsinasi, veterinariya sanitariya ekspertizasi, veterinariya diagnostikasi va laboratoriya ishlari, veterinariya farmatsevtikasi, zooinjeneriya, veterinariya biotexnologiyasi, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash texnologiyasi yo'nalishlarida kadrlar tayyorlovchi tayanch davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Veterinariya sohasida ta'lim jarayonlarining amaliyat bilan bevosita uyg'unlikda tashkil etilishini, ilm-fan va texnologiyalar integratsiyasini ta'minlash maqsadida Universitet huzurida xo'jalik hisobida faoliyat yurituvchi Veterinariya klinikasi va kasalliklar diagnostikasi texnoparki tashkil etiladi. Universitet texnopark tarkibida veterinariya laboratoriya-diagnostika va profilaktika-davolash klinikasi; sun'iy urug'lantirish va naslchilik-seleksiya markazi; chorvachilik xo'jaliklari va aholi xonadonida parvarishlanayotgan hayvonlar uchun ozuqa etishtirish, jamg'arish va tayyorlash bo'yicha ularga amaliy yordam ko'rsatadigan maslahat markazi quyidagi tarkibi bo'linmalari tashkil etiladi".

So'zga chiqdi:

Shaymanova Y.: "Demak, bu qaror professor-o'qituvchilar zimmasiga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Kafedraning ilmiy salohiyatini oshirishimiz lozim".

Abdusalamova M.: "Kafedramiz professor-o'qituvchilar tomonidan xorijiy va mahalliy jurnal va konferensiyalarda maqolalar bilan ishtirot etish zarurati ortar ekan, demak, biz pedagoglar bu borada ham samarali ishlab, universitet reytingini oshirishimiz kerak".

Hamidova Sh.: "O'zbek tili o'qituvchilaridan kamina, Eshniyazova M., Qarshiboyeva Z.lar pedagogika, tilshunoslik va adabiyotshunoslik ixtisosliklari bo'yicha mustaqil tadqiqot olib borishni boshladik. Yaqin kelajakda PhD darajasini olish uchun maqsadli harakat qilmoqdamiz".

Ikkinci masala yuzasidan kafedra mudiri S.Ulliyeva axboroti tinglandi. U O'zbekiston Respublikasi Samarcand viloyati hokimining 2022-yil 1-apeldagi 01-13/233-soni xati mazmuni bilan jamoani tanishtirib, kafedra o'qituvchilar oldida turgan galdeg'i vazifalar to'g'risida gapirdi: "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldag'i "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli qaroriga asosan "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. "Yo'l xaritasi mazmuniga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yuzasidan tayyorlangan dissertatsiyalar himoyasi bilan bog'liq jarayonlarning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bo'lishini ta'minlash" (17-band), "Ish qog'ozlari, turli blankalarning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bo'lishini ta'minlash" (18-band), "Mamlakatimizdagi joy, ko'cha, atamalar, tashkilotning nomlari, peshlavhalar, ommaviy targ'ibot vositalari, reklama va e'lonlarning to'liq lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilishini ta'minlash" (19-band), "Markaziy, mahalliy bosma va electron ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, nashriyotlar, matbaa korxonalari faoliyatini lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tkazish" (20-band), 2023-yil 1-yanvardan "Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o'zbek

alifbosida ishlab chiqish, qabul qilish va e'lon qilish" (21-band) topshiriqlari belgilab qo'yilgan. Shu munosabar bilan bizdan qarorda belgilangan bandlar ijrosini o'z vaqtida sifatl bajarish choralarini ko'rish, xodimlar uchun haftada kamida bir marta lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etishingizni hamda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida har oyning 30-sanasigacha viloyat hokimligiga axborot berish so'ralgan. Mazkur xat yuzasidan amaliy ishlarni boshlashimiz lozim".

So'zga chiqdi:

Qarshiboyeva Z. "Demak, dars mashg'ulotlarini tashkil etish, asosan, o'zbek tili fani o'qituvchilarining zimmasiga tushadi. Biz kafedrada tashqi o'rindoshlik asosida dars beruvchi professor-o'qituvchilarni ham jalb qilishimiz kerak".

Shaymanova Y. "Har hafta shanba kuni soat 10.00 da universitet xodimlariga lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etaylik".

Qaror qilindi:

1.Kafedra mudiri Ulliyeva S.ning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdag'i PQ №187 sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlashni tubdan takomillashtirish" to'g'risidagi qarori mazmuni va undan kelib chiqadigan vazifalar haqidagi axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O'quv jarayonini tashkil etishda sifat va samaradorlikka erishish, amaliy mashg'ulotlarni maqsadli tashkil etish hamda ko'rgazmalilikka erishishga e'tibor qaratish lozimligi belgilab qo'yilsin.

3.Kafedrada rejalashtirilgan ochiq darslarning o'tkazilish holati qoniqarsiz ekanligi qayd etilsin hamda semestrdagi qolgan muddat davomida reja qilingan ochiq darslarning o'tkazilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

4. Kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv yili yakuniga qadar milliy va xalqaro ilmiy bazalarda ro'yxatdan o'tgan va OAK tasarrufidagi ilmiy jurnallarda kamida bittadan maqola nashr ettirilsin.

5.Universitat professor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlariga haftaning shanba kunlari soat 10.00 da lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etilsin. Dars mashg'ulotlari grafigi quyidagi tartibda tasdiqlansin:

T/r	O'qituvchining ismi-sharifi	Dars vaqtি	Auditoriya
1.	Hazratqulov Mutallib	09.04.2022	457
2.	Hamidova Shoira Atabayevna	16.04.2022	457
3.	Eshniyazova Maysara Beknazarovna	23.04.2022	457
4.	Shaymanova Yulduz Toshniyazovna	30.04.2022	457
5.	Oydinov Tursunmurod	07.05.2022	457
6.	Qarshiboyeva Zuhra Abduvahobovna	14.05.2022	457
7.	Xalova Maftuna	21.05.2022	457
8.	Hamidova Shoira Atabayevna	28.05.2022	457
9.	Eshniyazova Maysara Beknazarovna	04.06.2022	457
10.	Shaymanova Yulduz Toshniyazovna	11.06.2022	457

11.	Oydinov Tursunmurod	18.06.2022	457
12.	Xalova Maftuna	24.06.2022	457

6.Qaror ijrosini nazorat qilish kafedra mudiri S.Ulliyeva zimmasida qoldirilsin.

Yig‘ilish raisi:

S. Ulliyeva

Kotiba:

M.Eshniyazova

BILDIRISHNOMA, BILDIRISH, BILDIRGI – muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqe va hodisa haqida xabar berish zarurati tug‘ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot.

Namuna

SamDVMCHBU Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti dekani H.B.Niyozogva O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi Z.Qarshiboyevadan

BILDIRISH

2021-2022-o‘quv yili 2-semestri davomida 116-guruuning quyidagi talabalari O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi fanidan olib borilgan o‘quv mashg‘ulotlarida sababsiz dars qoldirganini ma’lum qilaman:

Faxratova L. – 12 soat

Faxxudinova J. – 12 soat

2022-yil 18-mart (imzo) Z.Qarshiboyeva

ISHONCHNOMA – muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o‘z nomidan ish ko‘rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat.

Namuna

ISHONCHNOMA

Men, SamDVMCHBU O‘zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi, Abdunabiyeva Barno Abdurasul qizi, kafedrada o‘qituvchi bo‘lib ishlaydigan Boboxonova Dilbar Yoqubjon qiziga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasidan nomimga yozilgan fan nomzodi diplomini olishi uchun ishonch bildiraman.

2023-yil 16-iyun

_____ B.Abdunabiyeva

B.Abdunabiyevaning imzosini tasdiqlayman.

SamDVMCHBU kadrlar bo‘limi

boshlig‘i

N.Rajabov

2023- yil 16-iyun

Namuna

ISHONCHNOMA

Men, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veterinariya profilaktikasi va davolash fakultetining 1-bosqich 105-guruh talabasi Sapayev Sapabay Sa'dulla o'g'li, kursimiz talabasi Vafaqulova Sitora Abror qiziga (AA seriyadagi 0686520 raqamli pasportga ega) universitet g'aznasidan menga tegishli 2022-yil iyun oyi stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

(imzo) S.Sapayev
 2022-yil 1-iyul

S.Sapayevning imzosini tasdiqlayman.

Veterinariya profilaktikasi va davolash
fakultetining dekani

(imzo) H.B.Niyozov

(muhr)

2022-yil 1-iyul

MA'LUMOTNOMA – bo'lgan voqeя yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdor, xususiy va yuridik shaxslar hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladi hamda biron-bir masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Namuna

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5

tel.: 71 233-71-44

140-sod 2019-yil 30-aprel

MA'LUMOTNOMA

Hamid Karimovich Husanov, haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 4054050 (to'rt million ellik to'rt ming ellik so'm) maosh bilan katta ilmiy xodim lavozimida ishlaydi.

Ma'lumotnomaga Toshkent shahridagi 22-maktabga ko'rsatish uchun berildi.

Ilmiy kotib (imzo) R. Barakayev

Bosh hisobchi (imzo) D. Sultonova

(muhr)

TAVSIFNOMA – ma'lum bir shaxsnинг mehnat va ijtimoiy faoliyat, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, 1977-yilda tug'ilgan, o'zbek, Eshniyazova Maysara Beknazarovnaga

T A V S I F N O M A

Eshniyazova Maysara Beknazarovna 1995-1999-yillar davomida Samarqand davlat universitetining O'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Bugungi kunga qadar Samarqand davlat chet tillar instituti Umumiyl tilshunoslik kafedrasida, Samarqand davlat chet tillar instituti Tayyorlov markazida, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyida faoliyat yuritgan. 2022-yildan buyon Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasida o'zbek tili o'qituvchisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Eshniyazova Maysara Beknazarovna o'z pedagogik faoliyati davomida 2 ta uslubiy qo'llanma, 15 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etgan, xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallar va ilmiy anjumanlar maqolalari bilan ishtirok etib turadi.

M.B.Eshniyazova 10.00.02 – O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Alisher Navoiyning irfoniy-tasavvufiy asarlarida kichik janrlarning poetik takomili" mavzusida mustaqil tadqiqotchi sifatida ish olib bormoqda.

M.B.Eshniyazova mas'uliyatlari, mehribon va talabchan ustoz. U o'zining yangiliklarga qiziquvchanligi, mehnatsevarligi, vazifalarni sidqidildan bajarishi, to'g'riso'zligi va kamtarligi bilan ajralib turadi. U doimiy ravishda o'z malakasini, siyosiy-iqtisodiy va ilmiy-nazariy jihatdan oshirish ustida qat'iyat va sabr-toqat bilan ishlaydi.

U fidoiy, kamtarin, jonkuyar o'qituvchi, murabbiylik mahorati va ilmiy ijodkorlik qobiliyati bilan universitet hamda kafedra jamoasi orasida o'z hurmatiga ega.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor

A.S.Daminov

Universitet kasaba uyushma
qo'mitasi raisi

A.Y. Hosilbekov

TARJIMAYI HOL – ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimayi hol mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir.

Namuna

TARJIMAYI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1980-yil 15-sentabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug'ildim.

Otam – Salimov Olim Oripovich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o'qituvchi, onam – Rahimova Gulnora Azimovna 122-bolalar bog'chasi bosh tarbiyachi bo'lib ishlaydilar.

1987-yildan 1997-yilgacha Toshkent shahridagi 1-o'rta maktabda o'qidim. 1997-yilda Toshkent texnika universitetining qurilish fakultetiga o'qishga kirdim. 1998-2000-yillarda armiya safida haqiqiy xizmatni o'tab qaytgach, o'qishni da-vom ettirdim va 2004-yilda shu universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi-muhandis mutaxassisligiga ega bo'ldim. Yo'llanma bilan Toshkentdagi 166-qurilish trestining 94-mexanizatsiyalashgan ko'chma korxonasiga ishga yuborildim. Dastlab muhandis lavozimida, 2009-yildan buyon bosh muhandis lavozimida ishlayapman.

2011-yilda rejadagi topshiriqlami muvaffaqiyatli bajarganim va erishilgan natijalar uchun Respublika Qurilish vazirligining faxriy yorlig'i bilan taqdir-landim. Bir necha jamoat ishlarida ham qamashaman, jumladan, 166-qurilish tresti kasaba qo'mitasining a'zosiman.

2001-yildan XDP a'zosiman.

Uylanganman. Xotinim Rasulova Muhabbat, 1982-yilda tug'ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo'lib ishlaydi. O'g'lim – Salimov Nodir, 1996-yilda tug'ilgan, O'zMU talabasi. Qizim – Salimova Lola, 2001-yilda tuglilgan, 261-maktabda o'qiydi.

Mening turarjoyim: 100210, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi 5-uy 27-xonodon. Tel.: 71 272-28-61.

(imzo) K. Salimov

2020-yil 15-yanvar

TILXAT – pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Namuna

TILXAT

Men, Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti iqtisodiyot va agrotexnologiya fakulteti texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish yo'naliishi 1-kurs talabasi Xoldorov Solmon San'at o'g'li, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha fakultet dekani o'ribosari Rozmurodov Do'stmurod Azizovichdan talabalar universiadasida futbol bo'yicha ishtiroy etayotgan fakultet terma jamoasi a'zolari uchun 12 dona yangi sport kiyimi, bir dona futbol to'pi oldim. Kiyimlar va to'pni sport musobaqalari tugagach dekanatga keltirib topshirishni o'z zimmamga olaman.

2022.18.02.

imzo

Xoldorov S.S.

TUSHUNTIRISH XATI – xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo‘lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo‘llanuvchi hujjatdir.

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetи iqtisodiyot va agrotexnologiya fakulteti dekani E.X.Berdimorodovga shu fakultetning texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish yo‘nalishi 1-kurs 105-guruh talabasi Nurmuhammadova Baxtimisodan

TUSHUNTIRISH XATI

2022-yil 23-fevral kuni ertalab soat sakkiz yarimlarda fakultet o‘quv binosi 375-xonada dugonam Fayzullayeva Sohiba bilan dars tayyorlab o‘tirgan edik. Shu payt qattiq shamol tufayli xonaning ikkita derazasi birdaniga ochilib ketdi va deraza raxiga terib qo‘yilgan gultuvaklardan uchtasi polga tushib, sindi. Biz gullar va gultuvaklarning siniqlarini yig‘ishtirib oldik. Gultuvaklarning sinishida hech kim aybdor emas.

2022.27.02.

imzo

Nurmuhammadova B.

E’LON – ko‘pchilikni yoki ma’lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada (kelgusida) bo‘ladigan biron-bir tadbir, majlis, uchrashuv, suhbat, shuningdek, ishga, o‘qishga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun yo‘llanuvchi yozma axborot.

Namuna

E’LON!

Assalomu alaykum!

Barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari diqqatiga!

SHOSHILINCH!

Topshiriqqa muvofiq kafedradagi barcha professor-o‘qituvchilarning yangilangan ma’lumotnomasi (obyektivka)larini (universitetga o‘zgartirib, barcha ma’lumotlar yangilangan holda imlo xatolarsiz), namunaviy shaklga qat’iy rioya qilgan holda, kirill alifbosida 2022-yil 28-may kuni soat 13:00ga qadar qo‘sishma ogohlantirishlarsiz xodimlar bo‘limiga elektron (word) variantda taqdim etishlaringiz so‘raladi!

Namuna

E'LON!

Hurmatli kafedra mudirlari!

2022-yilning birinchi yarim yilligi (1-yanvardan 20-iyungacha holati) kafedrada ilmiy sohada bajarilgan ishlar bo'yicha ma'lumot berishingiz so'raladi.
(professor, o'qituvchi, doktorant, magistr barchasi)

Berilgan jadvalni o'z vaqtida to'ldirib berishingiz so'raladi. Ma'lumotlar OO'MTVga taqvim etiladi.

Ushbu topshiriqni 2022-yikning 21-iyuniga qadar ilmiy bo'lim boshlig'iga yetkazishingiz lozim. Berilgan ma'lumotlar asosida kafedra, fakultet reyting ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Belgilangan muddatdan kech taqdim etilgan hujjatlar e'tiborga olinmaydi.

HISOBOT – muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Namuna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 101-guruh talabasi Sheravatov Shaxbozning universitet o'quv xo'jalik hududida o'tkazgan bir oylik amaliyoti davomida olib borgan ishlari haqida

HISOBOT

Men joriy o'quv yilining 23-mayidan 4-iyun sanasigacha universitet o'quv xo'jalik hududida amaliyot o'tadim. Shu hududda men dorivor o'simliklarning yangi navlarini yetishtirishga doir tajribalarni kuzatib bordim, ularni o'stirish, oziqlantirish, parvarishlash jarayonlari bilan tanishdim. To'plangan ma'lumotlarni amaliyot daftaringma qayd etib bordim.

Amaliyotchi:
2022-yil 6-iyun

(imzo) Sh.Sheravatov

TAKLIFNOMA – biror-bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qo'llanadigan yozma axborot.

Namuna

TAKLIFNOMA

Muhtaram (a)

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Sizni ulug' o'zbek adibi ABDULLA QODIRIY tavalludining 125 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjumanga taklif etadi.

Ilmiy anjuman shu yil 12-yanvar kuni soat 10.00 da O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining majlislar zalida boshlanadi.
(Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy, 2-qavat).

Namuna

Oilaga e'tibor – o'zligingizga e'tibor

Muhtaram(a) !

Sizni 2019-yil 28-yanvar soat 14.00 da Chilonzor tumani 16-mavzesida bo'lib o'tadigan «Oila – sog'lom avlod beshigi» nomli davra suhbatiga taklif etamiz.

Tadbir dasturi:

1. Kirish so'zi. Sog'lom muhit – sog'lom avlod.

Toshkent shahri Chilonzor tumani hokimi o'rinosbasari, xotin-qizlar qo'mitasi raisi, p.f.n. M.A.Sodiqova.

2. Mehr sarchashmasi – oila.

«Mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, f.m.f.n. M. Iminova.

Manzil: Chilonzor tumani 16-mavzesi, 164-maktab binosi.

TELEGRAMMA – muhim xabarning telegraf orqali berilgan nihoyatda qisqa shakli. U bir muassasadan (yoki shaxsdan) ikkinchisiga yo'llangan rasmiy hujjat hisoblanadi. Xizmat yozishmalarining boshqa turlari belgilangan manzilga xabarni o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlay olmasa, uni zudlik bilan yetkazish uchun telegrafdan foydalaniladi.

Namuna

TELEGRAMMA

KATTAQO'RG'ON BOG'KO'CHA 25 PAXTA ZAVODI KARIMOVGA TEZDA BESH VAGON PAXTA TOLASI JO'NATING SHARTNOMA HISOB RAQAMI 1356 «O'ZPAXTASANOAT» UYUSHMASI SALIMOV

162

100160 Toshkent Shota Rustaveli 5

«O'zpaxtasanoat» uvushmasi

rais Salimov

2014-yil 2-aprel

muhr

Namuna

TELEGRAMMA

FARG'ONA 12 KATTABOG' 18

SALIMOVGA YIGIRMA OLTINCHI DEKABRDA 123 REYS BILAN
UCHAMAN KUTIB OLING SAYYORA
100187 Toshkent 187 Sadaf ko'chasi 4-uy

KAFOLAT XATI – muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarning bu turi, qoidaga ko'ra, bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turarjoy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo'natiladi.

Namuna

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani
XTBga qarashli 4-umumiy o'rta ta'limg
maktabi direktori M.Norqulovaga 5-«V» sinf
o'quvchisi Azimov Diyorbekning onasi
Asadullayeva Gulnoradan
Kafolat xati

Men, Pastdarg'om tumani 4-umumiy o'rta ta'limg maktabining 5-«V» sinf
o'quvchisi Azimov Diyorbekning onasi Asadullayeva Gulnora, O'zbekiston
Respublikasining «Ta'limg to'g'risida»gi Qonuni talablarining bajarilishiga,
farzandimning darslarga o'quv qurollari bilan o'z vaqtida qatnashishiga, maktab
ichki tartib va odob-axloq qoidalariga rioya etishiga kafolat beraman.

_____ imzo

Sana

Namuna

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tarjima
kengashiga

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti shu yilning sentabr
oyida «Badiiy tarjima va o'zbek adabiyotining xalqaro aloqalari» mavzusida
ilmiy-metodik konferensiya o'tkazishni mo'ljallamoqda. Konferensiyan
o'tkazishda Yozuvchilar uyushmasining tarjima kengashi hamkorlik qilishini
so'raymiz.

Konferensiya tezislarini nashr etish, taklifnomalar chiqarish, mehmonlarni
kutish kabi yumush va xarajatlarni universitet o'z zimmasiga oladi.

SamDU rektori _____ (imzo) _____ I. Familiyasi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100095, Toshkent sh. 2-Chumboy ko'chasi 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95; e-mail: devrematari@edu.uz; mdu@edu.uz; yed-ayt: www.edu.uz

2022-yil 7-yanvar

2/10-1/9-174-son

**Oliy ta'lrim muassasalarini rektorlari,
filiallar direktorlariga**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasining 2021-yil 25-dekabrdagi
02-RA 1/1-2008-son topshirig'i yuzusidan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashitirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5117-ton qororiga muvofiq **2022/2023 o'quv yilidan** boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklari tanlovlarda milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega shaxslar ishtirok etishi tartibi joriy etilishi belgilangan.

Bunda, filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nosifologik yo'nalishlari bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etilishi nazarda tutilgan.

Ushbuni inobatga olib, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2021-yil 25-dekabrdagi 02-RA 1/1-2008-son topshirig'i yuzusidan Siz rahbarlik qilayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalarining xorijiy tillar bo'yicha tayyorgarligini rivojlantirish, jumladan, qo'shimcha kurslar tashkil etish bo'yicha maliy chora-tadbirlarni amalga oshirishingiz so'raladi.

Vazirning
birinchi o'rinnbosari



K.Karimov

SAMARQAND TUMANI
XALQ TA'LIMI BO'LIMI
16-SONLI UMUMITA'LIM
MAKTABI

Tel: (+998) 95 614-41-16 email: samumtum@zmail.ru



THE DEPARTMENT OF
PUBLIC EDUCATION OF
SAMARKAND DISTRICT
SCHOOL № 16

Direktor: MR. Y. Samarkand district, Samarkand 140117
Phone: (+998) 66 614-41-16
email: samumtum@zmail.ru

2022-y. «14 iyune

Nr. 137

2022 r.


MA'LUMOTNOMA

Berildi ushbu ma'lumotnomsha shu haqdakim, 2022-yilning 31-may kuni
Samarqand tumani 16-umumi o'rta ta'limga muktabida tashkil etilgan I-sektor
Mobil metodik guruhni 1 juftlik dars mashg'ulotini Samarqand davlat
universiteti o'zbek tili fani o'qituvchisi Xamidova Shoira Atabayevna guruh
tinglovchilariga mahorat darsini o'tdi. Tinglovchilar son so'z turkumi
masalalarini keng muhokama qilishdi.

Samarqand tumani XTB ga qarashli

16-umumi o'rta ta'limga muktabi direktori:

D.Yusupova



Xalq ta'limi nazariya o'id barcha
yengish hovdasi qaydida havolalar



MUNDARIJA

15.000 ejer	
Kirish.....	3
1-mavzu. Kirish. O'zbek tilining sohada qo'llanishi fanining o'rghanish obyekti, maqsadi va vazifalari.....	4
2-mavzu. Til va yozuv masalalari.	13
3-mavzu. O'zbek tilining imlo qoidalari.	19
4-mavzu. So'z va uning ma'nolari.	34
5-mavzu. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....	41
6-mavzu. Til va terminologiya.	49
7-mavzu. Terminlarning yasalishi.	54
8-mavzu. Adabiy nutq uslublari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.....	62
9-mavzu. Adabiy nutq me'yorlari.	71
10-mavzu. O'zbek adabiy tilida tinish belgilarining ishlatalishi.	83
11-mavzu. Muloqot jarayoni va uning ko'rinishlari.	96
12-mavzu. Nutqning xususiyatlari.	107
13-mavzu. Matn va uning ko'rinishlari.....	122
14-mavzu. Hujjat turlari va ularning xususiyatlari.	131
15-mavzu. Ish yuritish hujjatlari turlari.	137
Mustaqil ta'lim mavzulari.....	144
Zarur hujjatlar va ulardan namunalar.....	145

29.06.2022-yilda bosishga ruxsat etildi.

Shartli bosma tabog'i 10,0. Qog'oz bichimi 60x84¹/₁₆.

"Times" garniturasi. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 6/2.

"Sardor poligraf" OK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Samarqand viloyati, Samarqand tumani "Xishrov" MFY.